

**U.V. G‘AFUROV, G‘.M. BEKQULBEKOV,
Q.Q. MAMBETJANOV**

**IQTISODIY TIZIMLAR
TRANSFORMATSIYALASHUV
JARAYONLARI NAZARIYASI**

TOSHKENT – 2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

U.V.G'AFUROV, F.M.BEKQULBEKOV, Q.Q.MAMBETJANOV

**IQTISODIY TIZIMLAR
TRANSFORMATSIYALASHUV
JARAYONLARI NAZARIYASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oily va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2013

UO'K: 330.42 (075)

KBK 65.01 (5Y)

G-29/5

**G-29 U.V.G'afurov, F.M.Bekqulbekov, Q.Q.Mambetjanov,
Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuv jarayonlari
nazariyasi.** –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.

ISBN 978-9943-10-984-1

Mazkur darslik Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va oliv o'quv yurtlarida magistrilar tayyorlash davlat andozasining talablari asosida yozilgan. Darslik mazmunini bayon etishda Respublika Prezidenti I.Karimov asarlaridan, Respublika qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan, keyingi yillarda mamlakatimizda va xorijda nasr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalardan keng foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy va amaliy jihatdan mukammallik darajasini oshirish maqsadida ko'plab monografiyalar, dissertatsiya va avtoreferatlar, Internet materiallari, mamlakatimiz iqtisodiy hayotiga oid statistik materiallardan keng foydalanilgan.

Darslik «Iqtisodiyot nazariyasi» mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchilari uchun mo'ljalangan.

UO'K: 330.42 (075)

KBK 65.01 (5Y)

Mas'ul muharrir:

Sh.Sh.Shodmonov – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi,
iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

X.P.Abulqosimov – iqtisod fanlari doktori, professor;
R.A.Yusupov – TDIU «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasi dotsenti,
iqtisod fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-10-984-1

**© U.G'afurov va boshq., 2013.
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.**

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik va bozor moddiy farovonligini ta'minlashning yagona va ishonchli yo'li – bozor munosabatlariga o'tish yo'nalishi belgilab berildi. Shaxsan yurtboschilimiz tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy strategiya va umumiy illari belgilab berilib, uning «O'zbek modeli»ga asos solindi.

Bosib o'tilgan tarixan qisqa davr mamlakatimiz rahbariyati boscheligidagi tanlangan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq tan olish kerakki, bugungi kunda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, ijobjiy o'zgarishlarga osонликча erishilayotgani yo'q. Bunda milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishning umumiy asoslangan va har tomonlama o'ylab chiqilgan islohotlar dasturini boshchil amalga oshirish o'z natijalarini bermoqda.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish o'ta ziddiyatlari, murakkab va uzoq davom etuvchi jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, kishilarning «hayot falsafasini» o'zgartirish, ularning dunyoqarashi, infakkurida tub o'zgarishlar hosil qilish qiyin kechadi. Buning ustiga, mamlakatning iqtisodiy negizida yangi munosabatlarni barpo etish ham oson emas.

Shunga ko'ra, bozor iqtisodiyotiga o'tish maxsus davrnı taqozo etadi. Bu davr iqtisodiyoti o'zidagi hodisa va jarayonlarning amal qilishi, qonuniyatlarning xususiyatlari bilan mustaqil tizimlardan farq qiladi.

Bugungi kunda iqtisodiyot sohasi bo'yicha oliv ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash tizimi oldiga yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Bulardan biri – hozirgi, bozor iqtisodiyotiga o'tish davri hodisa va jarayonlarini teran anglash, ularning davriy xususiyatlari mohiyatini tushunib yetish va ularga ongli ravishda munosabatda bo'lish, bu davr rivojlanish qonuniyat va ziddiyatlarini ochib berishga imkon yaratuvchi bilimlarga ega bo'lish hisoblanadi. Shunga ko'ra, oliv o'quv yurtlarining magistratura bo'limlarida «Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi» fanining o'qitilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

«Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi» fani iqtisodiyot nazariyasining tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, uni o'qitish jarayonida talabalardan chuqur nazariy bilim talab etiladi. Shuningdek, ushbu fan mamlakatimizdagi o'tish jarayonlarining mohiyatini tushunish, ularning xususiyatlarini ochib berishda hukumatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, uni amalga oshirishda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Farmonlar, Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar va boshqa ko'plab qonunlarni, maxsus me'yoriy hujjatlarni keng o'rganishni ham taqozo etadi.

Darslikni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarining nazariyasi va amaliyoti bayon etilgan qator asarlari, ma'ruza va nutqlaridan keng foydalanildi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining nazariy qoidaları, rivojlanish xususiyatlarini ifodalovchi ko'plab ilmiy, o'quv va ushbuviy adabiyotlar materiallari urumlashtirildi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy istohotlarning turli jihatlarini statistik ma'lumotlar orqali tahtiil qilindi.

Mazkur darslik «Iqtisodiyot nazariyasi» mutaxassisligi bo'yicha ta'llim oluvchi magistrlar, shuningdek, talabalar, aspirantlar, o'qituvchilar va ushbu muammoga qiziquvchi keng ommaga mo'ljallangan.

I bob. IQTISODIY TIZIMLAR

TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI NAZARIYASI

- IQTISODIYOT NAZARIYASINING BO'LIMI SIFATIDA

Tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlarning muntazam ravishda bir sifat holatidan boshqa biriga o'tib, o'zgarib turishi obyektiv qonuniyat hisoblanadi. Biroq, bunday o'zgarishlar oralig'ida o'ziga xos ma'lum davr mavjud bo'ladiki, u bir tomondan, hali o'z ta'sirini «yo'qtib» ulgurmagan eski holatlarni, boshqa tomondan, barqaror va to'laqonli faoliyat darajasiga erishmagan yangi sifat belgilarni uyg'unlashtirgan holda namoyon etadi. Bu davr odatda «transfomatsiya-lashuv davri» deb atalib, ayniqsa, uning ijtimoiy hodisa va jarayonlarning rivojidagi o'rni ahamiyatli hisoblanadi.

Iqtisodiy tizimlar transfomatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasini o'rganish mazkur bosqichni boshidan kechirayotgan ko'plab mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyat va muammolarni anglash, ularni o'z vaqtida va to'g'ri hal etish, ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatini to'g'ri tushunish asosida nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining amal qilishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini belgilash konsepsiysi va mezonlarini ko'rib chiqish mazkur fanning predmeti va vazifalari, bilish usullarini to'laroq anglashga yordam beradi.

1-§. Kishilik jamiyati taraqqiyotining amal qilishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar

Iqtisodiyot nazariyasi tarixiy fan sifatida kishilarning ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va iste'mol jarayonlaridagi xulq-atvorlarini, munosabatlarini o'rganadi. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan bu munosabatlar ham o'zgarib, takomillashib boradi.

Kishilik jamiyati o'z tarixiy taraqqiyotida turli holat (bosqich)larni bosib o'tgan. Shunga ko'ra, iqtisodiyot nazariyasi ham har bir holat (bosqich)ning muayyan tizimga solingen nazariy ifodasini aks ettiradi. Biroq jamiyat, unga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlar turli barqaror holatlarini amal qilishining o'zi uning boshqa sifat jihatlarini taqozo

etadi. Ya'ni bir barqaror holatdan boshqa biriga o'tish davrlari, maxsus o'tish holatlariga xos bo'lgan o'tish davri iqtisodiyoti vujudga keladi.


Har qanday fan real voqelikni aks ettirar ekan, ayni paytda tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu o'zgarishlar esa, o'z navbatida, muayyan predmet yoki hodisalarining bir holatdan boshqa biriga «o'tishi»ni taqozo etadi. Shu ma'nodagi «o'tish» obyektning sifat o'zgarishlari, uning mazmun tavsiflarining almashuvini anglatadi.

Tabiat va jamiyatdagi transformatsiyalar doimiy tavsif kasb etib, turli-tuman tarzda amalga oshadi. Ayniqsa, o'zgarishlar juda tez amalga oshuvechi ijtimoiy hayotdagi o'tish jarayonlarida bu holatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. «Transformatsiya» jarayonlarining qonuniyligi «transformatsiya holati»ning mavjud bo'lishini ham shartlaydi. Transformatsiya holati o'ziga xos o'tish davri sifatida maydonga tushadi. Agar tabiatda mazkur davr bir lahzadan tortib milliard yillargacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga olsa, ijtimoiy hayotda u oylar, yillar, o'n yilliklardan iborat bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlarining o'ziga xos belgisi bo'lib, uning beqarorligi hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda eski va yangi holatlarning unsurlari aralash holda amal qiladi. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi mavjud tizimdagи beqarorlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, pirovardida mazkur tizim o'zining o'rnini yangi iqtisodiy tizimga sekin-asta bo'shatib beradi.

Transformatsiya jarayonlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tizimlar transformatsiyasining tarixan turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular jarayonlarning miqyosi va tavsifiga ko'ra farqlanadi. Umum-bashariy (global) transformatsiya jarayonlari butun insoniyat tarixi uchun xosdir. Masalan, eramizdan avvalgi birinchi ming yillikka qadar insoniyat yagona sivilizatsiyadan ikki, ya'ni g'arb va sharq sivilizatsiyalariga o'tgan edi. Hozirda esa kelajakda yangidan yagona jahon sivilizatsiyasining paydo bo'lishiga olib keluvchi tendensiyalar amal qilmoqda. An'anaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga, undan esa kelajakdagи iqtisodiyotga o'tish jarayonlari ham shunday tavsif kasb etadi.

Trasnformatsiya jarayonlari o'z tavsifiga ko'ra ikki turga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Transformatsiya jarayonlarining tavsifiga ko'ra turlari.

Birinchi turdag'i iqtisodiyotga iqtisodiy tizimlarning amal qilishi va rivojlanishini belgilab beruvchi omillar ta'siri ostida ro'y beruvchi jarayonlar xos bo'ladi. Bu omillar uch guruhga bo'linadi:

- 1) tabiiy-iqlimiy;
- 2) ishlab chiqarish-iqtisodiy;
- 3) ijtimoiy-madaniy.

Birinchi tur tarixiy evolutsiyaning tabiiy tarzda borishini ifodalaydi va shartli ravishda transformatsiya jarayonlarining tabiiy-evolutsion turi deb ataladi.

Ikkinci tur transformatsiya jarayonlarining islohotlarga asoslangan-evolutsion turi deb ataladi. Buning mohiyati ongli ravishda ishlab chiqilgan jamiyatni isloh qilish dasturlari asosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish orqali namoyon bo'ladi. Ma'lum darajada ongli ravishda amalga oshirilgan islohotlar tabiiy evolutsiyaning jadallashuvi uchun yo'l ochib berishi mumkinligi sababli, iqtisodiy tizimlar transformatsiyasida mazkur ikki turning o'zaro birikib ketishi ham ro'y berishi mumkin.

Har qanday turdag'i transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayoni muqarrar tarzda amalga oshiriladi. «Sof» tizimdagi takror ishlab chiqarishga nisbatan, uning umumiyl xususiyatlari transformatsiya davri iqtisodiyoti amal qilishining maxsus qonuniyatlar deb ataladi. Ular qatoriga quyidagilar kiritiladi: takror ishlab

chiqarishning inersiyaliligi hamda yangi shakl va munosabatlarning intensiv ravishdagi ustun rivojlanishi.

Takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi takror ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligi bilan bog'liq. Bu uzlusizlik dastlab barcha eski jihatlarni butunlay yo'q qilib, so'ngra uning negizida barcha yangiliklarni barpo etish tamoyili bo'yicha rivojlanishni inkor etadi. Bu uzlusizlik, shuningdek, mavjud shakllarni boshqalari bilan keskin almashtirish («karaxt qilib davolash») mumkin emasligini ham belgilab beradi. Bu kabi xatti-harakatlar muqarrar ravishda ishlab chiqarishdagi boshboshoqlikka, uning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi, shu ma'noga ko'ra, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida eski iqtisodiy shakllarni nisbatan uzoq muddat davomida saqlanib qolishini taqozo etadi. Bu, eng avvalo, qandaydir vaqt ichida ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasining saqlanib qolishida namoyon bo'ladi, chunki bu jarayon nisbatan uzoq muddatni taqozo etadi. Jamiyatning tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, mavjud institutlar, tarmoqlararo, ichki tarmoq aloqalari, xo'jalik mexanizmi va boshqalarning xatti-harakati tezlik bilan o'zgara olmaydi.

Transformatsiyalashuv jarayonlariga kadrlarning holati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda ham inersiyalilik o'ziga xos o'rin tutib, kadrlar tayyorlashdagi tub o'zgarishlarni tezlik bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Takror ishlab chiqarish jarayonining inersiyaliligi bir qator oqibatlarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, u transformatsiya davri iqtisodiyotini uning dastlabki holati bilan chuqur izchillikda bo'lishini shartlaydi. Ikkinchidan, inersiyalilik ilgari tarkib topgan ijtimoiy mentalitetning saqlanib qolishini kuchaytiradi.

Boshqa bir qonuniyat – yangi shakl va munosabatlarning intensiv ravishdagi ustun rivojlanishidir. Agar birinchi qonuniyat avvalo o'tish davri iqtisodiyotining izchilligini aks ettirsa, mazkur qonuniyat bir bosqichdan boshqa biriga o'tish mexanizmini ta'kidlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan qonuniyat xatti-harakatini hisobga olish yangi munosabatlar rivojlanishi «mexanizmi»ni to'g'ri tushunishni ham taqozo etadi. Birinchidan, bu ilgari hukmron bo'lgan tizimlar shart-sharoitiga xos bo'lmagan, o'z mazmuniga ko'ra yangi shakllarning paydo bo'lishidir. Ikkinchidan, yangi munosabatlarning paydo bo'lishi eski shakllar mazmunining o'zgarishi yo'li orqali amalgga oshishi mumkin. Masalan, hozirgi sharoitda davlat mulki yoki mulkchilikning jamoa shakli saqlanib qolgani holda, ilgaridan mavjud bo'lib kelgan ma'muriy-byurokratik tafsifini bartaraf etib, o'zining real mazmunini o'zgartirishi

mumkin. Uchinchidan, pirovardida yangi shakllar o'zining hukmronligini o'rnatib, o'z umrini o'tab bo'lgan eski shakllarni siqib chiqarishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- birinchidan, u islohotlarga asoslangan-evolutsion turdag'i o'tish iqtisodiyoti bo'lib, uning amal qilishida ilmiy jihatdan asoslangan va maqsadga yo'naltirilgan dasturlar muhim rol o'ynaydi;

- ikkinchidan, mazkur maqsadga yo'naltirilganlik muntazam ravishda rivojlanib hamda hayotga tatbiq etilib boradi.

Hozirgi zamон transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- bozor iqtisodiyotiga an'anaviy iqtisodiyotdan emas, balki alohida, o'ziga xos – markazlashgan rejali iqtisodiyotdan o'tilishi. Bu o'rinda bugungi kungacha ma'lum bo'lmagan muammolarni hal qilish taqozo etiladi. Bularning barchasi transformatsiya jarayonlarining mushkulliklarini keltirib chiqaradi;

- islohotlarga asoslangan-evolutsion rivojlanish yo'llarini tartibga solish iqtisodiyotni buyruqbozlik-byurokratik usullarining salbiy ta'siridan tozalash bilan bog'liq bo'lib, bu samarali rivojlanishning umumiyligi o'zaniga qaytish imkonini beradi;

- transformatsiyalashuv jarayoni XX asr oxirida, ya'ni o'ziga xos tarixiy sharoit – umumbashariy o'tish jarayonlarining kengayib borishi sharoitida ro'y bermoqda. Rivojlangan industrial mamlakatlar postindustrial jamiyatga o'tish ostonasida turibdi. An'anaviy iqtisodiyot unsurlari sezilarli rivojlangan mamlakatlar hozirgi vaqtga bozor iqtisodiyotining zamонави shakllariga tezlik bilan o'tmoqdalar. Shu bilan bir vaqtدا, ishlab chiqarish va ayrboshlashni umumlashtirish, baynalmillashtirishning intensiv ravishda ro'y berayotgan jarayoni ularga postindustrial bosqichning bir qator yutuqlariga erishish imkonini beradi.

Jahondagi global transformatсиyalашув jarayonlari O'zbekistonning o'tish davri iqtisodiyotiga, undagi jarayonlarning mazmuni va ularning pirovard yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas. Shu ma'noda O'zbekistondagi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti ham noyob lokal (mahalliy) va umuminsoniy global tendensiyalarning birikmasini namoyish etadi.

Jamiyatning evolutsion jarayoni pog'onama-pog'ona tavsif kasb etadi. Har bir alohida pog'ona o'zining taraqqiyotida uchta asosiy bosqichdan o'tadi:

- qaror topish va yuqorilab rivojlanish;
- yetuklik holati.

Bu jarayon umuminsoniy taraqqiyotning uzluksizligi bilan belgilanadi. Mazkur uzluksizlik mehnat vositalari, texnologiyalar, ishlab chiqarish tashkiliy shakllari va niroyat, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatidagi insонning muntazam ravishda takomillashib borishini o'z ichiga oladi. U har bir tarixiy pog'ona qaror topishining doimiyligini taqozo etadi. Uzlusizlik va doimiylik jamiyatda iqtisodiyot har bir yangi bosqich vujudga kelayotgan davrda ham, uning inqirozi davrida ham o'z faoliyatini to'xtatmayotganini anglatadi.

Har bir tarixiy pog'ona ikki bosqichdan o'tadi. Qaror topish va yuqorilab boruvchi rivojlanish uning o'ziga xos holatini namoyon etadi: unga xos bo'lgan belgilarning to'liq emasligi, yaxlitilikning mavjud emasligi, ham eski, ham yangi iqtisodiyot unsurlarining bir vaqtida amal qilishi va h.k.

Har qanday pog'onaning qaror topish bosqichi bir vaqtning o'zida oldingi pog'onaning pasayib boruvchi harakat bosqichi bo'lib ham hisoblanadi. Pasayib boruvchi harakat esa doimiy ravishda yangi pog'onaning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Shuning uchun transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti jamiyatning bir tarixiy pog'onadan boshqa biriga o'tish davrida amal qilganida o'z tabiatiga ko'ra iqtisodiyot evolutsiyasidagi o'ziga xos holat hisoblanadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti go'yo jamiyatning «oraliq» holatini, o'zgaruvchi iqtisodiyotni tavsiflaydi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotini «odatdagi» iqtisodiyot – u yoki bu pog'ona iqtisodiyotidan farqlovchi o'ziga xos tavsifi ham shundan kelib chiqadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti to'g'risida ijtimoiy evolutsiyaning har qanday turkumlanishida ham to'xtalib o'tish mumkin. Masalan, uni uchta pog'onaga – an'anaviy, bozor va aralash iqtisodiyotga ajratilganda; formatsion yondashuv mezonlari bo'yicha ishlab chiqarish usullariga ajratilganda; ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari bo'yicha ijtimoiy formatsiyalarga ajratilganda va h.k. Pog'onalarning har qanday ajratib ko'rsatilishida ular rivojining siklikligi (qaror topish, yuqorilovchi rivojlanish, yetuklik,

yangining paydo bo‘lib borishi bilan bog‘liq holdagi pasayib boruvchi rivojlanish) va maxsus o‘tish holatlarining tuzilishi saqlanib qoladi.

Shunga ko‘ra, jamiyat turli barqaror holatlarini amal qilishining o‘zi, unga xos bo‘lgan iqtisodiy munosabatlар uning sifat jihatidan o‘zgacha holatini taqozo etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti tavsifiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar uch guruhga bo‘lingan:

1. Tabiiy-iqlimi omillar. Ular jamiyatning tabiiy bazasi bilan bog‘liq.

2. Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar. Ular inson hayotiy faoliyatini ta’mintashning tabiiy bazasining davomi hisoblanadi. Bu omillar, shuningdek, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilish shakl va tavsifi – xususiy yoki ijtimoiy shakl, iqtisodiyot darajasi va h.k.ni ham ko‘rsatib beradi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar. Bu inson (jamiyat) ma’naviy-bunyodkorlik faoliyatining paydo bo‘lishini anglatadi. Ular ishchining ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyati bilan mustahkam bog‘liq bo‘lib, insonning ma’naviy rivojlanishi uning qadriyatlarni, mehnatga, mavjud ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini, ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi.

Global miqyosda ushbu omillar tegishli ijtimoiy mentalitetni shakllantiradi. Shuningdek, mafkura va din ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy omillar o‘z ichiga ma’lum an’analarni, u yoki bu xalqning madaniyatini oladi. Aynan ijtimoiy-madaniy omillar jahonda tarkib topgan ikki – sharq va g‘arb sivilizatsiyasining farqini ko‘p jihatdan belgilab beradi. G‘arb sivilizatsiyasi uchun tarixan insonning shaxsiy ozodligi, munosabatlarning gorizontal tipi, demokratiya xos bo‘lsa, sharq sivilizatsiyasi uchun shaxs faoliyati ustidan qat’iy nazorat, munosabatlarning vertikal tipi, mustabidlik xos bo‘lgan.

2-§. «Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyası» kursining predmeti, vazifasi va bilish usullari

Ma’lumki, umumiyl iqtisodiyot nazariyası – bu ijtimoiy fan bo‘lib, cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste’mol qilish jarayonida kishilar va guruhlarning xulq-atvorini o‘rganadi.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi – umumiy iqtisodiyot nazariyasi doirasidagi xususiy nazariyadir. Yaxlit o'tish iqtisodiyotining u yoki bu tizim (pog'ona) iqtisodiyoti bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyatlari uni umumiqtisodiyot nazariyasi doirasidan tashqariga chiqarib yubormaydi. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi fanining predmeti bo'lib kishilar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari hisoblanadi. Biroq, o'z mazmuniga ko'ra, bu munosabatlar ko'proq jamiyatning transformatsiyalashuv holatiga xos bo'lgan maxsus jihatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasi dastlab 1615-yilda merkantilizm maktabi namoyandası, fransuz olimi Antuan Monkrettenning «Siyosiy iqtisod traktati» nomli asaridan kelib chiqqan holda siyosiy iqtisod atamasini olgan edi. Biroq, siyosiy iqtisod umumiy iqtisodiy nazariya sifatida bozor industrial tizimi davrining mahsuli hisoblanadi. Fiziokratlar ham, mumtoz maktab vakillari ham, rivojlanib borayotgan burjua jamiyatidagi tahlil qilingan hodisalarga tabiiy tartib sifatida qarashlari ham aynan shu bilan izohlanadi. Shular bilan birga D.Rikardo ham, A.Smit ham iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi haqida hech qanday fikr yuritishmagan.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari ba'zi bir olimlar tomonidan barchaga ma'lum bo'lgan tasodif sifatida tushunilib, undan oldinga qarab ham (Sen-Simon), orqaga qarab ham (Mirabo, Sismondi) yo'l yurish mumkin bo'ladi.

XIX asr oxirida «tabiiy tartib» konsepsiysi o'rniqa kapitalistik bozor tizimining tanqidı hamda uni boshqa tuzum bilan almashtirish mumkinligi to'g'risidagi nazariyalar paydo bo'lib, bunday g'oyalarning tarafdorlari sifatida Veblen (1857–1929), Y.Shumpeter (1883–1950) larni ko'rsatish mumkin.

XX asrda jahondagi transformatsiya jarayonlarining ikkinchi to'lqini rivojlanishi asosida yangi tendensiyalar yanada kuchaydi. Kapitalizmning yuqori bosqichi – imperializm vujudga keldi.

Fanning tadqiq etish usuli iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasining ham muayyan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishini taqozo etadi.

Birinchidan, har qanday iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlarining umumiy belgilari.

Ikkinchidan, belgilarning tizim ko'rinishidagi ifodasi, u orqali belgililar, shu jumladan, transformatsiya shakllari ichki o'zaro muvofiqligining ochib berilishi.

Uchinchidan, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining amal qilish qonuniyatları, ya’ni yangi va eskining o’zaro aloqasi tavsifi, bir tizimdan boshqa biriga o’tishning yakunlanish mexanizmi.

To’rtinchidan, xususiylik, umumiylik va alohidalik shakllarining tavsifi. Aynan shular orqali u yoki bu sharoitlardagi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti amaliyotining abstrakt nazariya bilan mustahkam aloqasi namoyon bo’ladi.

«Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi» kursining vazifasi bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

- transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining o’zgaruvchan jarayonlari to’g’risida yaxlit tasavvur hosil qilish;
- bozor iqtisodiyoti paydo bo’lishi va qaror topishining obyektiv qonuniyatları va tendensiyalarini kuzatish va o’rganish;
- olib borilayotgan islohotlar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mumkin bo’lgan variant va muqobil yo’llarini belgilash.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi iqtisodiyot nazariyasining alohida bo’limi hisoblanganligi sababli, u o’zining predmetini tadqiq etishda aynan iqtisodiyot nazariyasi fani doirasida qo’llaniluvchi usullardan foydalanadi. Biroq, iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi predmetidagi o’ziga xoslik mazkur usullarning ustuvorligiga ma’lum darajada ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Bilishning dialektik usuli qoidalari iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasining umumiy usuli bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushu fanning muammolarini tadqiq etishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, eksperiment, makro va mikroiqtisodiy tahlilni qo’shib olib borish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishning taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan keng foydalilanadi.

Shu o’rinda, iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi nuqtayi nazaridan iqtisodiy jarayonlarni o’rganish va tahlil qilishda ham professor Sh.Shodmonov tomonidan ilgari surilgan hamda ko’plab nazariy muammolarni hal etishda samarali foydalilanigan ikki tomonlama yondashuv usulini alohida ta’kidlash zarur.¹

O’zbekiston Respublikasining transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotini o’rganishda nazariy-metodologik asos bo’lib O’zbekiston

¹ Bu usulning nazariy va amaliy ahamiyati prof. Sh.Shodmonov va dots. G.Baibekova tomonidan tayyorlangan «Инновационные методы в преподавании экономической теории» kitobida batasfil bayon etilgan.

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari xizmat qiladi. Bu asarlarda mamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish sharoitida amal qiluvchi rivojlanish yo'nalishlari va qonuniyatlari, jamiyatning sifat jihatidan yangi holatiga o'tishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan.

3-§. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini belgilash konsepsiysi va mezonlari

Hozirgi dunyo jamiyat tabiiy tarixiy taraqqiyotining natijasi hisoblanadi. Turli iqtisodchi olimlar tomonidan tarixiy jarayonni tushunish farq qilib, bu holat mazkur jarayonni tavsiflash uchun turli mezonlardan foydalanish bilan izohlanadi.

Rivojlanish bosqichlari mezonlarini tanlash turli tarixiy sharoitlarda u yoki bu omilning ustun ta'siri bilan bog'liq.

1. Taraqqiyotning dastlabki pog'onalarida tabiiy-iqlimiyl omillar ahamiyatli rol o'ynagan.

Mehnat quroli mezonini insoniyat taraqqiyotini qadim davrlardan buyon tosh, bronza, temir asri kabi global turkumlanishini shartlab bergen. Jamiyat taraqqiyoti dastlabki davrini L.Morgan (1818–1881) tomonidan yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiyaga bo'lib turkumlanishi ham, eng avvalo mehnat qurolining mezon tariqasida foydalanilishi bilan bog'liq.

2. Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillarning ustuvorligi jamiyatni davrlarga ajratishning mehnat qurollariga nisbatan murakkabroq mezonlarini shakllantiradi.

Kishilik jamiyatni ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zaro birligi va ziddiyati asosida taraqqiy etib borib, uning turli bosqichlariga o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlar muvofiq keladi. Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rghanish iqtisodiy jarayonlarni, ularni o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir. Shunga ko'ra, ko'plab olimlar tomonidan kishilik jamiyatni taraqqiyotining bosqichlari turlicha yondashuvlar asosida alohida guruhlarga ajratib kelindi. Jumladan, Sh.Shodmonov va U.G'afurovlar tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida taraqqiyot bosqichlarini bilishdagi yondashuvlardan asosiyлари sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatilgan:

– tarixiy-formatsion yondashuv;

madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi jihatdan yondashuv; texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv; sotsial-iqtisodiy shakllar o'zgarishi jihatidan yondashuv.¹

Yangi burjua tuzumining qaror topishi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi undan oldin keluvchi feodal-krepostnoylik jamiyat bilan kurash orqali boradi. Iqtisodiy fanlarda jamiyat bunday holatlarining surqi nasaqat mehnat qurolining tavsifi bilan, balki ularni jamiyatda qo'llash shakli, ishlab chiqarish jarayonida kishilar munosabatlарining tavsisi bilan bog'liq bo'ladi.

Dastlabki pog'onalarни ajratish mezonlari sifatida ishlab chiqarish usuli maydonga tushadi. Bunday yondashuvda ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan.

Masalan, A.Smit (1723–1790) feodal va quzdorlik ishlab chiqarish usullari o'rtaida tafovutlarni tahlil qilib bergen edi. Bunday yondashuv David Yum (1711–1776) asarlarida yanada chuqurroq qo'llanilib, u so'nggi rivojlanish bosqichi sifatida kapitalistik jamiyatni ko'rsatib bergen.

Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlарining birligidan iborat. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoni va umumiyo ko'rsatkichidir. Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojinining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlарining u yoki bu turini taqozo qiladi.

Insoniyat jamiyat tarixida bir-biri bilan izchil almashinib turgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar ajralib turadi.

Ishlab chiqarish usullari almashinishing klassik namunasi Yevropada namoyish qilingan deb hisoblanadi. Yevropa hududida bir-biri bilan almashinib, ibtidoiy jamoa, quzdorlik, feodal va kapitalistik munosabatlар izchil tarkib topdi. Boshqa qit'alarga kelganda esa, bu yerda kapitalizmgacha bo'lgan davrda mana shu marralarning hammasi aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Yevropa mustam-lakachiligining ta'siri sezildi. Adabiyotlarda osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos bo'lgan ishlab

¹ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 86-87-b.

chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining sug'orish tizimlarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining uзвији birligi sisfatidagi ishlab chiqarish usullarining mezon tariqasidagi roli boshqa olimlar tomonidan insoniyat taraqqiyoti bosqichlarini turkumlashda qo'llanilgan. O'zlaridan avvalgi olimlardan farqli o'laroq, ular kapitalistik ishlab chiqarish usulining nisbatan rivojlangan, yetuk munosabatlarini tahlil qilganlar. Uning avvalgi ishlab chiqarish usullariga nisbatan progressiv tomonlarini ta'kidlab, uning tarixiy tavsifini ko'rsatishga harakat qilganlar.

G'arbiy Yevropa jamiyat taraqqiyotiga tatbiqan tarixiy jarayon ko'plab olimlar tomonidan beshta ishlab chiqarish usuli almashinuvi ko'rinishida tasvirlangan. Ishlab chiqarish usuli nafaqat tabiat ne'matlariga erishish va ularni o'zgartirishning ma'lum usuli, balki ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakli va unga muvofiq ravishda mehnatning ijtimoiy shakli bilan shartlangan qo'shimcha mahsulotni o'zlashtirishning o'ziga xos usuli hamdir.

Formatsion yondashuv jamiyat tarixiy taraqqiyotidagi qonuniy bosqichlarni ochish hamda ishlab chiqarishning beshta usulini ajratib berish imkonini berdi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishning beshta usulini klassik ajratilishi bir qator sabablarga ko'ra munozarali hisoblanadi. Bu usullar faqat G'arbiy Yevropaga xos bo'lib, umumiylahamiyat kasb etmaydi. Bu yondashuvga ishlab chiqarishning osiyocha usuli, Xitoy, Hindiston sivilizatsiyasi muvofiq kelmaydi. Shunga ko'ra jahon taraqqiyoti jarayonlarini moddiy ishlab chiqarish usuli formatsiyalari darajasida ko'rib chiqish jahondagi ro'y bergen barcha jarayonlarni qamray olmaydi. Shu sababli bunday yondashuvning ma'lum tarzda cheklanganligi shubhasizdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilish uchun boshqa mezonlardan foydalanishga urinishlar ham kuzatiladi.

Taniqli amerikalik olim Uolter Rostou tarixni beshta bosqichga ajratadi: 1) an'anaviy jamiyat (qoloq texnika, qishloq xo'jaligi, yirik yer egalarining hukmronligi); 2) o'tish jamiyat (markazlashtirilgan davlat, tadbirkorlik); 3) «siljishlar» (sanoat inqilobi va uning oqibatlari); 4) «yetuklik» bosqichi (FTR, urbanizatsiya); 5) «ommaviy iste'mol»

Бонг'лехт (xizmat ko'rsatish sohasi hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning belgilovchi roli).

Zamonaviy xorijiy iqtisodiy g'oyalar «jamiatning industrial jihatdan rivojlanish darajasi» mezonidan foydalanish asosida quyidagi **Бонг'лехларни ajratib ko'rsatadi:** industrial; postindustrial; noindustrial (**akhorotlashgan**) jamiyat (J.Gelbreyt, R.Aron).

Iqtisodiy fanda ijtimoiy taraqqiyotni sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari natijasi sifatida o'rganish ham muhim o'rinn tutadi. «Sivilizatsiya» so'zi lotinchada fuqarolarga oid, ijtimoiy degan min'olarni anglatadi. Bu tushuncha fanga fransuz faylasuflari tomonidan nisbatan yaqin vaqt – ikki asr oldin kiritilgan bo'lib, tafakkur va erkinlik hukmron bo'lgan jamiyatlarni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Bugungi kunda mazkur tushuncha quyidagi o'rinnlarda qo'llaniladi:

- jamiyat madaniyati darajasini baholash;
- yovvoyilik davri o'rniga kelgan kishilik jamiyati rivojlanish bosqichini tavsiflash (L.Morgan, F.Engels);
- biqiq guruhlar, xalqlar va davlatlar taraqqiyotining madaniy-tarixiy sikli (N.V.Danilevskiy, A.Toynbi);
- madaniyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi, uning tugashi fazasi (O.Shpengler);
 - ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlari – inson salohiyati, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli, atrof-muhitning majmui.¹

Umuman olganda sivilizatsiya rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning oqilona tashkil etilgan tuzumi sifatida talqin etiladi.

Jamiyat taraqqiyotini sivilizatsiya nuqtayi nazarjidan o'rganishda sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi muhim o'rinn tutadi. Bu nazariya tarafdoqlari quyidagi 7 ta bosqichdan iborat sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadilar:

- 1) davomiylik muddati 30-35 asrni o'z ichiga olgan neolit davri;
- 2) davomiylik muddati 20-23 asrni o'z ichiga olgan sharqiy quldarlik davri (bronza asri);
- 3) davomiylik muddati 12-13 asrni o'z ichiga olgan antik davr (temir asri);
- 4) davomiylik muddati 7 asrni o'z ichiga olgan erta feodal davri;
- 5) davomiylik muddati 4,5 asrni o'z ichiga olgan industrlashishdan oldingi davr;

¹ Экономическая теория (политэкономика): Учебник/ Под общ. ред. акац. В.И.Видяинина, якд. Г.П.Журавлевой. – 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2004. С.51.

6) davomiylik muddati 2,5 asjni o‘z ichiga olgan industrial davri;

7) davomiylik muddati 1,3 asjni o‘z ichiga olgan yuqori industriflashish davri.¹

Bu qayd qilingan bosqichlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu nazariyada turli qarashlar va yondashuvlarni aralashtirish holatiga yo‘l qo‘yilib, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini ajratishning aniq bir mezoni yoki belgisi mavjud emas.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga texnologik yondashuv ham ma’lum bir oqim hisoblanadi. Ular jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ko‘lami va xarakterini yaxshiroq tushunib olish uchun ishlab chiqarishning turli texnologik usullarini tahlil etish, mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga murojaat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bиргаликда ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

Ular o‘rtasidagi chegaralarni jamiyat taraqqiyoti tarixining yirik bosqichlari ajratib turadi. Bir texnologik ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o‘tish asosan mehnat vositalarining xarakteridagi o‘zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish texnologik usullarining dastlabki uchta bosqichlari alohida farqlanadi. Bular oddiy kooperatsiya, manufaktura va mashinalashgan ishlab chiqarish. Oddiy kooperatsiya – bu bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushishi, bирgalashib ma’lum tartib asosida ishlaydigan kishilar guruhi. Kooperatsiyaning yakka tartibdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishiga nisbatan afzalliklari quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

– ko‘plab ishchilarning bирgalikdagi mehnati ishchi kuchidagi alohida tafovutlarning yo‘qolishiga, ularning sifat jihatidan bir xilligiga olib keldi;

– bino va inshootlardan bирgalikda foydalanish natijasida yoqilg‘i, yoritish va boshqa shu kabi xarajatlarning kam sarflanishi mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish vositalarining tejalishiga olib keldi;

birgalikdagi mehnat bellashuvni keltirib chiqarib, mehnat unumdorligini oshirdi.

¹ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акац. В.И.Видкунна, А.И.Добрынича, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005. С.55.

Mashinalashgan ishlab chiqarishga olib boruvchi yo'lda manufakturna, ya'ni mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmanan sharoitdagi kooperatsiya muhim rol o'yaydi. Manufakturna davrida ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi. Yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda oddiy kooperatsiyadagidek qo'l mehnatiga va qo'l mehnatiga asoslangan qurolga tayanadi.

Manufakturna ixtisoslashtirilgan qurol va asboblarni vujudga keltirib hamda ishchini tor operatsiyalarni bajarishga bog'lab, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur shart-sharoit tayyorlaydi. Bu davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatning mazmuni va xarakterida, ishlab chiqarishning butun texnologik usulida, iqtisodiy munosabatlarda va butun ijtimoiy hayotda ham tub o'zgarishlar ro'y beradi. XVIII asming so'nggi 30 yili ichida boshlangan sanoat revolutsiyasi natijasida yirik mashinalashgan ishlab chiqarish vujudga keldi.

Kooperatsiyaning bu shakli xuddi manufakturna singari, mehnat taqsimotiga asoslanadi, lekin undan mashinali mehnatga asoslanishi bilan tubdan farq qiladi. Fabrika ichidagi mehnat taqsimoti tamomila mashinalarning vazifalari bilan belgilanadi.

Mashinalar tizimiga asoslangan fabrika bugun ham ko'p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy bo'g'ini rolini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga fan va texnikadagi inqilobiy o'zgarishlar, EHMning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yagona axborot tizimlarining yaratilishi, ishlab chiqarish umumlashuvining yanada o'sishi uning texnikaviy bazisini jiddiy ravishda o'zgartirib yubordi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy rolni o'yaydi va tashkiliy, boshqaruv tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdotligining o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondashuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tizimlar va ularning xarakterini bilishda ham texnik ham ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning birgalikda olib, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini va shu dialektik aloqadorlik va ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini o'rGANISH zarurdir.

Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan texnika va texnologiyaning rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kuchli ta'sirini shunda ko'rish mumkinki, bir necha ming yillab rivojlanmay yotgan texnika va

texnologiya taraqqiyoti tovar xo'jaligi va bozorning vujudga kelishi bilan gurkirab o'sib ketdi.

Texnika taraqqiyotining hamma bosqichlari, ya'ni oddiy kooperatsiya, manufakturna, mashinalashgan, ya'ni industrlashgan ishlab chiqarish, yuqori darajadagi industrlashgan, axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250-300 yilga, ya'ni tovar xo'jaligi rivoj topgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rghanadilar.¹

Xo'jalik yuritish erkinligi darajasini e'tiborga olgan holda jahon iqtisodiy adabiyotlarida xo'jalik tizimlarini ikkita belgiga ko'ra turkumlash kengroq tarqalgan:

- ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakli;
- iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqarish usuliga ko'ra.

Mazkur belgilari asosida quyidagi tizimlar farqlanadi:

1. Buyruqbozlik yoki totalitar iqtisodiyot. Bunday iqtisodiyotda aksariyat korxonalar davlat mulkida bo'ladi. Ular o'z faoliyatini davlat direktivalari asosida amalga oshirib, jamiyatdagi moddiy ne'matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish bo'yicha barcha qarorlar davlat tomonidan qabul qilinadi.

2. Bozor iqtisodiyoti. Bu iqtisodiyot resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish va uni boshqarish uchun bozor va narx tizimidan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Erkin bozor iqtisodiyotida davlat resurslarni taqsimlashda hech qanday rol o'ynamaydi. Bu boradagi barcha qarorlar bozor subyektlari tomonidan o'z tavakkalchiligi asosida mustaqil qabul qilinadi.

3. Aralash iqtisodiyot. Mazkur iqtisodiyotda davlat ham, xususiy sektor ham mamlakatdagi barcha resurslar va moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'molda muhim rol o'ynaydi. Davlat zarur hollarda iqtisodiyotga aralashib, uni tartibga solib turadi.

Kishilik jamiyat taraqqiyotida transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti alohida o'rinn tutadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti – ham bir xo'jalik doirasida, ham bir xo'jalik turidan boshqa bir turiga o'tish, o'zgarishlar holatida bo'lgan iqtisodiyot. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotini jamiyat taraqqiyotidagi o'tish davridan farqlash lozim. Jamiyat taraqqiyotidagi o'tish davri natijasida bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarning boshqalari bilan almashuvi, jamiyatning yangi sifat bosqichiga o'tishi ro'y beradi.

¹ Shodmonov Sh.Sh., Gafurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. 89-93-b.

Qisqacha xulosalar

1. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasining o‘ziga xos belgisi bo‘lib uning beqarorligi hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda eski va yangi holtharning unsurlari aralash holda amal qiladi. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari mavjud tizimdagি beqarorlikni yanada kuchaytirishiga qaratilgan bo‘lib, pirovardida mazkur tizim o‘zining u‘rnini yangi iqtisodiy tizimga sekin-asta bo‘shatib beradi.

2. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi shuning predmeti bo‘lib kishilar o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari hisoblanadi. Biroq, o‘z mazmuniga ko‘ra, bu munosabatlар ko‘proq jamiyatning o‘tish holatiga xos bo‘lgan maxsus jihatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Transformatsiyalashuv jarayonlarining tavsifiga ko‘ra transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining ikki turi farqlanadi. Bularning birinchisi tarixiy evolutsianing tabiiy tarzda borishini ifodalaydigan va shartli ravishda tabiiy-evolutsion deb nomlanadigan tur deb ataladi. Ikkinchisi, islohotlarga asoslangan-evolutsion tur deb ataladi.

4. Har qanday turdagи transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish jarayoni muqarrar tarzda amalga oshiriladi. «Sof» tizimdagи takror ishlab chiqarishiga nisbatan uning umumiy xususiyatlari transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti amal qilishining maxsus qonuniyatları deb atalib, ular qatoriga quyidagilar kiritiladi: takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi hamda yangi shakl va munosabatlarning intensiv ravishdagi ustun rivojlanishi.

5. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti quyidagilar bilan tavsiflanadi: u islohotlarga asoslangan-evolutsion turdagи o‘tish iqtisodiyoti bo‘lib, uning amal qilishida ilmiy jihatdan asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan dasturlar muhim rol o‘ynaydi; mazkur maqsadga yo‘naltirilganlik muntazam ravishda rivojlanib hamda hayotga tatbiq etilib boradi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Tabiiy-iqlimi omillar – jamiyatning tabiiy bazisi bilan bog‘liq bo‘lgan va iqtisodiy tizimning amal qilishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar – jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini ifoda etuvchi va iqtisodiy tizimning amal qilishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – kishilarning ma’naviy-ruhiy holati bilan bog’liq bo’lgan va iqtisodiy tizinning amal qilishi va rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari mezonlari – jamiyatning rivojlanish darajasini baholashda qo’llaniluvchi turli ko’rsatkich va o’lchamlar.

An’anaviy iqtisodiyot – jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichiga to’g’ri keluvchi, turli an’analar va urf-odatlar asosida yuritiluvchi iqtisodiy tizim.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tabiiy-evolutsion turi – tashqaridan hech qanday aralashuv va tartibga solishlarsiz, o’z ichki rivojlanish qonuniyatlarasi asosida amal qiluvchi iqtisodiyot.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining islohotlarga asoslangan-evolutsion turi – maqsadga yo’naltirilgan dasturlar ta’siri asosida amal qiluvchi iqtisodiyot.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining o’ziga xos belgisi qanday?
2. O’z tavsifiga ko’ra transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining qanday turlari farqlanadi?
3. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti amal qilishining maxsus qonuniyatlarini nimalardan iborat?
4. Takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi hamda yangi shaki va munosabatlarning intensiv ravishdagiga ustun rivojlanishi qonuniyatlarining mazmunini tushuntirib bering.
5. O’zbekiston Respublikasining transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti qanday belgilari bilan tavsiflanadi?
6. Hozirgi zamон transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining xususiyatlari qanday?
7. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti tavsifiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar qanday guruhlarga bo’linadi?
8. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi fanining predmeti nima?

II bob. IQTISODIY TRANSFORMATSIYANING ASOSIY BELGILARI VA TURLARI

Oldingi bobdan ma'lum bo'ldiki, deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarning bir sifat bosqichidan boshqasiga o'tishi ma'lum darajada o'tish holatini hamda mazkur holatning namoyon bo'lishi vaqtini ifodalovchi o'tish davrini taqozo etadi. Transformatsiyalashuv davrining iqtisodiy mohiyatini to'laroq tushunish uchun uning o'ziga xos belgilarini ko'rib chiqish zarur. Shuningdek, transformatsiyalashuv davridagi taraqqiyot o'zgarishlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizim amal qilishidagi o'zgarishlardan tafovutini ochib berilishi mazkur davr to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitadi.

Ushbu bob davomida transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining jarayonlarning miqyosi va tavsifi jihatidan turlari, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining amal qilish qonuniyatları, jamiyatning bir bosqichidan boshqasiga o'tishi mexanizmi kabi masalalar ham ko'rib chiqiladiki, buning natijasida olingan bilimlar mazkur davr iqtisodiyoti to'g'risidagi nazariy bilimlarni izchil va yaxlit darajaga keltiradi.

1-§. Transformatsiyalashuv jarayonlarining mazmuni va asosiy belgilari

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mazmunini nafaqat iqtisodiy siyosat va xo'jalik yuritish usullarini isloh qilish, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishni ham tashkil etadi. Bu davrda iqtisodiyotning mulkchilik munosabatlari va resurslarni taqsimlash usullari, takror ishlab chiqarish turi va motivatsiyalash modellari, iqtisodiy rivojlanish maqsad va vositaari, institutlar va huquq kabi deyarli barcha tarkibiy qismlari o'zgaradi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining asosiy belgilari, boshqa barqaror bosqichdagi u yoki bu iqtisodiyotning holatidan farqli o'laroq, mazkur davrdagi o'zgarishlarning tavsifi bilan shartlanadi. Sen-Simonning ta'kidlashicha, bunday o'zgarishlar har bir barqaror tizim yoki tarkibiy davr (bosqich) uchun amal qiladigan o'zgarishlar hisoblansa, transformatsiyalashuv davri uchun esa bu ustun ravishda

rivojlanish o'zgarishlari demakdir. Mazkur belgilarga quyidagi larni kiritish mumkin:

1. Birinchi belgisi – o'ziga xos beqarorlikning mavjudligi. Ma'lumki, har qanday tizimning amal qilish jarayonida doimiy ravishda turli o'zgarishlar yuz berib turadi. Biroq bu o'zgarishlar mazkur iqtisodiyotga xos bo'lgan maqsadli faoliyatni amalga oshirishning erkin vositasi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu mexanizmning yaqqol misoli bo'lib kapitalistik bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanish manzarasi xizmat qilishi mumkin. Iqtisodiyot nazariyasi o'zining dastlabki qadamlaridayoq bu holatni, ya'ni tizimning barqarorligini o'zgarishlar predmeti tarkibiga kiritadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun boshqa tartibdagi o'zgarishlar xos bo'lib, bu o'zgarishlar tizimdag'i boshqa o'zgarishlar orqali muvozanatlari barqaror holatga qaytish uchun tizimning barqarorligini vaqtincha buzishga o'xshamaydi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'zgarishlar qayta tiklanmaydigan xususiyatga ega. Ular mavjud tizimdag'i beqarorlikni kuchaytirish orqali pirovardida uning yangi iqtisodiy tizimga o'tishiga yo'naltirilgan.

2. Ikkinchi belgisi – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti rivojlanishining muqobililik xususiyatga egaligidir. Muqobililik shuni anglatadiki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining rivojlanish yakunlari turli variantlarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining o'zgarishlari ichiga eski va yangi holatlarni unsurlarini aralash holatda qamrab oluvchi tabiatidan, shuningdek, bu davrdagi rivojlanish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarning turli-tumanligidan kelib chiqadi.

3. Uchinchi belgisi – maxsus oraliq iqtisodiy shakllarning paydo bo'lishi va amal qilishi. Bunda bu davrdagi eski va yangi jihatlarning aralashuvi namoyon bo'ladi. Mazkur omillar, shuningdek, bu davrning oldinga yo'naltirilganligini ko'rsatadi hamda uning ortga qaytmasligini ifodalaydi.

4. To'rtinchi belgisi – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotdag'i ziddiyatlarning maxsus tavsifi. Bu ziddiyatlar tizimning amal qilish holatiga emas, balki rivojlanish holatiga xosdir. Ya'ni bu ziddiyatlar yangilik bilan eskilik o'rtasidagi jamiyatning turli subyektlari, tabaqalari o'rtasidagi ziddiyat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Transformatsiyalashuv davri yo'naltirilgan o'zgarishlar iqtisodiy jihatdan doimo inqilobiy xususiyatga ega. Bu yerda gap iqtisodiy tizimlarning almashuvi to'g'risida boradi. Biroq, ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazaridan


transformatsiyalashuv davri shunday keskin to'qnashuvlar bilan horadiki, natijada ziddiyatlar inqilobiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Davrning o'tkinchi ekanligi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi orqali muqarrar bo'lib, bu holat iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ifodalanadi. Masalan, fiziokrat Mirabo uchun o'zgarishlar davridagi ziddiyatlardan chiqishning ijobi yilo uning uchun ideal hisoblangan o'tmishdagi feodal tartiblarga qaytishdan iborat bo'lgan. S.Sismondi vujudga kelayotgan kapitalizmning illatlarini tanqid qilgan holda mayda tovar ishlab chiqarishga chaqirgan.

5. Beshinchi belgisi – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tarixiyligi. Bu tarixiylik ikki holat bilan bog'liq: birinchidan, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti shart-sharoitlarining tarixiy tavsifi; ikkinchidan, mazkur tarixiylikning alohida mamlakat mintaqasi xususiyatlariga bog'liqligi. Masalan, transformatsiya jarayonlari sharq va g'arb sivilizatsiyasi sharoitlarida bir holda kechmay, har bir mamlakat taraqqiyotining muayyan darajasiga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi esa transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun ma'lum bo'lgan umumiyligini qonuniyatlarning turli sharoitlarda namoyon bo'lishida muayyan shakllarga egaligini anglatadi. Hattoki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining maxsus tahlili ham har qanday holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan aniq modellarni keltirib chiqara olmaydi.

2-§. Iqtisodiy transformatsiyalashuv jarayonlarining miqyosi va tavsifi jihatidan turlari

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mohiyatini tushunish uning turli belgilari ko'ra turlarini ajratib olishni taqozo etadi. Hozirda mavjud bo'lgan o'quv adabiyotlarda transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining jarayonlar miqyosi va tavsifi jihatidan turli tiplarga ajratilishi keng tarqalgan (2-rasm).

Mahalliy transformatsiyalashuv iqtisodiyoti miqyosi bo'yicha qandaydir bir mintaqaga yoki alohida mamlakatdagi yangi holatga o'tishni tavsiflaydi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining miqyosi bo'yicha ikkinchi turi global transformatsiyalashuv davridir. U o'zgarishlarning butun jahon xo'jaligi miqyosida yoki sivilizatsiyalar doirasida yagona jarayon sifatidagi tavsifini namoyon etadi. Global transformatsiyalashuv jarayonlarning rivojlanishiga mahalliy darajadagi o'zgarishlar muayyan ta'sir ko'rsatib, buning natijasida ma'lum global tendensiyalar qaror topadi.



2-rasm. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining jarayonlari miqosi va tavsifi jihatidan turlari.

Global jarayonlar mustaqil omillarning ta'siri ostida ham rivojlanadi. Jumladan, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ishlab chiqarishning baynalminallashuviga olib keladi. Global transformatsiyalashuv jarayonlari insoniyatning butun tarixi uchun xosdir. Masalan, insoniyat eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda yagona sivilizasiyadan ikkita sharq va g'arb sivilizatsiyasiga ajraldi. Hozirgi vaqtida esa yana kelajakda yagona jahon sivilizatsiyasining vujudga kelish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bizda tanlangan mezon doirasida bozor iqtisodiyotiga o'tish, undan esa istiqboldagi iqtisodiyotga o'tish ham shunday tavsifga ega. Mazkur istiqboldagi tendensiyasi bugun turli mamlakatlarda mahalliy o'zgarishlarda turli darajada namoyon bo'lmoqda. Biroq shuni ta'kidlash muhimki, bu tendensiyalar hozirgi vaqtida ma'lum darajada mahalliy darajaga qadar belgilovchi rol o'ynamoqda, chunki ular mazkur darajalardagi global istiqbollarni tavsiflaydilar. Buning oqibatida iqtisodiyot tendensiyasini nisbatan, to'la hisobga olish u yoki bu mamlakatdagi o'tish jarayonlarini tezlashtirmoqda.

Oldingi bobdan ma'lumki, transformatsiyalashuv jarayonlari tavsifiga ko'ra transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining ikki turi farqlanadi. Birinchisi yuqorida ko'rib chiqilgan omillar ta'siri ostida rivojlanuvchi jarayonlarni tavsiflaydi. U tarixiy evolutsianing tabiiy

Inqilob borishini ifoda etib, shartli ravishda tabiiy evolutsion tur deb shalishi mumkin. Bunday turga misol qilib Fransiyaning 1789-yildagi Inqilob davridagi transformatsiyalashuv jarayonlarini keltirish mumkin.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tabiiy evolutsion turi ayniqsa, global transformatsiyalashuv jarayonlari uchun xos bo'lib, biroq yuqorida ta'kidlanganidek, mahalliy (lokal) o'tish iqtisodiyotlari ham evolutsiyaning obyektiv jarayonlari davomida yetarli darajadagi natalijalarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun evolutsiyaning bu turi asosiy hisoblanadi. Tarixiy evolutsiyaning borishi davomida ijtimoiy taraqqiyot doirasida bosqichdan-bosqichga o'tish asosida aynan tabiiy evolutsion turi yotadi. U o'tish davri iqtisodiyoti ikkinchi turining negizini tashkil etganligi uchun ham asosiy hisoblanadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotini boshqa turining mohiyati uning jarayonlarini jamiyatni isloh qilish bo'yicha ongli ravishda ishlab chiqarish dasturlari asosida ma'lum yo'naliishlarda tartibga solish va boshqarishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu turni shartli ravishda islohotga asoslangan evolutsion tur deb ataladi. Bunga ijtimoiy yo'naltirilgan ochiq tashqi siyosat hamda barqaror bozor iqtisodiyotiga ega fuqarolik jamiyatining huquqiy davlatini qurishning o'zbek modelini misol tariqasida keltirish mumkin. Albatta, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining bu turida ham taraqqiyotning obyektiv omillari xattiharakatini chetlab evolutsiyaning jarayonlari qonunlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq transformatsiyalashuv jarayonlariga tegishili ta'sir ko'rsatish orqali evolutsiyani jadallashtirish mumkin. Bunday ta'sir ko'rsatishlar ham islohotlarning u yoki bu dasturlari orqali amalga oshiriladi. Transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishning muvaffaqiyati agar islohotlar o'zboshimchalik bilan emas, balki evolutsiyaning qonuniyatlarini anglagan, harakatlar tizimini kerakli yo'naliishlar asosida tarkib toptirgan holda ta'minlanadi. Tabiiyki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mazkur turi ijtimoiy taraqqiyotning nisbatan yuqori bosqichlarida paydo bo'lib, bu bosqichda ijtimoiy-madaniy omil kuchli ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu ijtimoiy omillar harakati bilan u yoki bu dasturlarning tuzilishi bog'liq bo'ladi. Shuningdek, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mazkur turi bugungi kunda u yoki bu mamlakatdagi mahalliy (lokal) jarayonlar uchun xosdir.

3-§. Iqtisodiy transformatsiyaning amal qilish qonuniyatları

Y. Shumpeter transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini tavsiflab, eski va yangi munosabatlarning «faol simbiozi», ya’ni ularning o’zaro foyda va zarar keltirgan holda birga mavjud bo’lishi, deya baholagan edi. Bu esa, muayyan davrda jamiyat harakatida shunchaki mavjud bo’lish emas, baxki rivojlanishning belgilovchi ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shunga ko’ra, transformatsiyalashuv davri – normal amal qiluvchi iqtisodiy tizimning barqaror holatidan farqlaravchi dinamik, o’zgaruvchan holatdan iborat. Transformatsiyalashuv davrining aynan dinamik holati uning umumiy qonuniyatlarini belgilab beradi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining amal qilish qonuniyatları sisfatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

Birinchi qonuniyat – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotidagi eski, yangi va o’tish (oraliq) shakl va munosabatlarining o’zaro uyg‘unligi va o’zaro ta’siri.

Ikkinchi qonuniyat – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotiga xos bo’lgan maxsus ziddiyatlarning mavjud bo’lishi va amal qilishi.

Uchinchi qonuniyat – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun makrodarajadagi muvozanatsizlikning xosligi.

To’rtinchi qonuniyat – transformatsiyalashuv holati uchun rivojlanishning muqobil tavsifining mosligi.

Va niyoyat, beshinchi qonuniyat – transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy, subyektiv omillar rolining o’sib borishi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti qonuniyatlarining paydo bo’lishini, eng avvalo, O’zbekiston misolida ko’rish mumkin. O’zbekistonning transformatsiyalashuv holati o’ziga xos tarzda kechgan.

XX asrning 90-yillari boshida O’zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mutlaqo yangi mazmun va mohiyatga ega tarixiy vaziyat yuzaga keldi.

Bu, avvalo, Yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida xalq-mizning mustaqillikka erishgani bilan bog’liqdir. Istiqlolimiz sharofati bilan iqtisodiyotimizga bozor munosabatlarini joriy etish, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro masalalarni o’z milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda mustaqil hal etish imkoniyati yaratildi.

Boshqacha aytganda, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o’tish jarayoni qadimiy milliy davlatchiligidimizni qayta tiklash va milliy iqtisodiyotimizni shakllantirish bilan uyg‘unlikda olib borildi.

Osha paytda, xalqimiz va Vatanimiz uchun bozor munosabatlari yuungi tushunchalar emas edi.

Osiyo va Yevropaning savdo yo'li – Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan o'zbek zamini asrlar osha Sharq va G'arb o'rtaida o'ziga xos ko'prik bo'lib keldi. O'zbekiston o'zining ana shu tarixiy va an'unaviy o'rmini egallashi uchun yurtimizda zamonaviy bozor munosabatlarini va aholi o'rtaida esa bozor madaniyatini shakllantirish lozim edi. Bu esa oson ish emasdi. Zero, kommunistik mafkura hukmronlik qilgan sovet zamonida – yetmish yil mobaynida xalqimiz huqiqiy bozor qadriyatlaridan butunlay uzoqlashtirilgan, odamlardagi bozor munosabatlariga xos tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va tadbirkorlik so'ndirilib, boqimandalik kayfyati yuzaga keltirilgan edi.

To'g'ri, sotsializm sharoitida ham «xufyona iqtisodiyot», kooperativ faoliyat, kolxozi bozori singari bir qarashda bozorni eslatadigan yarim ochiq, yashirin ko'rinishdagi unsurlar ham mavjud bo'lган. Ammo, sotsializm mazmun-mohiyatiga ko'ra bozor iqtisodiyotiga butunlay zid, davlat mulkini eng ustuvor o'ringa qo'yar va xususiy mulkchilikning har qanday ko'rinishini inkor etardi.

Shu bois mulk obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va monopolashuvdan qaytish mexanizmlari orqali raqobat muhitini yaratish, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, talab va taklif asosida shakllanadigan narx mexanizmini joriy etish kabi bozor ustunlarini qaror tortirish, pirovardida aralash iqtisodiyotga erishish lozim edi. Chunki, shusiz ham chuqur inqiroz girdobiga tushib qolgan iqtisodiyotimizni sog'lam-lashtirishning bozordan boshqa yo'li yo'sq, oldinda ulkan islohotlarni amalga oshirish vazifasi turardi.

Sobiq, SSSRda ham bir qancha iqtisodiy islohotlar o'tkazilganini ta'kidlash lozim. 1953, 1965, 1979-yillarda o'tkazilgan xo'jalik yuritish mexanizmlarini takomillashtirish, moddiy manfaatdorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar shular jumlasidandir. Lekin, iqtisodiy rivojlanishda burilish yasash maqsadida amalga oshirilgan bunday urinishlarning birortasi ham kutilgan samarani bermadi. Berishi ham mumkin emasdi. Chunki, islohotlarni amalga oshirishda shaxsiy manfaat va mehnat natijalari o'rtaida bevosita uzviylik hisobga olinmagan edi.

Bu masala esa, jamiyat poydevori hisoblanadigan mulk munosabatlarini qayta qurish bilan bog'liq. Mulk munosabatlarini o'zgartirish esa bevosita sotsializmning taqdiri bilan bog'liq edi.

Mo'rt poydevor ustiga qurilgan binoni ta'mirlash bilan uning ko'r kamligini oshirish mumkin. Ammo uning mustahkamligi-yu samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Sho'ro davridan katta shov-shuv va dahmaza bilan boshlangan, biroq nihoyasiga yetmay, o'rta yo'lda qolib ketgan iqtisodiy islohotlar ham xo'jalik yuritishning ayrim bo'g'inlarini takomillashtirishdan nariga o'ta olmadi, butun iqtisodiyotni jonlantirishga ojizlik qildi. Natijada, yana odatdagidek ma'muriy-buyruqbozlik tartibotiga zo'r berildi. Bu usul ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi aloqani ekstensiv omillardan keng foydalanish orqali naridan-beri ta'mirlash imkonini berdi. Ammo tabiiy resurslarning ham chegarasi bor, imkoniyatlari cheklangan. Ulardan kelajak avlod manfaatlarini hisobga olmasdan, pala-partish foydalanish talay muammoalarni, jumladan, ekologik keskinlikni keltirib chiqardi.

Ekstensiv omillarning borgan sari imkoniyatlari torayib ketaverishi, intensiv xo'jalik yuritish mexanizmining mavjud emasligi ertami-kech iqtisodiy tanqislikni keltirib chiqarishi muqarrar edi. Shunday bo'ldi ham! Iqtisodiy tanglik XX asr 80-yillarining oxiriga kelib, yanada keskin va halokatl tu's oldi. Bu, avvalo, mahsulot ishlab chiqarishning butunlay pasayib ketishida, ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'mirlanmaganida, ishsizlik darajasining o'sishida, pul-kredit va valuta tizimining izdan chiqishida namoyon bo'ldi. Xususan, 1990-yilda sobiq ittifoq yalpi milliy mahsuloti 1989-yildagiga nisbatan 2 foiz, ishlab chiqarilgan milliy daromad hajmi 4 foiz, mehnat unumдорлиги 3 foiz pasaydi. Tashqi savdo aylanmasi 6,6 foiz qisqarib, tashqi savdoning salbiy saldosи 9,8 millard rublga yetdi. Davlat qarzi esa bir yilda 150 millard rubl ko'payib, 550 millard rubldan oshib ketdi.

Surunkali inflatsiya hammaning tinkasini qurita boshladi. Natijada shusiz ham nochor ahvolda kun kechirayotgan aholining daromadlari va turmush darajasi muttasil pasaya boshladi. Ishlab chiqarish ko'lami va hajmining tinimsiz qisqarishi, ayniqsa, O'zbekistondek keskin demografik sharoitda yashayotgan Respublikalardagi aholi turmush darajasiga yanada og'irroq ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish, real daromadlar, ish haqi, mehnat unumдорлиги ko'rsatkichlari bo'yicha sobiq sho'ro Respublikalari orasida eng oxirgi o'rnlardan biriga tushib qolgan edi.¹

Islom Karimov bu ayanchli vaziyat haqida shunday ta'kidlagan edi: «O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha manifakatda 12-o'rinni egallab turibdi, aholi jon boshiga milliy

¹ Nurislom To'xliyev. Taraqqiyotning o'zbek modeli. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2012. 7-12-betlar.

daromad ishlab chiqarish bo'yicha esa ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past».¹

Bu davrda sanoatdagi mehnat unumdarligi jihatidan O'zbekiston o'rtacha ittifoq ko'rsatkichidan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdarligi jihatidan esa ikki barobar orqada edi. Respublika aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha ittifoq darajasining 40 foizini tashkil etardi.²

Boz ustiga iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va uni tashkil etish shakllari zamon talablariga mutlaqo javob berolmasdi. Mamlakat xo'jaligining amal qilib kelgan tarkibi ekstensiv rivojlanish mahsuli bo'lgan bu tizim iqtisodiy zarurat emas, balki qat'iy markazlashgan ma'muriy va rejali boshqarishga asoslangan edi. Noreal reja asosiga qurilgan iqtisodiyot esa rivojlanishga qodir emasligi bugun ko'pchilikka ma'lum. Rejali iqtisodiyotning tanqislik, ishlab chiqarish monopolizmi kabi «surunkali kasalliklar» doimiy hamrohidir. Sobiq sho'rolar mamlakatida ijtimoiy ahamiyati kam bo'lgan, xalq ehtiyojlarini bevosita qondirishiga emas, balki «planni to'ldirish» uchun mahsulot chiqariladigan sohalar, korxonalar behad ko'payib ketgan edi.

Jahonda bir necha o'n yilliklar davomida ijtimoiy taraqqiyotning ikki qarama-qarshi konsepsiysi – kapitalistik va sotsialistik konsepsiylar bir-biriga qarshи kurash olib bordi. Katta-katta iqtisodiy tizimlar shu konsepsiyalarni o'zida mujassamlashtirdi.

XX asrning 80-yillarda va 90-yillarning boshida jahonda ro'y bergan olamshumul o'zgarishlar hozirgi zamon iqtisodiy tafakkuriga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollariga nisbatan yondashuvlarga jiddiy tuzatishlar kiritdi. Erkin iqtisodiy tartibga solish g'oyalari ham, markazlashtirilgan rejalahshtirish g'oyalari ham inqirozga uchradi. Jalon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqdi. Ushbu model zamirida tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti yotadi. Bu iqtisodiy islohotlarning shiddatli oqimiga turki berdi, unga rivojlangan va rivojlanayotgan juda ko'p mamlakatlar qo'shildi.

Sobiq ittifoqning parchalanishi, yetilib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning chuqurlashuvi, o'ziga xos muammolari mavjudligi sababli ularni yechishga nisbatan individual yondashuvlarni belgilashni taqozo etadi.

¹ Islom Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011. – 167-bet.

² Islom Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011 – 167-bet.

O'zbekiston birinchilar qatori o'zining tom ma'nodagi suverenitetga erishish maqsadini jahonga bildirdi. Sobiq ittifoq mamlakatlari orasida birinchi bo'lib prezident boshqaruvini joriy etdi. Keng miqyosdagi islohotlar, jamiyatni tubdan yangilash va isloh etish yo'lini tanladi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil deb e'lon qilindi. O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining real davlatchiligini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston tanlagan islohotlarning o'ziga xos yo'li respublikamiz manfaatlari, shart-sharoitlari va o'ziga xosliklariga ko'proq mos kela-digan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan o'tish davrining xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning o'zbek modeli, o'tish konsepsiysi, strategiyasi, pirovard maqsadi, kelajak ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatining yangi sifatini keyingi boblarda ko'rib chiqamiz.

Qisqacha xulosalar

1. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining asosiy belgilari, boshqa barqaror bosqichdagi u yoki bu iqtisodiyotning holatidan farqli o'laroq, mazkur davrdagi o'zgarishlarning tavsifi bilan shartlanadi. Mazkur belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) o'ziga xos beqarorlikning mavjudligi; 2) transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti rivojlanishining muqobillik xususiyatga egaligi; 3) maxsus oraliq iqtisodiy shakllarning paydo bo'lishi va amal qilishi; 4) transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotdagagi ziddiyatlarning maxsus tavsifi; 5) transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tarixiyligi.

2. Mahalliy transformatsiyalashuv iqtisodiyoti miqyosi bo'yicha qandaydir bir mintaqaga yoki alohida mamlakatdagi yangi holatga o'tishni tavsiflaydi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining miqyosi bo'yicha ikkinchi turi global transformatsiyalashuv davridir. U o'zgarishlarning butun jahon xo'jaligi miqyosida yoki sivilizatsiyalar doirasida yagona jarayon sifatidagi tavsifini namoyon etadi.

3. Rossiyaning zamонавиyl transformatsiyalashuv iqtisodiyoti quyidagilar orqali tavsiflanadi: 1) maqsadga yo'naltirilgan dasturlar muhim o'rinn tutuvchi islohotga asoslangan – evolutsion turdag'i o'tish iqtisodiyotlari ham mavjud; 2) mazkur maqsadga yo'naltirilganlik hozirgi vaqtga qadar yetarli darajada aniq emas; 3) Rossiya'dagi transformatsiyalashuv jarayoni XX asrning oxiridagi maxsus tarixiy sharoitlar – global transformatsiyalashuv jarayonlarining yoyilishi

sharoitida yuz bera boshladi; 4) Rossiya hududiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ahamiyatli o'rin egallaydi, sharq va g'arb madaniyatlarini ma'lum birlikka uyg'unlashtirib, bu sivilizatsiyalarni birlashtiruvchi o'ziga xos ko'prik hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti – bir iqtisodiy tizimdan boshqa biriga o'tishda islohotlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi maxsus davrni boshidan kechiruvchi iqtisodiyot.

Mahalliy tip – yangi holatga o'tishning qandaydir alohida olingan mintaqaga yoki mamlakat miqyosida ro'y berishi.

Global tip – yangi holatga o'tishning butun jahon xo'jaligi yoki sivilizatsiyalar miqyosida ro'y berishi.

Inersiyalilik – takror ishlab chiqarishning uzluksiz ravishda davom etishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transformatsiyalashuv davrining belgilarni qanday tushunasiz?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning amal qilishidagi o'zgarishlarning mohiyati qanday?
3. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining qanday turlari mavjud?
4. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining amal qilish qonuniyatları nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Takror ishlab chiqarish inersiyaliligining mazmuni qanday?
6. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotiga xos bo'lgan ziddiyatlar nimalardan iborat?
7. Nima uchun transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida makrodarajadagi muvozanatsizlik tabiiy holat hisoblanadi?
8. Transformatsiyalashuv davri uchun rivojlanishning muqobil tavsifining sabablarini tushuntirib bering.

III bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING TURLI ZAMONAVIY MODELLARI

Oldingi boblardan ma'lum bo'ldiki, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti bir necha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni bosib o'tgan. Ular orasida eng rivojlangan, samarali, jamiyat madaniyatining yuqori darajasiga muvofiq tushuvchi tizim – bozor iqtisodiyoti hisoblanadi. Shunga ko'ra, bozor iqtisodiyoti yoki uning zamonaviy ko'rinishi – aralash iqtisodiyot jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti yo'lidagi muqarrar bosqichga aylanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolarini tadqiq etish rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiy etishining turli konsepsiyalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida ishlab chiqarish dinamikasi va tuzilishi hamda uning asosiy yo'nalishlarini o'rganish mazkur bob mazmunini ochib berishda muhim hisoblanadi.

1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish qonuniyatları

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti nazariyasi kishilik jamiyat uchta asosiy holatining amal qilish shart-sharoitlaridan kelib chiqadi:

- 1) an'anaviy (nobozor) iqtisodiyot;
- 2) bozor iqtisodiyoti;
- 3) postindustrial (bozor tipidagi iqtisodiyotdan keyin keluvchi) jamiyat iqtisodiyoti.

Bunday tarzdagi uchta bosqichga ajratish quyidagi belgilar bo'yicha amalga oshiriladi:

- 1) ishlab chiqarish-texnikaviy bazaning holati;
- 2) ishlab chiqarish vositalarini o'zlashtirish tavsisi;
- 3) ishlovchining holati.

Ushbu belgilar bo'yicha kishilik jamiyatasi asosiy bosqichlarining tahlilini qisqacha tarzda quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin (1-jadval).

Kishilik jamiyati bosqichlarining asosiy belgilar bo'yicha tavsifi

I-jadval

Asosiy belgilar	An'anaviy (nobozor) iqtisodiyot	Bozor iqtisodiyoti	Postindustrial jamiyat iqtisodiyoti
Ishlab chiqarish-tehnikaviy bazaning holati	<ul style="list-style-type: none"> - qoloq, qo'l mehnatiga asoslangan vositalar, ish hayvonlari va isbchilarning tabiiy kuchidan foydalanish; - ekstensiv rivojlanish; - agrar ishlab chiqarishning ustuvorligi 	<ul style="list-style-type: none"> - mehnat vositalarining murakkab mashina va uskunalardan iborat bo'lishi; - ishlab chiqarishning jadal o'sishi 	<ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiyotning asosiy omil va texnologiyalar negizida rivojlanishi; - axborot, bilim, ijodiy mehnat va boshqa kuchlarning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi
Ishlab chiqarish vositalarini o'zlashtirish tavsifi	<ul style="list-style-type: none"> - ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy (davlat) mulkinining ustuvorligi; - mehnatning yakka tartibdag'i shakli (dehqonlar, hunarmandlar) yoki oddiy kooperatsiya shakli 	<ul style="list-style-type: none"> - xususiy mulk – mulkchilikning tipik shakliga aylanishi; - mehnatni tashkil qilishning zamoniaviy shakllari, murakkab fabrika kooperatsiyasidan foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> - mulkchilikning davlat, jamoa, xususiy va boshqa turli shakllarini o'z ichiga olgan aralash iqtisodiyotning shakllanishi; - boshqaruvda bozor hamda davlat mexanizmlaridan uyg'un holda foydalanish
Ishlovchining holati	<ul style="list-style-type: none"> - ishlovchining shaxsan ozod emasligi, dastlabki pallada tabiat kuchlariga butunlay qaram bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy tuzumming birlamchi shakli sifatidagi jamoaga bog'liqligi 	<ul style="list-style-type: none"> - ishlovchining shaxsan ozod bo'lib, turli demokratik institutlar faoliyatida ishtirok etishi 	<ul style="list-style-type: none"> - mulkiy qaramlik o'rniga shaxsiy munosabatlarning yangidan o'rinn egallashi; - ishlovchining bir tomonlama ijro-chilik funksiyasini yo'qotib, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarni boshqarishdagi faol ishtiroti

An'anaviy iqtisodiyot uchun qoloq, qo'l mehnatiga asoslangan vositalar, ish hayvonlari va ishchilarning tabiiy kuchidan foydalanish hamda juda past ekstensiv taraqqiyot xosdir. Mehnatning asosiy vositasi bo'lib yer xizmat qiladi. Bu esa mazkur bosqichni agrar jamiyat sifatida belgilash uchun asos bo'ladi. Asosiy mulkchilik shakli ijtimoiy (bo'linmas) mulk, yoki sharq sivilizatsiyasi uchun xos bo'lgan davlat (bo'linmas) mulki, yoki G'arbiy Yevropa mamlakatlariagi singari suloladan suolaga o'tuvchi ko'rinishida bo'ladi. Mehnatni tashkil etish uchun mehnatning yakka tartibdagi shakli (dehqonlar, hunarmandlar) yoki oddiy kooperatsiya shakli xosdir. Shunga ko'ra, bunday sharoitda ishlovchi shaxsan ozod emas. Agar dastlabki pallada u tabiat kuchlariga butunlay qaram bo'lsa, keyinchalik esa ijtimoiy tuzumning birlamichi shakli sifatidagi jamoaga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, jamoa munosabatlarining tarkib topishi kishilarning iqtisodiy qaramligining ikki turli shakllarini keltirib chiqaradi: sharq sivilizatsiyasi uchun – bu markaz (davlat)dan vertikal ravishdagi mustabid qaramlikning rivojlanishi; g'arbiy sivilizatsiya uchun – qullik va krepostnoylikka asoslangan qaramlikning nisbatan mahalliy shakllarining amal qilishi.

Bozor iqtisodiyoti industrial tizim negizida rivojlanadi. Bu yerda mehnat vositalari murakkab mashina va uskunalardan iborat bo'ladi. Energiyaning asosiy ko'rinishlari sifatida bug' va elektr ko'rinishidagi tabiatning o'zgartirilgan kuchlari maydonga tushadi. Mazkur bosqich uchun ishlab chiqarishning jadal o'sishi xosdir. Mehnatni tashkil qilishda uning zamonaviy shakllari, murakkab fabrika kooperatsiyasidan foydalaniladi. Mulkchilikning tipik shakli bo'lib xususiy mulk hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi ishchi-xodimlar qobiliyat va ehtiyojlarining ham (jismoniy, aqliy va ijtimoiy) muvofiq tarzda rivojlanib borishini taqozo etadi. Xodim shaxsan ozod bo'lib, turli demokratik institutlar (partiya, kasaba uyushmasi, parlament tizimi va boshqalar)ning faoliyatida ishtirok etadi.

Biroq, bularning barchasi kishilar mulkiy qaramligining saqlanib qolishi sharoitida ro'y beradi, chunki ularning barcha faoliyatları, motivatsiyalari va amal qilishining o'zi mulkiy boylikni takror ishlab chiqarish zaruriyati bilan shartlashgandir. Bozor munosabatlari o'z navbatida mazkur mulkiy boylikning vositachisi hisoblanadi. Shu ma'noda bozor iqtisodiyotidagi inson faqat «iqtisodiy» inson (omil) hisoblanadi. Chunki uning faoliyatı ilgarigiday tabiat kuchlariga emas, balki o'zidan tashqarida yotuvchi iqtisodiy-ishlab chiqarish kuchlariga

to‘liq bo‘ysungan bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti g‘arb sivilizatsiyasi doirasida ko‘proq rivojlandi.

Aralash (bozordan keyingi) iqtisodiyot asosiy omil va texnologiyalar negizida rivojlanadi. Bu yerda axborot, ya’ni bilim, ijodiy mehnat va boshqa kuchlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mulkchilik jihatidan u aralash iqtisodiyot sifatida talqin etilib, davlat, jamoa, xususiy va boshqa turli shakllarni o‘z ichiga oladi. Boshqaruv asosan ikki mexanizm – bozor (xususiy manfaat, raqobat) hamda davlat (umum-davlat manfaati, uning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat)dan iborat bo‘ladi.

Ishlab chiqarish-teknikaviy negizning ahamiyatli jihatdan o‘zgarishi sharoitida inson qobiliyati va ehtiyojlarining har tomonlama rivojlanishi kishilar ustidan moddiy-buyum boyliklarining hukmronligini bartaraf etadi. Qadr-qimmat tizimi va yo‘nalishlari o‘zgaradi. Kishilarning ijtimoiy-ishlab chiqarish munosabatlarida mulkiy qaramlik o‘rniga yangidan (biroq sifat jihatidan yangi darajadagi) shaxsiy munosabatlar – ishonch, vijdonlilik, insoniylik, jamoaviylik va boshqa xislatlar o‘rin egallaydi hamda ishlab chiqarish munosabatlarining unsurlariga aylanadi. Xodim (inson) bir tomonlama ijrochilik funksiyasini yo‘qotib, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarni boshqarishda u yoki bu shaklda ishtirok etadi. Uchinchi, asosiy bosqichning (bu kelgusidagi jamiyat) xususiyati uning nomlanishining noaniqligini ham shartlaydi. «Bozordan keyingi» deb nomlanishi mazkur bosqichning bozor iqtisodiyotidan keyin kelishini anglatadi. «Postindustrial» jamiyat atamasi to‘g‘risida ham xuddi shunday deyish mumkin. Bundan tashqari u industrial jamiyat singari turkumlashning boshqa mezonlarini aks ettiradi. Shunday qilib, kishilik jamiyatni rivojlanish bosqichlarining tahlili uchun turkumlashning har qanday mezonida insoniyat pirovardida jahon sivilizatsiyasi tomon harakatlanayotganligini ko‘rish mumkin.

«O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» kitobida I.Karimov shunday xulosa qiladiki, «80 va 90-yillarning boshlarida dunyoda sodir bo‘lgan olamshumul o‘zgarishlar hozirgi zamon iqtisodiy tafakkuriga hamda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to‘g‘risidagi qarashlarga jiddiy o‘zgartishlar kiritdi. Erkin iqtisodiy tartibga solish g‘oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish g‘oyasi ham inqirozga uchradi. Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi yo‘llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo‘lga asos qilib olingan»¹.

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li // T.: «O‘zbekiston», 1993, 22-b.

Shunga ko'ra, bozor munosabatlariga o'tish obyektiv zaruriyat sifatida davrning talabiga aylandi. Bozor iqtisodiyoti – bu umuminsoniy hodisa bo'lib, jahon sivilizatsiyasining rivojlanish yo'lidagi muqarrar bosqich hisoblanadi.

2-§. Iqtisodiy taraqqiyotning turli xil konsepsiyalari

Sobiq ittifoq parchalanib ketgandan so'ng mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini qidirib, yangi jamiyat qurishning o'ziga xos modelini ishlab chiqdi. Bunda ilk asos vazifasini kishilarning o'z qadriyatlari tizimi va aniq maqsadni ko'zlab tutilgan yo'l, milliy an'analar va tarixiy shart-sharoit, real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit, odamlarning tarkib topgan turmush tarzi va dunyoqarashi o'tagan.

Natijada hozirgi dunyo ijtimoiy taraqqiyotining g'oyat xilma-xil betakror yo'llarini, milliy iqtisodiyotlarning shakllanishini, sifat jihatidan yangi turmushga erishish usullarini o'rganish va bilish uchun nihoyatda qulay imkoniyat beradi.

Jamiyatni taraqqiy ettirish va iqtisodiyotni isloh qilish yo'llarining xilma-xilligi bir qancha omillarga bog'liq. Avvalambor, bunga ularning aniq maqsadni ko'zlab yo'naltirilishi va iqtisodiyotning amal qilish prinsiplari sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan yosh mamlakatlar o'z oldilariga erishish osonroq bo'lgan maqsadlarni qo'yib, «muqobil rivojlanish» nazariyasining turli konsepsiyalariga tayanib, o'z yo'llarini mana shu konsepsiyanlar doirasida izlashga majbur edilar. Bu konsepsiyalarning asosiyları quyidagilar:

- «Asosiy ehtiyojlar» konsepsiysi. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadidir;

- «Maqbul yoki tegishli texnologiya» konsepsiysi. Bu konsepsiya aholi bandligini ta'minlaydigan va mahalliy xomashyoni, avvalo qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

- «O'z kuchiga jamoa bo'lib tayanish» konsepsiysi. Bu konsepsiya mavjud zaxiralardan to'liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

– «Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» konsepsiysi. Bu konsepsiya rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamlaka holatidan qutilishga va iqtisodiy qoloqligini tugatishga, teng huquqli sheriklar sifatida tan olinish, xomashyo va sanoat mollariga o‘z manfaatlariga muvofiq keladigan yangi narxlarni, xalqaro savdo me’yorlarini, valuta kursini belgilashga, zamонави texnologiyalarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytirishga bo‘lgan umumiy intilishlarini aks ettradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pgina andozalari, iqtisodiy yo‘llari yuqorida ko‘rsatilgan konsepsiylar va nazariyalarning o‘ziga xos qo‘shilmasidan iboratdir.¹

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning boshlang‘ich shartlariga ko‘ra, ilmiy tafakkur bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi uch xil yondashuvni ajratib ko‘rsatadi. Bular islohotlarning o‘ziga xos jihatlarini ham belgilab beradi. Birinchisi: bozor munosabatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish, uzoq davom etgan evolutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyotni shakllantirishdir. Ikkinchisi: rivojlanayotgan mamlakatlarning eng oddiy va bozor patriarxal-feodal munosabatlari ko‘rinishlariga ega bo‘lgan an’naviy iqtisodiyotini madaniy bozor munosabatlarga aylantirishdir. Uchinchisi: sobiq sotsialistik mamlakatlarning yakkahokimlik tartibidan, ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruv va markazlashtirilgan rahbarlik usulidagi rejalashtirishdan bozor munosabatlarga, demokratik jamiyatga o‘tishdir.

Sotsialistik iqtisodiyotning xitoycha yo‘lida o‘z aksini topgan sotsializm g‘oyalalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish bilan qo‘shib olib borishga urinish ham mavjud.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolutsion yo‘l bilan, ya’ni jadal usulda yoki evolutsion yo‘l bilan, ya’ni bosqichma-bosqich o‘tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o‘tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni batamom sindirish talab etiladi. Bu «falaj qilib davolash usuli» deb ataladi va uning tarafdorlari shu usul bilan samarali iqtisodiyotni vujudga keltirishni orzu qiladilar.

Nazariya va amaliyot eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlarga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini ortiqcha talofat va shikastlarsiz vujudga keltirish

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlari o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – T.: «O‘zbekiston», 1993, 20-21-b.

mumkinligini ko'rsatadi. Bu – evolutsion yo'l bo'lib, u ancha izchil va muqarrar hisoblanadi hamda ijtimoiy larzalar xavfini kamaytiradi.

Jahonda milliy taraqqiyot modellari ko'p. Ular o'sha mamlakat tub aholisi - millatning nomi bilan ataladi. Masalan, amerika, nemis, shved, yapon, xitoy singari milliy modellar ma'lum. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbek modeli» tushunchasi hayotga shiddat bilan kirib keldi. U qisqa vaqt ichida shunchaki bir shior emas, balki hayotbaxsh kuchga ega ta'limot ekanligi turmushda o'z ifodasini topa boshladi.

Har bir milliy model o'sha mamlakat aholisining mentaliteti, tarixiy va madaniy qadriyatları, siyosiy tuzumi, ijtimoiy tarkibi, tabiiy - iqtisodiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish omillari va resurslari, iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi kabi holatlardan kelib chiqadi.

Qanday model to'g'risida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush darajasini yuksaltirishdan iboratdir. Biron-bir modelni tanlash pirovard maqsad emas. Model eng avvalo mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasidir.

Shimoliy Amerika, xususan AQSH modelida bozorda davlatning xo'jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa — barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish yo'li bilan biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish hamda o'zini-o'zi boqishga qurbi yetmaydiganlarga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu model bozorning keskin, shiddatli yo'li bo'lib, korxonalarning zarar keltirib ishlashini, dotatsiyani rad qiladi. Bu yo'l bir qarashda ancha mastunkor tuyulsa-da, ammo xalqni, ayniqsa, uning kam ta'minlangan tabaqalarini ancha qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Amerika modeli narxlarning erkin shakllanishi, subsidiyadan voz kechish, tashqi savdo uchun ochiq iqtisodiyot, davlat korxonalarini xususiy lashtirish, chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, samarasiz korxonalarni yopish va ortiqcha ishchilarni bo'shatishni ko'zda tutadi. Bu yo'l muayyan keskinliklar - g'oyat yuqori narx-navo, ishsizlik, daromadlarning pasayishi, tashqi qarzning oshishiga ham olib keladi. Ammo bunday yo'qotishlar erkin bozorga o'tish bilan bog'liq. Uzoq muddatli foyda bilan keyinchalik qoplanishi mumkin, albatta.

Bu model aksiyadorlik mulkining intensiv qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bu modelda korxonaga tovar sifatida qaraladi. U

«qismrlarga» bo'linib ham, fond birjasi orqali ham sotilishi mumkin. «Amerikacha» iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvining g'oyat yuqoriligi va yirik biznesning iqtisodiyotda muhim o'rinn tutishidir. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, korporatsiyalarning tovar aylanmasi mamlakatdagi jami tovar aylanmasining 90 foizini tashkil etadi. Mayjud 4 milliondan ortiq sanoat korporatsiyasidan besh yuztasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi¹. Ushbu korporatsiyalarning katta qismi transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi va ularning xorijdag'i korxonaлari ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlari AQSH yalpi ichki mahsulotining 1/3 qismini tashkil etadi².

Moliya kapitali darajasida konsentratsiyalashuv ko'rsatkichlari yanada yuqori. Garchi mamlakatda bir necha ming tijorat banki faoliyat yuritsada, ulardan elliktasi jami bank aktivlarining 1/3 qismiga egalik qiladi.

Yirik banklar va sanoat korporatsiyalari strategik aliyanslarni tashkil etadi. Bunday yirik moliya-sanoat guruhlari mamlakat yetakchi iqtisodiy markazlarini o'z ta'sir doirasiga qamrab olishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, hozirgi kunda AQSH iqtisodiyotida yigirmadan ortiq ana shunday aliyans faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning «amerikacha» modelida inson omilining roli ham yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. AQSH muhojir-ajnabiylar mamlakati hisoblanadi. Amerika davlati muhojirlar tomonidan barpo etilgan. Ommaviy muhojirlik AQSH aholisi milliy tarkibining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amerika millati – dunyoning turli qit'alardan, eng avvalo, Yevropadan ko'chib kelgan odamlarning etnik yaxlitligi natijasidir. Garchi AQSHda yuzdan ortiq millat va elat istiqomat qilsa-da, ularning 80 foizini yevropaliklar, 12 foizini qora tanli amerikaliklar, 5 foizini ispan tilida so'zlashuvechi amerikaliklar tashkil etadi. Mahalliy xalq (avvalo, hindular) soni bir foizga yaqin, xolos.

Iqtisodiy adabiyotlarda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari quy'idagi guruhlarga ajratiladi:

- nemis iqtisodiy taraqqiyot modeli;
- britancha taraqqiyot modeli;
- fransuzcha taraqqiyot modeli;
- iqtisodiy taraqqiyotning «shvedcha modeli».

¹ Экономика США //Под ред. В.Б.Суляна// - СПб.: Питтер, 2003. - С.514

² Черников Г.Л. Мировая экономика. - М.: Дрофа, 2003. - С.297.

Nemis iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xosligi shundaki, unda asosiy e'tibor ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ijtimoiy-huquqiy davlat qurilishiga qaratilgan. Nemis «iqtisodiy mo'jizasi» iqtisodiyotga davlat aralashuvni va erkin bozor tamoyillaridan maqsadga muvofiq foydalanishga asoslanadi. Germaniyada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillari jumlasiga «Marshall rejasisi»ga muvofiq keng miqyosli yordamdan foydalanish, «inson kapitali» sifatining yuqoriligi, jahon xo'jalik aloqalarida faol ishtirok etish, mo'tadil ichki iqtisodiy siyosatni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida uzoq vaqt davomida narx barqarorligi saqlanib turgan holda, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 8,5 foizgacha yetdi. Aynan shu davrda «nemischa sifat», «nemischa mehnatkashlik», «nemischa mas'uliyat» kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Britancha taraqqiyot modelida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ustuvor o'runga ega. Davlat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda, yangi tarmoqlarni rag'batlantirishda, ilmiy yo'nalishni rivojlantirishda, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat ko'plab kichik korxonalarning yirik kompaniyalar bilan o'zaro shartnomaga imzolashida vositachi rolini bajaradi. Kichik korxonalar esa bunday shartnomalar orqali barqaror bozorga, ta'minot va moliyalashtirish manbasiga ega bo'ladilar, yangi texnologiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Fransuzcha taraqqiyot modeli «dirijizm» tamoyillariga asoslanadi. Garchi «neoliberal inqilob» natijasida davlatning tadbirdorlik faoliyati birmuncha qisqargan bo'lsa-da, Fransiyada davlat tadbirdorligi AQSH darajasidan 3 barobar yuqoridir. Davlatning tartibga solish faoliyati ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Bugungi kunda Fransiya hukumati umummilliy tuzilmaviy dastur, yangi tarmoqlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, faol ijtimoiy siyosat yuritish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat budgeti asosiy o'rinda turadi. Fransiya milliy daromadining 54 foizi davlat budgeti orqali qayta taqsimlanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «shvedcha modeli»da ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash ustuvordir. «Shvedcha» modelning iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat:

➤ aralash iqtisodiyot (bozor mexanizmi va davlat tomonidan faol tartibga solish usulidan birgalikda foydalanish);

- ishlab chiqarish sohasida xususiy mulkchilik kombinatsiyasi va «iste'molning jamoalashuvi»;
- ijtimoiy xizmatlarda davlat-kommunal sektorining yirikligi;
- cheklangan makroiqtisodiy siyosatning bandlik va investitsiya-larning yuqori darajasini saqlab turish bo'yicha selektiv chora-tadbirlar bilan uyg'unlashuvi.

Milliy iqtisodiy taraqqiyot modellarining Yevropa modellari (Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya) ko'p hollarda Germaniyadagi mashhur daryo nomi bilan - «Reyn modeli» deb ham ataladi. Bu model aksioner korxonalar mulklari tarkibining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Bu modelda iqtisodiy faoliyat «falsafasi» katta rol o'ynaydi. Unga ko'ra korxonaga umumiy manfaatlarga ega jamoa deb qaratildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda Yevropa mamlakatlarining turli milliy modellarida umumyevropa modeliga yaqinlashuv holati kuzatiladi. Bu eng avvalo quyidagi yo'naliislarda amalga oshirildi:

- yagona ichki bozorni barpo etish;
- iqtisodiy va valuta ittifoqini shakllantirish;
- moliya siyosatini muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy modellarning yaqinlashuvi;
- tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitini shakllantirishning yagona shart-sharoitlarini ta'minlash;
- federativ tuzilmani takomillashtirish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning yagona qoidalari va mexanizmlarini qabul qilish.

Yaponiyada ham, Osiyoning yangi industrial davlatlarida ham erkin tadbirkorlik faoliyati davlat boshqaruvi (markazlashgan rejalashtirish) bilan qo'shib olib boriladi. Asosiy narxlar fiskal usullar bilan, ya'ni davlat daromadlarini nazarda tutib boshqarilishi mumkin. Albatta, hozirgi iqtisodiyotda muayyan turdag'i bozor o'z holicha va sof ko'rinishda uchramaydi. Hozir mamlakatlar, xalqlar tajribasi ancha umumlashib ketdi. Osiyodagi yangi industrial davlatlar, ulardan oldin esa Yaponiya iqtisodiy islohot va xo'jalikni tarkibiy qayta qurish davomida jahon tajribasidan keng soydalanganligi ma'lum.

Ikkinehi jahon urushidan keyin yapon iqtisodiyoti qiyin ahvolga tushib qolgan. Sanoatning chuqur inqirozi, harbiy-iqtisodiy modeldan bozor modeliga o'tishning qiyinchiliklari, iqtisodiyotning harbiy ishlab chiqarishga bo'ysundirilganligi, tinkani quritadigan taqchillik, inflatsiya

va boshqalarni yengib o'tish lozim edi. Ammo Yaponiya xalqi bu qiyinchiliklarni ancha tez hal qildi. Chunki mamlakatdagi boshqarishning markazlashgan harbiy qolipi joriy etilgan shunchaki tartibot emas, balki mavjud vaziyatni hisobga olib, ataylab orqaga chekinish edi.

Shuning uchun iqtisodiyotning yangi bozor modeli qaytadan yaratilmadi. Yaponiyada sobiq sotsialistik mamlakatlardagi kabi millatning eng istedodli, eng qobiliyatli qismi, tadbirkor, omilkor kishilar yo'q qilib yuborilmagan edi. Asosiy masala – islohotni nimadan boshlashda edi. Bu masala avvalo to'g'ri belgilab olindi va keyin yechildi: iqtisodiy jondantirishning ustun tomonlari aniq belgilandi, avvalo oziq-ovqat, ko'mir, ruda, eng hayotiy zarur buyumlarni ishlab chiqarish rivojlantirildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «yaponcha» modeli o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan biri yaponcha hayot tarzi an'analarini xurmat qilish asosida barcha darajada va barcha ijtimoiy sohalarda munosabatlarni muvofiqlashtirishni ko'zda tutuvchi jamiyatni ijtimoiy tashkil etishdan iboratdir. Yaponiyada g'oyaviy qadriyatlar asosida amerikacha standartlardan keskin farq qiluvchi mehnatga rag'batning o'ziga xos shakli vujudga kelgan. Iqtisodiy taraqqiyotning aynan «yaponcha» modelida jamiyat hayotida ijtimoiy-madaniy va diniy omilning ahamiyati yaqqol o'z ifodasini topgan.

Yapon xalqi va madaniyatida ijtimoiy ong, jamaa ruhi muhim o'rinn tutadi. Bu qadimiy va boy tarix samarasidir. Yapon milliy an'analariga ko'ra har qanday ijtimoiy guruh manfaati alohida shaxs manfaatidan ustun. Jamiyat hayotida birlamchi guruh – oila asosiy rol o'ynaydi, keyingi o'rinda esa jamaa turadi. Zamonaviy korxona, korporatsiya ham, davlat ham yirik oila hisoblanadi.

Har bir yaponiyalik guruh nomidan fikrashi va o'zini guruh a'zosi deb hisoblashi faqat yapon madaniyati va an'analarini bilan bog'liq emas, albatta. Bunda yapon jamiyatining ijtimoiy tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, Yaponiya ijtimoiy barkamollik jamiyatni hisoblanadi. Garchi real vaziyat ushbu ta'rifga to'la mos tushmasada, Yaponyaning boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli jihatlari kop. Chunonchi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar miqdori g'oyat yuqori bo'lishiga qaramasdan, Yaponiyada boylar va kambag'allar o'rtasida unchalik katta tafovut yo'q. Xususan, aholining eng boy va eng qashshoq 20 foizi daromadlari o'rtasidagi nisbat Yaponida 2,9 barobarni tashkil etadi, xolos. Vaholanki, bu

ko'rsatkich AQSHda 19 ga teng¹.

Boshqaruvning «yaponcha» usuli rivojlanishning strategik muammolariga alohida e'tibor qaratadi. Davlat korxonalarining ijtimoiy samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bunda u faqat pul rentabelligi bilan o'chanadigan tor doiradan yuqoriqoq fikrlashni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.²

Xitoy va Vietnam iqtisodiy islohotni ustun darajada qishloq xo'jaligidan, oziq-ovqat bozorini to'ldirishdan boshladi va yaxshi natijalarga erishdi.

Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor mexanizmi va iqtisodiyotning nodavlat sektori o'z mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ammo davlat tomonidan tartibga solish, mehnat bo'yicha taqsimlash va ijtimoiy kafolatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu modelni sotsialistik model ustuvor mavqega ega bo'lgan aralash iqtisodiyot deb ham atash mumkin. Shu o'rinda Xitoy modelining asoschilaridan biri Den Syaorinning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinni: «Reja» yoki «bozor» - bu kapitalizm va sotsializmnинг tub farqi emas. Rejali iqtisodiyot sotsializm degan ma'noni anglatmaydi, kapitalizmda ham reja mavjud. Ayni vaqtida bozor iqtisodiyoti kapitalizm emas, zero, sotsializmda ham bozor mavjud. Reja va bozor – iqtisodiy usullardir»³.

Iqtisodiy taraqqiyot modellarining xilma-xilligi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos. Bu modellarни rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: eksportga yo'naltirilgan va importning o'rmini bosishga qaratilgan strategiyani tanlagan mamlakatlar. Birinchi guruhga Janubi-Sharqiy Osiyoning «yangi industrial mamlakatlari»ni, ikkinchi guruhga Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanish modelini kiritish mumkin.

3-§. Transformatsiyalashuv jarayonlarida mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarkibi va uning o'sish sur'atlari

Ma'lumki har qanday taraqqiyot modelining bosh maqsadi iqtisodiy o'sish va uning asosida xalq kafolatligini ta'minlashdir. Lekin barcha taraqqiyot modellarida ham bu maqsadga erishilyaptimi? Bu savolga bir so'z bilan «ha» javobini berish qiyin, albatta. O'zbek modeli misolida

¹ Экономика США //Под ред. В.Б.Султана/. - СПб: Питер, 2003. - С.324.

² Nurislom To'xlyev, Тараqqiyotning o'zbek modeli. -Т.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2012. 43-51-bellar.
³ Ло Гогуан. Функционирование и развитие китайской экономики, 'Уайчжоу, 2001. - С.39 (короткотекущий).

esa bu savolga ijobjiy javob berish uchun yetarli asoslar mavjud.

O'zbek modeli iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilgan yo'lini amalga oshirish, ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishini to'xtatish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini berdi. O'zbekiston SSSR parchalangandan keyin paydo bo'lgan mustaqil davlatlar orasida hali transformatsiyalashuv davridayoq nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki iqtisodiy o'sish va yuksalishni ham ta'minlagan yagona mamlakatdir. Bu yerda jahonda kam uchraydigan – tanglikdan rivojlanish orqali chiqish fenomeni o'zining bordan-bir to'g'ri yo'l ekanini isbotladi.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarda barcha sobiq ittifoq Respublikalarida bo'lganidek, O'zbekistonda ham mavjud Respublikalararo xo'jalik aloqalarining uzilishi, yangilarining esa hali shakllanib ulgurmaganligi va bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan chuqur tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirish zarurati tufayli bir qator iqtisodiy qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish vositalari bozorida ham, iste'mol bozorida ham taqchillik yuz berdi. Bu vaziyatdan har kim - sobiq ittifoqdosh Respublikalar o'z bilganicha chiqishga intildi. O'zbekiston esa o'z yo'lboshchisi rahnamoligida boshqalardan farqli ravishda, nisbatan qiyin va murakkab, muayyan vaqt talab etadigan, lekin eng samarali va to'g'ri yo'lni – mavjud barcha resurslarni safarbar qilish orqali sanoat, transport, aloqa va xizmat ko'rsatishning ulkan industriyasini bozor munosabatlariga moslab yaratish yo'lini tanladi. Chet el investitsiya va kreditlari ham ana shu maqsadga yo'naltirildi. Natijada, iqtisodiy o'sish uchun mustahkam asos hozirlandi. Bu esa, bosh vazifani hal etish, ya'ni makroiqtisodiy barqarorlikka erishishdag'i muvaffaqiyatlarni yildan-yilga mustahkamlab borish imkonini berdi.

Iqtisodiy tanglikdan, odatda, ko'pchilik mamlakatlar tinka-madori qurib, qarzga botib chiqadi. O'zbekiston esa 1990-yillardagi iqtisodiy tanglikdan kuch-qudratga to'lib, imkoniyatlari kengayib chiqdi. Bu fenomen, afsuski, o'zbek modelining hali kam o'rganilgan va kam yoritilgan jihatlaridandir.

Xo'sh, iqtisodiy rivojlanish qaysi mezon va ko'rsatkichlar bilan o'chanadi? Uning barcha iqtisodiy tizim va mamlakatlar uchun yagona o'chovi bormi? Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat miqyosidan to xo'jalik darajasigacha bo'lgan turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlar silsilasida o'z ifodasini topadi. Ular orasida eng muhimi - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va ko'rsatilgan xizmat darjasidir.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy rivojlanishning mezoni sifatida

yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'atlari qo'llaniladi. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy ko'rsatkichi bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi korxona va tashkilotlar faoliyatining pirovard natijalarini o'z ichiga oladi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini yaratishda sanoat tarmoqlarining hissasi muttasil ortmoqda. Yalpi ichki mahsulotning 24,0 foizi sanoat tarmoqlarida, 17,5 - qishloq xo'jaligida, 12,4 - transport va aloqada, 6,4 - qurilishda, 9,0 - savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, 23,7 - boshqa sohalarda va 7,0 foizi mahsulot va tashqi savdodan tushadigan sof soliqlardan tarkib topmoqda .

Yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishiga oid ma'lumotlar iqtisodiy islohotlar yillarda hamdo'stlik davlatlarida yuz bergen chuqur iqtisodiy pasayishni ko'rsatdi.

Bellarussiyada 1997-yilda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 10, Gruziyada 11,3, Qirg'izistonda 10,4 foizga oshgan. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 5,2 foizga teng bo'lgan. Lekin bu yuqorida nomlari qayd etilgan uch mamlakatda iqtisodiyot ancha tez sur'atlarda o'nglangan ekan, degan xulosani bermaydi.

Agar ahvolni 1990-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti ko'proq ijobjiy natijalarga erishganining guvohi bo'lamiz. 2000-yilga kelib Ozarbayjon, Gruziya, Moldova va Ukrainada yalpi ichki mahsulot hajmi 1990-yildagi darajaning yarmiga ham yetmadi (37-44%). Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya kabi mamlakatlarda uning miqdori 1990-yildagi darajaning 58-62 foizini tashkil etdi, xolos. Belarussiyada bu ko'rsatkich 73 foizdan iborat bo'ldi.

O'zbekistonda esa 1996-yili yalpi ichki mahsulot hajmi 1990-yil darajasidan 18 foizga past bo'ldi. 1997-yilda bu farq biroz qisqardi va 14 foizni tashkil etdi. Shunday qilib, bu muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha islohotdan oldingi darajaning 86 foiziga erishildi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotgan boshqa birorta mamlakat o'sha paytda bunday ko'rsatkichlarga ega emasdi.

Demak, Belarussiya, Qirg'iziston va Gruziyada 1997-yildagi iqtisodiy o'sishning yuqori ko'rsatkichi islohotlar boshlanishidan oldingi davrga nisbatan emas, balki 1996-yilga nisbatan olingan. 1996-yilda esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-yilga nisbatan Belarussiyada - 65, Qirg'izistonda - 58, Gruziyada atigi 29 foiz bo'lgan, xolos. Fikrimizning dalili sifatida MDH mamlakatlarida ushbu yillarda sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlarini keltirish kifoya.

1997-yilda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1990-yilga nisbatan 12,7 foiz o'sdi. Bu ko'rsatkich Belarussiyada 1990-yil darajasining 71, Qirg'izistonda 51 foizini tashkil etdi. Qolgan birorta mamlakat islohotdan oldingi darajaning yarmiga ham yeta olmadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun 1995-yil burilish yili bo'ldi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi deyarli to'xtatildi. Bir yilda u atigi 0,9 foizga teng bo'ldi va 1996-yildan boshlab hozirgacha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning barqaror ijobjiy dinamikasi davom etmoqda: 1996-yilda uning o'sishi 1,7 foizni, 1997-yilda 5,2 foizni tashkil etdi. Binobarin, mamlakatimiz 1998-yil natijalari bo'yicha yalpi ichki mahsulot hajmining 1990-yil darajasiga erishishda hal qiluvchi qadam tashladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha bu darajaga mamlakatimiz 1995-yilda to'la erishgan edi.

Shunday qilib, hali o'tish davrining o'zidayoq O'zbekistonda ko'p ukladli, aralash, ko'p tarmoqli, tashqi beqarorlashtiruvchi omillardan xoli milliy bozor iqtisodiyotining shakllanishi asosan tugallandi.

Iqtisodiyotimizdagи bunday ulkan yuksalishlarga o'z-o'zidan erishilgani yo'q, albatta. Bunda davlatimiz rahbari tomonidan yuritilgan izchil va qat'iy iqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish strategiyasi muhim omil bo'ldi.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida o'zgartirish tadbirlari makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturlari bilan qo'shib olib borildi. Bu ham o'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu holat islohotlarni amalga oshirish sur'atlariga ta'sir qilmasdan qolmadi. Ammo tanglikdan chiqishning boshqa qulay yo'li ham yo'q. Bunday tadbirlarni amalga oshirishga tarix ajratgan vaqt ham juda qisqa edi. Iqtisodiyotda asosiy tarkibiy qayta qurishlarni jadal amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Yoniilg'i-energetika, mashinasozlik, kimyo, transport va aloqa, yo'l qurilishi, qayta ishlash kabi ustuvor sohalar izchil rivojlantirildi. Mazkur ustuvor sohalarining rivojlantirilishi, birinchidan, ayrim strategik mahsulotlar bo'yicha mamlakatni tashqi bozorga qaramlikdan xalos qilgan bo'lsa, ikkinchidan, ular boshqa tarmoq va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishda o'ziga xos yetakchi vosita bo'lib xizmat qildi. Ustuvor sohalarini belgilash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish tarmoqlarni aniq va maqsadli moliyalashtirish (investitsiyalash) evaziga ta'minlandi. Barcha investitsiyalarning qariyb uchdan ikki qismi ishlab

chiqarish obyektlarini barpo etishga yo'naltirildi. Sanoat umumiy investitsiyasi miqdorida yoqilg'i-energetika kompleksining ulushi 43 foizga yetdi. Ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsiyalarining uchdan bir qismi transport va aloqani rivojlantirishga sarflandi. Shuningdek, sanoat umumiy investitsiyalarida metallurgiya, kimyo va neft kimyo-sining ulushi ham sezilarli darajada oshdi (2-jadval).

O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan foizda)¹

2-jadval

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2007	2010
Yalpi ichki mahsulot	103,8	107,0	109,5	108,5
Sanoat mahsuloti	105,9	107,2	112,1	108,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	103,1	105,4	106,1	106,8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	101,0	105,7	125,8	109,2
Qurilish ishlari	103,0	110,7	116,0	108,1
Yuk aylanmasi	120,4	106,6	107,3	100,0
Yo'lovchi aylanmasi	105,2	115,4	114,1	109,0
Chakana tovar aylanmasi	107,6	105,1	115,5	114,7
Pullik xizmat ko'rsatish	115,7	116,3	120,0	113,4
Tashqi savdo aylanmasi	97,9	109,6	140,7	103,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2000-yildan boshlab mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha sohalarida muntazam o'sish sur'atlari kuzatilmogda. Amino shuni ta'kidlash joizki, 2010-yildagi barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 2007-yil ko'rsatkichlaridan past. Ayniqsa, yuk tashish, tashqi savdo aylanmasi bo'yicha ko'rsatkichlar global moliyaviy-inqiroz boshlanishidan oldingi 2007-yildan sezilarli past. 2007-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarining o'rtacha yillik o'sishi 25,8, pullik xizmat ko'rsatish 20,0, tashqi savdo aylanmasi 40,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda, mos ravishda 9,2, 13,4 va 3,0 foizdan iborat bo'ldi. Bu holat global inqirozning mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta'siri bilan izohlanadi. 2011-yil yakunlari barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha vaziyat tez sur'atlarda o'nglanayotganini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda chet ellik yirik komraniyalar bilan hamkorlikda Asakada yengil avtomobillar, Toshkent va Samarqandda avtobuslar, Samarqandda yuk avtomobilari ishlab

¹ Statistik to'plam. -T.: 2011. 3-b.

chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi, Buxoro neftni qayta ishslash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi qurilishi, Farg‘ona neftni qayta ishslash zavodining rekonstruksiya qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2006-yildan Qo‘ng‘irot soda zavodida kalsiyli soda, Samarqand kimyo zavodida nitrokalsiyfosfat o‘g‘iti ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, 2010-yildan Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi mahsulot bera boshladi. Mamlakatimizda industrial tarmoqlarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga mustahkam zamin yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi muhim rol o‘ynamoqda. Jamg‘arma iqtisodiyotda ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan o‘nlab strategik loyihalarni moliyalashtirish ishlarini olib bormoqda.

Prezidentimiz ishlab chiqqan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan to‘rtta strategik dasturning amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu dasturlar sanoat, infratuzilma, transrort va aloqa, qurilishni rivojlantirish, moliya-bank tizimini isloh qilish va barqarorlikni oshirish kabi vazifalarni o‘z ichiga oлади.

Dasturlarning asosiy vazifasi makroiqtisodiy barqarorlik, yaqin yillarda yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’atlarini 8 foizdan kam bo‘lmagan darajada ta’minlash, iqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatning ishlab chiqarish va resurslar salohiyatidan unumli foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi «Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risidagi farmoni ham xuddi ana shu yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. 2008-yilning oxirida hukumatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan mintaqaviy va qit’alararo noyob logistika markazi sifatida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona (EIJZ) tashkil etilgan edi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi qanchalik universal ko‘rsatkich bo‘imasin, baribir u iqtisodiyotda kechayotgan chuqur sifat o‘zgarishlarni o‘zida to‘la aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham uni to‘ldiradigan qo‘srimcha iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim bo‘ladi. Ana shunday ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib aholi jon boshiga

yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish xizmat qilishi mumkin (3-jadval).

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar¹

3-jadval

Ko'rsatkichlar	1990	2000	2010	1990 y.-ga nisbatan	
				2000	2010
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) AQSH doll.	1328	1431	3271	107,9	2,5 marta
Band bo'lgan har bir odamga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (xarid qibiliyati pariteti) AQSH doll.	3412	3928	7940	115,1	2,3 marta
Sanoatda band bo'lgan har bir odamga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, AQSH doll.	3159,6	6969,1	14124,1	2,2 marta	4,5 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari, AQSH doll.	93,8	157,8	263,1	1,7 marta	2,8 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya, AQSH doll.	40,8	127,5	344,1	3,1 marta	8,4 marta

Hali o'tish davridayoq mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmi ilk bor aholi soni o'sish sur'atlaridan ustun bo'lishiga erishildi. Bu o'ta muhim sifat ko'rsatkichidir. Yalpi ichki mahsulot miqdorini aholi jon boshiga hisoblaganda sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo'lindi. Bu – mamlakat iqtisodiy qudrati va aholining kafolatlik darajasini ko'rsatadigan muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda erishilayotgan muhim sifat ko'rsatkichlaridan yana biri shuki, ijtimoiy ishlab chiqarish hajmi iqtisodiyotda band bo'lganlar soni bilan birga o'smoqda.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon inflatsiyaning past darjasasi, yalpi ichki mahsulot hajmida jamg'arish va investitsiyaning yuqori ulushi, yalpi ichki mahsulotda davlat boshqaruvi xarajatlarining nisbatan pastligi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining nisbatan ochiqligi va boshqa sifat o'zgarishlari barobarida kechmoqda.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblaganda, 2000-yilda 1990-yilga nisbatan 8,0 foiz oshgan bo'lsa, o'tgan yigirma yil ichida 2,5 barobar ko'paydi.

¹ Statistik to'plam. - T.: 2011. 74-b.

Iqtisodiyotda band bo‘lgan har bir kishiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi ham ana shunday sur’atlarda o‘sdi. Sanoatda band bo‘lgan har bir kishiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari, aholi jon boshiga iste’mol mollari ishlab chiqarish, aholi jon boshiga investitsiya-lar kiritish esa yanada yuqoriroq sur’atlarda o‘sdi (3-jadvalga qarang).

Iqtisodiyotni rivojlantirishga kiritilayotgan chet el investitsiyalarining oshishi, bir tomondan, mamlakat iqtisodiyotining ochiqligidan dalolat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hozirgi zamон texnologiyasining qo‘llanilishini, importning o‘rnini bosadigan hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganini bildiradi. Bularning hammasi O‘zbekistonda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar yo‘liga to‘la muvofiqdir.

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi amalda iqtisodiyotning barcha tarmoq va bo‘limlarida ishlab chiqarishning to‘xtovsiz o‘sishi asosida amalga oshirilmoqda.

Bunday natijalar, o‘z navbatida, aholi turmush darajasini yuksaltirishga - uning pul va real daromadlarini, nafaqa, stipendiya va boshqa imtiyozlarni ko‘paytirish, uy-joy, maktab, tibbiyat obyektlari qurilishini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Biroq mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minalash – yagona va pirovard maqsad emas. Yalpi ichki mahsulot tarkibini takomillashtirish, bozor tan oladigan, odamlarning kundalik ehtiyojini bevosita qondiradigan, sifatlari, ya’ni eksort talablariga javob beradigan mahsulot va xizmat turlarini muttasil ko‘paytirib borish davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan bosh maqsadlardandir. Prezidentimiz Islom Karimov ko‘p bor ta’kidlaganidek, islohotlar islohot uchun emas, balki odamlarning turmush kafolatligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Shundagina islohotlar chuqur mazmun kasb etadi, odamlarni samarali mehnatga rag‘batlantiradi va xalq kafolatligining oshishida o‘z ifodasini topadi.

Iqtisodiyotimizdagi tarkibiy o‘zgarishlar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minalash, iqtisodiy o‘sishga erishish, aholi kafolatligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida amalga oshirildi. Bu, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, texnologik siklning tugallanganlik darajasini oshirish, mamlakatning yoqilg‘i-energetika ta’mnoti va oziq-ovqat mustaqilligiga erishishga oid muammolarni hal etishda o‘z ifodasini topdi. Tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ilgari faqat chetdan keltirilgan minglab turdag‘i mahsulotlarni, shu

jumladan, benzin, konchilik sanoati, quvurlar ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, yengil avtomashinalar, murakkab maishiy texnika, ortik tolali va boshqa xil kamyob tovarlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi. Bugun minglab turdag'i sanoat mahsulotlarining yorliqlariga biz ko'rganda faxr-iftixor tuyg'ularini his qiladigan so'zlar bitilgan – «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan».

O'zbekistonda xususiy va kredit-moliya mablag'laringin asosiy qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asos yaratish maqsadlariga safarbar etildi. Bular avtomobil va neftri qayta ishlash zavodlari, yangi temiryo'l va avtomobil yo'llari qurilishi, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, shuningdek, o'nlab modernizatsiya qilingan yangi yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati korxonalaridir. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning industrial qudratini ilgari, asosan Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Chirchiq kabi yirik shaharlarda jamlangan edi. Bugungi kunga kelib, yangi investitsiya loyihalari geografiyasi sezilarli tarzda kengaydi. Buning natijasida iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibi mukammallashib bormoqda.

Ustuvor tarmoqlarni to'g'ri belgilab olish avvallari tanqis bo'lgan mahsulotlar turlarini ishlab chiqarishga keng yo'l ochish bilan cheklanmadni, balki ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibining takomillashuviga ham yordam berdi. Ayni paytda, iqtisodiy taraqqiyotda o'ziga xos lokomotiv vazifasini ham o'tadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni Jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va import o'mini bosuvchi mahsulotlar turlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ichki bozorni xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi tizimini rivojlantirish, investitsiya faoliyatini Jadallashtirish, O'zbekistonning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish bilan bog'liq boshqa yo'nalishlar eng ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi. Investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish tarmoqlari ulushi 70 foizdan oshib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning real ko'rsatkichlarini oshirish sari keng yo'l ochdi.¹

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga, eng avvalo, zamонавиъ texnologik jihozlar bilan qurollangan yangi, ilg'or ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish va ishga tushirish yo'lli bilan iqtisodiyotga kapital qo'yilmalarni jaib etish hajmini oshirish orqali erishilmoqda.

¹ Nurislom To'xliyev, Taraqqiyotning o'zbek modeli. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2012. 134-148-betlar.

Eng muhim tarmoqlar bilan bir qatorda ilg'or, yuksak ilmtalab yuqori ishlab chiqarishlar - avtomobilsozlik, samolyotsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va metallsozlik, shuningdek, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ham jadal rivojlantirilmoqda. Neft-gaz qazib olish va qayta ishlash sanoati, rangli metallurgiya, avtomobil sanoatida yaratilayotgan qudratli salohiyat butun mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotida muhim omil bo'lmoqda.

Qisqacha xulosalar

1. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasida kishilik jamiyatini bosqichlarga ajratish quyidagi belgilari bo'yicha amalga oshiriladi: ishlab chiqarish – texnikaviy bazaning holati; ishlab chiqarish vositalarini o'zlashtirish tavsifi; ishlovchining holati.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiyligi mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

3. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri - ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr tushuniladi.

4. Bozor iqtisodiyotiga revolutsion yo'l bilan, ya'ni jadal usulda yoki evolutsion yo'l bilan bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni bordaniga va batamom sindirish talab etiladi. Bunisi «karaxt qilib davolash» usulini deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolutsion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

Asosiy tayanch tushunchalar

«Asosiy ehtiyojlar» konsepsiysi – aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etishga qaratilgan konsepsiya.

«Maqbul yoki tegishli texnologiya» konsepsiysi – mahalliy xomashyoni qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslangan konsepsiya.

«O‘z kuchiga jamoa bo‘lib tayanish» konsepsiysi – mavjud zaxiralardan to‘liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan konsepsiya.

«Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» konsepsiysi – rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamla holatidan qutilishga va iqtisodiy qo‘loqligini tugatishga bo‘lgan umumiy intilishlarini aks ettiruvchi konsepsiya.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – xo‘jalik hayotining barcha sohalridagi to‘siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun bozor iqtisodiyoti jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti yo‘lidagi muqarrar bosqich deb hisoblanadi?
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi zamон modellardan qaysilarini bilasiz?
3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish hozirgi zamон modellarining bir-birlaridan farqlanuvchi jihatlarini ko‘rsatib bering.
4. Nima uchun bozor munosabatlariga o‘tish modellari turlicha bo‘ladi?
5. Bozor munosabatlariga o‘tish modellarining shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
6. Yangi industrial mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar modellari nimasi bijtan farq qiladi?
7. Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiy etishi konsepsiyalarining shakllanishi qanday omillarga bog‘liq?
8. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiy etishining turli konsepsiyalarini izohlab bering.

IV bob. MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK IQTISODIYOTIDAN BOSHQARILADIGAN BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING XUSUSIYATLARI

Mamlakatimiz uzoq yillar davomida sobiq ittifoq tarkibida ma'muriy-buyruqbozlik tizimida faoliyat yuritib, uning salbiy oqibatlardan zarar ko'rdi. Hattoki, bozor munosabatlariiga o'tish davrida ham ba'zi sohalarda shu tizimning asoratlarini bartaraf etish mushkul kechmoqda. Chunki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarni ham qamrab olgan, eng yomoni, odamlarning dunyoqarashi, tafakkuri, iqtisodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish qobiliyatlariga ham ta'sir ko'rsatib ulgurgan edi. Shunga ko'ra, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotidagi muhim vazifalardan biri – bozor munosabatlariini shakllantirish, aholida tadbirkorlik, tejamkorlik, oqilona xo'jalik yuritish, iqtisodiy madaniyat asoslarini qaytadan tarbiyalashdan iborat. Mazkur bob doirasida ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimining mohiyati, uning usullarini bartaraf etish yo'llari, bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi muhim tadbir sifatidagi ma'muriy islohotlarning mazmuni bayon etiladi.

1-§. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimining mohiyati

Iqtisodiyot nazariyasi kursidan ma'lumki, har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiy tizimning uchta – an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlariga ajratiladi.

An'anaviy iqtisodiyot – urf-odatlar, uduumlarga, an'analarga asoslangan holda amal qiladigan iqtisodiyot bo'lib, uni deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tadi. Bozor iqtisodiyoti esa talab va taklif, raqobat, narx mexanizmlari asosida amal qiluvchi, faoliyat va tanlov erkinligi, mustaqillik va tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiy tizimdir. Bozor

iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining iqtisodiy asosini direktiv (mazkazlashtirilgan) rejalashtirish tashkil etadi. Bunda o'zining iqtisodiy, siyosiy hamda maskuraviy manfaatlarini ilgari suruvchi davlat hokimiyyati yagona markazdan turib barcha iqtisodiy jarayonlarni qat'iy tarzda rejalashtiradi. Bunday rejalashtirish jarayonining amalga oshirilishini ta'minlash, uni osonlashtirish uchun esa barcha ishlab chiqarish vositalari va uning natijalari davlat mulki hukumronligiga bo'yusundiriladi. Yirik tarzda ishlab chiqilgan rejalar iqtisodiyotning turli qismllari – komplekslar, tarmoqlar, sohalar, birlashmalar, korxonalar, bo'linmalar va hattoki alohida ishlab chiqaruvchilarga qadar taqsimlanib, aniq topshiriq holatida yetkaziladi.

Natijada davlat va iqtisodiy subyektlar o'rtaida bir tomonlama aloqa paydo bo'ladi. Ayniqsa, bu bir tomonlamalik ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtaida ham mavjud bo'lib, iqtisodiyotga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gap shundaki, bunday tizimda iste'molchining ehtiyojlari deyarli e'tiborga olinmaydi. Uning ehtiyojlari tarkibidagi o'zgarishlar, taklifning talabga muvofiqligi nazardan qochiriladi. Bu esa iste'mol bozorining ehtiyoj uchun zarur bo'lmagan tovarlar bilan to'ldirilishiga, ba'zi bir ehtiyojlarning esa qondirilmay qolishiga olib keladi. Pirovardida iste'molchining ishlab chiqaruvchiga qaramligi, u tomonidan ishlab chiqarilgan har qanday tovarni sotib olishga majburligi kelib chiqadi. Ishlab chiqaruvchi mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ular tannarxini pasaytirish to'g'risida qayg'urmeydi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti uchun ba'zi bir tovarlarning doimiy ortiqchaligi sharoitida boshqa bir tovarlarga doimiy taqchillik xos bo'ladi. Chunki, bozor muvozanatini ta'minlab turuvchi narx signallari, narx mexanizmi deyarli amal qilmaydi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi, foiz, foyda va yer rentasi resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlovchi rag'bat rolini bajaradi. Buyruqbozlik iqtisodiyotida esa ish haqi ishchilarni faoliyat turlari bo'yicha samarali taqsimlanishiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Chunki, aksariyat hollarda mehnatning sifati va miqdoridan qat'i nazar bir xildagi ish haqi to'lash amaliyoti – tekischilik hukmronlik qiladi.

Xuddi shunday, foiz stavkasi ham investitsiyalarni samarali taqsimlash vositasiga aylana olmaydi. Chunki, imtiyozli kreditlash, norentabel korxonalarning qarzlarini muntazam ravishda kechib yuborilishi sharoitida bunday samaradorlik to'g'risida gap borishi

mumkin emas. Investitsiyalar markazning masifikuraviy va siyosiy ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Resurslarning taqsimoti ma'muriy asosda, samarasiz va xo'jasizlarcha amalga oshiriladi. O'z faoliyatining uzlusizligini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi korxona va birlashmalar resurslarni imkon qadar ehtiyojdan ortiqcha miqdorda zaxirada ushlab turishga harakat qiladilar. Natijada markazga haqiqatan ortiqcha hajmdagi resurslarga talab kelib tushadi. Buni yaxshi anglagan resurs taqsimlovchilar esa imkon qadar bu talablarning ma'lum qismini qondirishga harakat qiladilar. Shu tariqa korxonalar xo'jalik faoliyatining moddiy ta'minotiga putur yetkaziladi: qaysidir xo'jalik resurslarga muhtojlikni boshdan kechirayotgan bir vaqtida boshqa bir xo'jaliklarda ularning muomaladan tashqarida, bekor turib qolishi ro'y beradi. Bu esa, muqarrar ravishda xo'jalik ishlab chiqarish rejalarining barbos bo'lishiga, moliyaviy holatining pasayishiga olib keladi.

Iqtisodiyotning o'zaro bog'liq soha va tarmoqlari bo'yicha belgilangan reja topshiriqlarining qaysidir bo'g'inda bajarilmasligi zanjirli reaksiya orqali boshqa bo'g'lnlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Pirovardida butun iqtisodiy tizim faoliyatidagi o'zaro mutanosiblik, muvozanat izdan chiqadi.

Moliyaviy natijalarning pasayib ketishi korxona rahbariyatini u qadar tashvishga solmaydi. Chunki, barcha korxonalar davlat mulkida bo'lib, ularning korxona ish faoliyatini natijalaridan manfaatdorligi mavjud bo'lmaydi. Ya'ni korxona foyda olsa – davlat ixtiyoriga o'tkazib yuboriladi, aksincha zarar ko'rsa – davlat budgeti hisobidan qoplanadi. Bunday sharoitda korxona rahbarlari ishlab chiqarish rejasini minimal darajada bajarish bilan cheklanishni afzal ko'radilar.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimi xo'jalik yuritish sohasidagi o'zining dastlabki qadamlaridan iqtisodiyotni qat'iy markazlashgan rejali asosda tashkil etish yo'lli bilan amalda yakkahokimlikni qonunlashtirdi. Xususiy mulk umumlashtirilib, yagona «umumxalq», boshqacha aytganda, davlat mulkiga aylantirilishi shuni taqozo etardi. Natijada, monopolizm surunkali hodisaga aylanib, har kuni, har soatda takror ishlab chiqariladigan bo'ldi. Chunki davlat bozordagi real ahvolni o'zida aks ettirmaydigan, oldindan belgilab qo'yiladigan tovar turlari va ularning narxlarini qo'llab-quvvatlardi. Shu yo'lli bilan doimo talabning taklifdan ustunligi, ya'ni taqchillik ta'minlab kelindi. Amalda deyarli barcha korxonalar doimiy monopolistlarga aylanib, bozor va iste'molchiga o'z shartlarini qat'iy o'tkazish imkoniyatiga ega edi.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirish va ixtisoslashtirish, ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ayrim tarmoq va korxonalarning yakkahokimligini yanada kuchaytirdi. Yiriklashuv, markazlashuv va ixtisoslashuv iqtisodiy qonuniyat darajasiga ko'tarildi. Xo'jaliklararo kooperatsiyalash va agrosanoat integratsiyasi negizida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada yiriklashtirish hamda ixtisoslashtirish to'g'risida maxsus qarorlar qabul qilindi. Yiriklashtirish va ixtisoslashtirish iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga, moddiy va nomoddiy sohalarga, hatto ijtimoiy-madaniy jabhalarga ham keng singdirildi. Bu mash'um tajriba shunga olib keldiki, butun manzlakat bo'yicha ko'pchilik sanoat mahsulotlari turlarini bor-yo'g'i bir-ikki korxona yetkazib beradigan bo'ldi. O'tgan asrning 80-yiliari oxiriga kelib, O'zbekistonda 100 nafargacha ishchisi bo'lган sanoat korxonalarining umumiyligi soni to'rt yuzdan oshmagani bunga misoldir. Hamma joyda gigantomaniya vasvaşasi avj oldi. Yagona partiya, yagona mafkura, yagona korxona, yagona tovar va yagona xalq!

Shunday qilib, bir tomondan, monopolizm tanqislikning kelib chiqishi uchun sharoit yaratadi. Ikkinci tomondan, ana shu tanqislikning o'zi monopolizmning keng tomir otishiga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ularning har ikkisi bir-biri bilan o'ta bog'liq hodisalardir.

Monopoliyalar qattiq raqobat asosida paydo bo'lib, raqobat asosida o'sib chiqadi. Shuning uchun ular ilg'or, yuqori samaradorlikka va kam melnat xarajatlariga, zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega bo'lishiga intiladilar. Raqobatdan xoli, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan, sun'iy, yuqorida turib boshqariladigan korxonalar esa, odatda, texnik va iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lsa ham monopolistga aylanishi mumkin. Monopolizm sharoitida iste'molchi ishlab chiqaruvchining oldida hamisha ta'zimda bo'ladi. Chunki, tanqis tovari topganiga shukr qiladi, boriga baraka, deb kun ko'radi. Monopolizm iste'molchini nafaqat mol egasiga iqtisodiy qaram qilib qo'yadi, balki uning muayyan haq-huquqlarini ham buzadi. Monopolizm sharoitida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) qiroq bo'lsa, raqobat sharoitida iste'molchi ana shunday mavqega erishadi.

Monopolizm ham, tanqislik ham jamiyatda mas'uliyatsizlik, iste'molchining talab-ehtiyojlarini mensimaslik muhitini yuzaga keltiradi. Natijada savdo do'konlarini sifatsiz, behad qimmat va kam sonli tovarlar egallaydi. Sanoat reja ko'rsatkichlarini ortig'i bilan bajaradi, iste'molchi esa ishlab chiqarilgan mahsulotlardan qoniqmay qolaveradi. Masalan, 1980–89-yillarda sobiq ittifoqda yalpi ijtimoiy

mahsulot ishlab chiqarish 32 foiz, sanoat mahsuloti - 46 foiz, shu jumladan, xalq iste'moli mahsulotlari 74 foizga oshgan edi. Aholi sonining o'sishi esa bu yillarda 26 foizni tashkil etdi. Ko'rini turibdiki, ishlab chiqarish sur'atlari, aholining o'sish sur'atlaridan ancha yuqori. Ammo aholi turmush darajasida keskin o'zgarish yuz bergani yo'q.

Bundan tashqari, Respublika nafaqat jihozlar, texnologiyalar va juda ko'p turdag'i xomashyo mahsulotlarini, balki birinchi darajali ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari - g'alla, go'sht, shakar, tuz, qandolatchilik mahsulotlari va boshqalarni, shuningdek, yurtimizda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan juda keng doiradagi xalq iste'moli mollarini ham tashqaridan keltirishga majbur bo'lgan. Deyarli barcha tarmoqlarda tugallanmagan siklga ega ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani sababli, ular atayin xomashyoni qazib olish va dastlabki ishlov berish, yarim fabrikatlar tayyorlash bosqichida to'xtab qolar edi.

Qat'iy reja asosiga qurilgan iqtisodiyot rivojlanishga qodir emasligi bugun ko'pchilikka ma'lum. Rejali iqtisodiyotning tanqislik, ishlab chiqarish monopolizmi kabi «surunkali kasalliklar» doimiy hamrohidir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar shuni ko'rsatadi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimida resurslarning o'ta darajada samarasiz, xo'jasizlarcha sarflanishi, yuqori natijali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi dastaklarning mavjud bo'lmasisi bunday tizimning amal qilishiga putur yetkazadi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechish bozor iqtisodiyotiga o'tish orqali amalga oshiriladi.

2-§. Ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish yo'llari

Davlat boshqaruvi faoliyatida xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish asosida samarali deb topilgan davlat menejmenti usullari keng qo'llanilmoqda. Jumladan, bunday usullarning tatbiq etilishi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ikkitä mustaqil davlat boshqaruv organiga - Iqtisodiyot vazirligi va Statistika davlat qo'mitasiga aylantirilishiga, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, «O'zbekneftgaz» xolding kompaniyasi kabi idoralar tashkiliy tuzilmalaridagi muhim o'zgarishlarga olib keldi.

Tumanlar boshqaruvi tarkibini optimallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2003–2004-yillarning o'zida 8 ta ma'muriy tuman hokimligi va ularning quyi tashkilotlari tugatildi. Bu esa davlat budgeti mablag'laridan 0,5 mlrd. so'mni tejash, ularni

mazkur tumanlarning ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga sarflash imkonini berdi.

Ma'lumki, hozirga qadar mamlakatimizda paxta tolasi, yoqilg'i va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, rangli va qora metallar, o'simlik yog'i, g'alla, un, shakar kabi xomashyo va moddiy resurslar davlat tomonidan fond sifatida ajratilar hamda limit tariqasida taqsimlanan edi. 2004-yildan boshlab, bunday taqsimlash tizimiga barham berilib, endilikda xo'jalik yurituvchi subyektlar ularni birja va yarmarka savdosi orqali erkin sotib olish imkoniga ega bo'ldi.

Ma'muriy islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi sifatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining tugatilishi, birlashtirilishi va qisqartirilishi borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Zero, hukumat qarorlariga muvofiq, mamlakatimizda mashinasozlik, agrosanoat majmui, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qurilish, transport va savdo sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini bajarayotgan 20 dan ortiq tuzilmani butunlay qayta tashkil etish yoki tugatish ko'zda tutilmoqda. Shu kunga qadar «O'zpartandasanoat», «O'zoziqvatsanoat», «O'zbaliq», «O'zqishloq-kimyo», «O'zqog'ozsanoat», «O'zmashsanoat» uyushmalari tugatilib, ayni paytda bu tarmoqlarni rivojlantirish strategiyasini belgilash vazifalari mahalliy organlarga berildi. Hududiy darajada ham bir-birini takrorlaydigan va samarasiz tuzilmalarni tugatish bo'yicha shunday ishlar olib borilmoqda. 2003-yil va 2004-yilning boshida hukumat tomonidan respublikaning barcha vazirlik va idoralari tuzilmasi qaytadan ko'rib chiqildi.

Davlat boshqaruvi xodimlarining qisqartirilishi natijasida ularning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etadi yoki mehnatda band aholining 1,6% dan oshmaydi. Bu MDHning boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarni keltirish mumkin: Qozog'istonda – 19,2 va 3,4, Ukrainada – 20 va 4,5, Rossiyada – 22,1 va 3,9.

Jahon tajribasiga nazar solinsa, ba'zi mamlakatlarda mehnatda band bo'lgan aholining umumiy sonida boshqaruvi xodimlari solishtirma salmog'i 2% dan 15%gacha yetadi: AQSHda – 15%, Shvetsiyada – 18%, Buyuk Britaniyada – 14%, Germaniyada – 6,7%, Polshada – 5,8%, Turkiyada – 6,3%, Yaponiyada – 3,2%, Janubiy Koreyada – 2,3%.

Ma'muriy islohotlar hisobotning o'zini oqlamagan, asoslanmagan shakl va turlarini qisqartirish, ma'muriy apparat malakasini oshirish tadbirlarini ham o'z ichiga oladi. Bu esa:

- statistik hisobotlarni yig'ish vazifasini bajaruvchi davlat boshqaruvi xodimlari sonini qisqartirish;
- statistik hisobotning muayyan turlari bo'yicha davriylikni qisqartirish;
- mavjud hisobot tizimini soddalashtirish va bir xillashtirishni ko'zda tutadi.

Ma'muriy islohotlarning muvaffaqiyati davlat va xo'jalik boshqaruvi xodimlarining kasbiy malakasi darajasiga ham bog'liq. Chunki, davlat xizmatchisining bilim va mahorati, o'z ishiga sodiqligi, umum-xalq manfaatini muqaddas bilishi kabi xislatlar jamiyat taraqqiyotining garovi hisoblanadi.

Aynan chuqur bilimli va yuqori mahoratga ega bo'lgan boshqaruv xodimlarini tayyorlash maqsadida respublikamizda davlat va jamiyat qurilish akademiyasi, oliv biznes maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu oliv muassasalarda tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar bugungi kunda jamiyatimizning oldingi saflarida mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Qisqacha xulosalar

1. An'anaviy iqtisodiyot – deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir. U hozirgi davrda ham ko'plab iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlarga amal qiladi. Ularda natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi.

2. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy aniqrog'i davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

3. Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim bozor iqtisodiyoti tizimidir. Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo'lib, ba'zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamondagi rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi.

4. Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini mujassamlashtiradi. Mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkorlikning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi, unda rejalashtirish, prognozlash, aholini sotsial himoyalash kuchayadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy tizimlar – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar o'rtafiga iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti – markazlashgan holda reja va ko'rsatmalar vositasida ijtimoiy xo'jalik yuritishga asoslangan iqtisodiyot.

Boshqariladigan bozor iqtisodiyoti – davlat tomonidan zarur hollarda tartibga solib turiladigan iqtisodiyot.

Ma'muriy-buyruqbozlik usullari – ma'muriy-buyruqbozlik tizimining amal qilishida qo'llaniluvchi asosiy dastak va vositalar.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

2. Nima uchun ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti negizida bozor munosabatlari belgilarini shakllantirish mumkin emas?

3. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari qanday?

4. Iqtisodiy tizimlar nima va ularning qanday modellari mavjud?

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ma'muriy islohotlarning roli qanday?

6. Ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etishning qanday yo'llarini bilasiz?

7. Bugungi kunda mamlakatimizda ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining asoratlari yaqqol sezilayotgan qanday tarmoq va sohalarni, iqtisodiy faoliyat va jarayonlarni bilasiz?

8. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonlarining samarasini oshirish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llash lozim deb o'ylaysiz?

V bob. BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISHNING O'ZBEK MODELI, KONSEPSIYA VA STRATEGIYA

Bozor munosabatlariiga o'tish keng qamrovli va murakkab jarayon bo'lib, bunda har bir mamlakatning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, milliy va tarixiy an'analari, xalqning mentaliteti va boshqa jihatlar hisobga olinishi lozim. Bu esa har bir alohida mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariiga o'tish konsepsiyasi va strategiyasining ishlab chiqilishini taqozo etadi. Mazkur konsepsiya va strategiya tarkibidan o'ren olgan o'tish jarayonlarining maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalish va bosqichlari hamda tamoyillarining majmui o'tishning milliy modelini tashkil etadi. Mazkur bob doirasida bozor munosabatlariiga o'tishning o'zbek modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1-§. Islahotlar strategiyasi va konsepsiyasini tanlash. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining mazmuni

XX asrning so'nggi o'n yilligida jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davning o'ziga xos belgilari, bir tomondan, davlatlar va xalqlar o'rtaida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikning kuchayishi, yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugafilishi, unitar tizimlar o'mida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, 80 va 90-yillarning boshlarida dunyoda sodir bo'lgan olamshumul o'zgarishlar hozirgi zamон iqtisodiy tafakkuriga hamda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi qarashlarga jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Erkin iqtisodiy tartibga solish g'oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish g'oyasi ham inqirozga uchradi. Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingen.

Sobiq ittifoq maydonida barpo etilgan sotsialistik tuzumning o'z vaqtida anglab yetilmagan nuqson va illatlari bugungi kunda aniq namoyon bo'ldi. Endilikda bu tuzum proletariat (ishchilar sinfi) hukmron sinf, kommunistik partiya esa yo'naltiruvchi kuch hisoblangan

«daviat sotsializmi», «davlat mulki monopoliyasi», «totalitar tuzum», «ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi va markazlashtirilgan tarzda rejalashtirishga asoslangan tizim» kabi qator nomlar bilan atalmoqda.

Sotsializm negizida bozor iqtisodiyoti qurib bo'lmaydi, chunki u faqat mulk shakllarining xilma-xilligi, avvalo, xususiy mulk sharoitidagina amal qilishi va rivojlanishi mumkin. Eng muhimmi, iqtisodiyotni ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan rivojlantirish mumkin emas.

Sobiq sotsialistik va boshqa mamlakatlar voqeligi keltirib chiqargan yangi hodisalar, munosabatlar va jarayonlar endilikda an'anaviy tushunchalarga mos kelmayapti. Mulkchilik, ishlab chiqarishi munosabatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari, boshqarishning bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi va ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatni kabi boshqa tushunchalar umuman yangi mazmun kasb etmoqda.

Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va modelini tanlab olish juda katta ahamiyatga molik.

Totalitar tizim vayron bo'layotgan davrda sobiq ittifoqdosh respublikalar o'mida tuzilgani mustaqil davlatlarda iqtisodiy qurilish va demokratik o'zgartirishlarga mutlaqo yangicha yondashuvlar va nuqtayi nazarlarni asoslab berish muhim ahamiyatga ega. Bu davlatlar o'zini mustaqil deb e'lon qilgani har bir suveren respublika o'z manfaatlariga mos keladigan mustaqil ichki va tashqi siyosatni o'tkazish niyatida ekanini bildiradi.

Hozir har bir respublikada iqtisodiyotni barqarorlashtirish va isloh qilish muammolari yechimi zo'r berib izlanmoqda, o'z dasturiy yondashuvlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar bozor iqtisodiyotini barpo etishga qaratilgani holda, islohotni amalga oshirish usuli, bosqichlari va muddati bilan bir-biridan tubdan farq qiladi.

«Shu sababli, bizning qat'iy nuqtayi nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingen jamiki foydali tajribalarini rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir... Bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashilar»siz, ya'ni evolutsion yo'l bilan, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak»¹.

O'zbekistonni huquqiy demokratik davlat sifatida qaror toptirishning dasturiy qoidalari, respublikaning bozor munosabatlariga o'tish,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'l. T.I. – T.1: «O'zbekiston», 1996, 172-174-b.

ichki va tashqi siyosatni shakllantirish prinsiplari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvorliklari va yo'nalishlari Prezident Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasida bayon qilib berilgan, keyingi nashr va nutqlarda rivojlantirilgan hamda ularga aniqlik kiritilgan.

Chuqur o'zgarishlar O'zbekiston xalqining hayotiga shiddat bilan kirib bormoqda. O'zbekiston chinakam mustaqillikka erishish maqsadini birinchilar qatori bildirganligini jonajon o'lcamiz uchun faxr-iftixon tuyg'usi bilan qayd etib o'tish kerak. Sobiq ittifoqdagi respublikalardan birinchi bo'lib prezidentlik boshqaruvini analda joriy etgan ham, keng miyosdagi islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangilash yo'liga o'tib olgan ham bizning respublika bo'ldi.

Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish strategiyasi belgilandi. Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida: «Biz hozir uzoq yo'Ining boshida turibmiz. Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak», - deb ta'kidlagan edi. Oradan uch yil o'tgach, Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida» kitobida iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlar va konsepsiyalarni, ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish strategiyasini ta'riflab berdi.¹

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, butun isloh qilish jarayonining boshlang'ich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Strategiya va uning pirovard maqsadini belgilar ekan, Prezident: «Bunda biz markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini qayta-qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari bilan almashinuvidir»², - deb eslatib o'tdi. Ayni vaqtida, u:

¹ Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 165-b.

² O'sha yerda.

«Biz tanlab olgan yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir. Bu yo'l jahon tajribasini, shuningdek, xalqimizning turmush sharoitini, an'analarini, urf-odatlarini, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga asoslangandir», - deb ta'kidlaydi.

«O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida I.Karimov mustaqil, sifat jihatidan yangi ijtimoiy-iqtisodiy model sifatidagi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining mazmu-nini shunday tushuntiradi: «Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti markazlashtirilgan rejali bozordangina emas, balki erkin bozordan ham farq qiladi. U mustaqil iqtisodiy andozadan iborat bo'ladi. Uning erkin bozordan muhim farqi shundan iboratki, u iqtisodiy va ijtimoiy asoslarning sintezi hisoblanadi. Bu shuni bildiradiki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti to'la-to'kis ham bozor iqtisodiyoti, ham ijtimoiy iqtisodiyot hisoblanadi, iqtisodiy rivojlanish samaradorligini ijtimoiy kafolatlar va ijtimoiy adolat bilan bog'lash maqsadini ko'zlaydi»¹.

Shunisi diqqatga sazovorki, I.Karimov «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti» va «aralash iqtisodiyot» tushunchalarining birligini ham asoslab berdi. U shunday deb yozadi: «Aralash iqtisodiyotning mohiyati jamiyat iqtisodiy hayotini qurish va tartibga solishning xususiy va umum davlat manfaatlaridan iborat ikkita har xil prinsiplarining - erkin bozor va raqobat bilan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ayni bir vaqtida mavjud bo'lishidan va ularning o'zaro ta'siridan iboratdir. Xuddi shu uyg'unlik hozirgi zamon iqtisodiyotining yuragi, deb hisoblash mumkin»².

O'z tadqiqotini davom ettirib, Prezident ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot bu aralash iqtisodiyot ekanligini asoslaydi. Agar bozor – ishlab chiqarishni odamlarning o'sib boruvchi va muttasil o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga eng yuqori darajada yo'naltirishni ta'minlovchi mexanizm bo'lsa, davlat barqarorlikning himoyalanganlikning va ijtimoiy adolatning ijtimoiy kafolati hisoblanadi. Bu davlatning global funksiyalaridir. Shunday qilib, ijtimoiy yo'naltirilgan aralash iqtisodiyotda ikki mexanizm: bozor mexanizmi va davlat mexanizmi (tartibga soluvchi mexanizm) amal qiladi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li T.1. – T.: «O'zbekiston», 1996.

² O'sha yerda, 292-b.

2-§. Umumiy strategiya doirasida aniq strategik maqsadlar. Isloh qilishning yangi bosqichida bosh strategik maqsadning saqlab qolinishi

Prezident Islom Karimov o‘zining «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» nomli kitobida umumiy strategiya doirasida iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi muayyan strategik maqsadlarni belgilab berdi. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish.
2. Ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish.
3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag‘batlantirish vositalaridan keng foydalanish.
4. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘silib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

Prezident I.Karimov ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» nomli ma’ruzasida davlat va jamiyat qurilishi borasidagi bosh maqsad va vazifalarni, jamiyatimizni yangilash va isloh etishning birinchi darajali va hayotiy muhim vazifalarini belgilab berdi. «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat’iy va o‘zgarmas bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat», - deb ta’kidladi. Asosiy strategik maqsad va vazifaning saqlanib qolganligi sababini u shunday tushuntirdi: «Bu – lo‘nda qilib aytganda, rivojlangan davlatlarning tajriba va taraqqiyot modellaridan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmagan holda, ularga xos yuksak hayot darajasi va sifatiga erishish. Mamlakatimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir insонning barcha huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush tarzi ta’minlanadigan demokratik rivojlanish yo‘lini izchil davom ettirish demakdir»¹.

¹ Karimov I.A. Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruza. T.8. – T.: «O‘zbekiston», 2000, 323-b.

Bu ulug'vor maqsadlarga erishish uchun jamiyatimizni yangilash va isloh etishning hozirgi yangi bosqichida quyidagi vazifalar davlat, ijtimoiy tuzilmalar va mahalliy hokimlik idoralarining diqqat markazida turmog'i, parlamentimiz qonunchilik faoliyatining asosini tashkil etmog'i lozim:

I. Siyosiy sohada:

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish, uning izchilligi va samarasini ta'minlash zarur. Bu boradagi bosh vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faoliyigini kuchaytirish va insонning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish. Odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishi, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlari, qarama-qarshi kuchlari va harakatlari o'rtaсидagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish.

2. Mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishiga erishish. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlama га tayangan holda, ana shu toifa manfaatlарining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partianing maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik – bu har xil qarash va g'oyalar o'rtaсидagi bahsmunozara, turli partiylar, jumladan, muxolif partiylar uchun ham siyosiy raqobat maydoni.

3. Nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'limgan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

4. Jamiyatimizda ommaviy axborot vositalarining haqiqiy «to'rtinchи hokimiyat»ga aylanishini ta'minlash.

5. Inson huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish. O'z hiaq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlari mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor.

II. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:

1. Hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsion prinsipiga amal qilinishini ta'minlash.

2. Ma'muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuchaytirish.

3. Kadrlar tanlashning obyektiv tarzda ishlaydigan tizimini shakllantirish.

III. Iqtisodiyot sohasida:

1. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish.

2. Xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma'nodagi mulkdorlar sinfining ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

3. Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shartsharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish. Xorij sarmoyasining iqtisodiyotimizdagи tarkibiy o'zgarishlarda, ishlab chiqarishni texnikaviy qayta jihozlash va modernizatsiya jarayonini jadallashtirishda faol ishtirot etishiga erishmog'imiz zarur.

4. Kichik va o'rta biznesni ustuvor tarzda rivojlantirish. Biz kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, ayni vaqtda uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylanishiga erishmog'imiz lozim.

5. Iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish yetakchi o'rinda turishi zarur. Bu jarayonda mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga asosiy e'tibor qaratilishi kerak.

IV. Ma'naviyat sohasida:

1. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish. Milliy, ma'naviy qadriyatlar va hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlarining uyg'unligidan kelib chiqib milliy mafkurani boyitish.

2. Mamlakatimizdagи har bir fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qila olishini jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning negiziga aylantirish.

3. Islom dinini imon, axloq, diyonat, ma'rifat manbai sifatida qadrlab, undan g'arazli siyosiy maqsadlarda foydalananishni istaydigan kuchlardan himoyalash.

4. Oila, onalar va ayollarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini yanada oshirish.

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish.

6. O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odat va an'analarini rivojlantirishga ko'maklashish, ularga yaratib berilgan imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytirish.

7. Keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdek noyob insoniy qadriyatni yangi mazmun va amaliy ishlarni bilan boyitish.

V. Sud-huquq sohasida:

1. Huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilinishi lozim bo'lgan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni aniqlash.

2. Qonun va me'yoriy hujjatlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlovchi tizim yaratish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish.

3. Sudning to'laqonli mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mustaqilligini ta'minlash uchun sud tizimini isloh qilish.

4. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini keng ko'lamda amalga oshirishga alohida e'tibor berish.

VI. Tashqi siyosat sohasida:

1. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash.

2. Yaqin qo'shni mamlakatlar, xususan, Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash.

3. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash.

VII. Xavfsizlikni ta'minlash sohasida:

1. Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi – mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrashdir.

2. Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash, ularning bu yo'ldagi sa'y-harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish. Armiya, chegara va ichki qo'shinalrimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish.

3. Terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz barpo etishga oid O'zbekiston tashabbusini amalga oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish.

4. Huquq-tartibot organlari tizimini istoh etish va ularning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash.

5. Jinoyatchilikka, ekstremizm va jaholatning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashda, umumiyl xonadonimizdag'i tinchlik va osoyishtalikni asrash yo'lida aholi faolligini oshirish lozim.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo'lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo tanglik holatlariga barham berishga qaratiladi. Tanglik ho'lati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish, chiqarilayotgan tovar va (xizmatlar)ning sifati va turini o'zgartirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rishga undaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste'mol xossalarni yaxshilashga, uning raqobatga bardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada bozorda talab va taklif o'rtasida qulay muvozanatni ta'minlashga olib keladi. Kengroq ma'noda barqarorlashtirish eng avvalo makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, u pul qadrsizlanishining oldini olish, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

Jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondashuvlar tarkib topgan. Bulardan birinchisi monetar yondashuv deb ataladi. U pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuvning kamchiligi shuki, u ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga va investitsiya faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladi.

Ikkinchisi – ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlanirishga, tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan yondashuv. Bunda bir me'yordagi qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati tovar bilan qoplashning iloji bo'lgan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Respublikada transformatsiyalashuv davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondashuvga ustunlik beriladi. Bu ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga erishish uchun ustunlikka,

istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirish, eng muhim bo'g'lnarni aniqlash (neft, energetika, don, paxtani qayta ishlash sanoati va h.k.) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan yondashuvdir. Boshqalardan ustun hisoblangan yetakchi tarmoqlar belgilab olinishi bilan birga, ularning ichki tuzilishini qayta o'zgartirish ham hisobga olinadi.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda, muvozanatga keltirilgan monetar siyosat asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borilishi zarur.

Ana shu yondashuvlar negizida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;
- boshqalardan ustun bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;
- davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
- pulning qadrsizlanishini to'xtatish;
- to'lov balansi va davlat valuta rezervlarining holatini yaxshilash;
- muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Budget intizomiga rioya qilish va uning kamomadini cheklash barqarorlashtirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Bunda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda kredit-bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valuta munosabatlarini tartibga solish ham alohida o'rincutadi.

Bozor munosabatlariiga o'tish davrida milliy valutani mustahkamlash umummiliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli milliy valutaning barqarorligi, uning ichki bozorda erkin almashinuvini ta'minlash uchun respublikada bir qator dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Birinchidan, milliy valutaning tovar (xizmat) lar bilan barqaror ta'minlanishiga erishish. Bunda bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish va ularning umumiyligi hajmida respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar hissasini oshirib borish hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi.

Ikkinchidan, yetarli barqaror valuta zaxiralariga ega bo'lish. Bunga respublika eksport imkoniyatini kengaytirish, korxonalarini eksport

uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirish va ularning jahon bozoridagi mavqeini oshirish orqali erishiladi.

Uchinchidan, ishlab topilgan har bir so‘mni qadrlash va xalq xo‘jaligiga sarflangan har bir so‘mming foyda bilan qaytishiga erishish. Buning uchun qat’iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan o‘tkazish zarur.

To‘rtinchidan, pul qadrsizlanishiga, inflatsiyaga qarshi puxta o‘ylangan siyosat o‘tkazish. Bunda ichki bozorni mollar bilan to‘ldirish, naqd pul va kredit emissiyasining o‘sishiga, aholi qo‘lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik bиринчи darajali ahamiyatga ega.

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o‘tishida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish vazifasi butunlay yangi xalq xo‘jalik kompleksini buniyod etishga qaratiladi. Bu esa iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini, ishlab chiqarilayotan mahsulot, eksport va import tarkibini qayta qurish, shuningdek, eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solishni talab qiladi.

Respublikada bozor munosabatlariiga o‘tish jarayonida: «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlanтирish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridir»¹.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish asosiy strategik vazifaga aylandi. Bu boroda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi ustuvor vazifalar mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatingning qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida belgilab berildi:

- birinchidan, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish;
- ikkinchidan, xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko‘payishini ta’minlash;
- uchinchidan, kichik biznes va fermerlikni rivojlanтирish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko‘lamini kengaytirish;
- to‘rtinchidan, bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish;

¹ Milliy istiqbol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ma‘ruza matnlari uchun materiallar. – T.: «Yangi asr avlod», 2001. 9-b.

- beshinchidan, uy-joy kommunal xo‘jaligini isloh qilish;
- oltinchidan, soliq siyosatini yanada takomillashtirish.¹

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariiga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma’naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

3-§. O‘zbekistonda bozor munosabatlariiga o‘tishning maxsus konsepsiysi va asosiy tamoyillari

Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadi bir xil bo‘lsada, o‘tish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin. Oldingi boblardan ma’lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tishda ikki yo‘l, ya’ni revolutsion va evolutsion yo‘llar mavjud. O‘zbekiston bozor munosabatlariiga o‘tishning evolutsion, bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi yo‘lini tanladi. Bu yo‘l mamlakatimizning o‘ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo‘ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolutsion to‘ntarishlarsiz, ijtimoiy to‘qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat’iyatlichkeit bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tishdan iboratdir.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov «Bizning bozor munosabatlariiga o‘tish modelimiz Respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an‘analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o‘tishdagi iqtisodiyotni bирyoqlama, beso‘naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»,² - deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, «O‘zbekiston – bozor munosabatlariiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» kitobida mamlakatimiz rahbari jamiyatning sifat jihatidan yangi holatiga o‘tishning o‘z konsepsiyasini ta’riflab berdi.

Ushbu konsepsiya o‘tishning besh asosiy tamoyilini o‘z ichiga oladi. Ularning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni maskuradan xoli etishni ta’minlash zarur.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O‘zbekiston», 2005, 76-88-b.

² Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O‘zbekiston», 1998, 101-102-b.

Ikkinchidan, davlat asosiy islohotchi bo'lishi kerak, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastilar va konservatorlarning qarshiligini yengishi lozim.

Uchinchi qoida – qonunning ustunligi. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul etilgan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishga va ularga rioya etishga majburdirlar.

To'rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarni joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'riliishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lida eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini e'tiborga olib, o'tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»ga yo'l qo'ymay, ya'ni evolutsion yo'l bilan, puxta o'ylab va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak¹.

Bu tamoyillar o'z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarni joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bozor munosabatlariiga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

– totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lli. T.I. – T.: «O'zbekiston», 1996, 286-287-b.

- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarning negizlarini shakllantirish.¹

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloq qilishning muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va bajarildi.

Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

Ikkinchidan, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tkazish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonunlat qabul qilindi.

Birinchi bosqichda kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun zarur bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

Qishloq xo'jaligida agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimi shakllandi va iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'Imagan qismi keng rivojlandi.

Xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va mavjud sharoitdarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy qirralari shakllantirildi, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshladi, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi.

Respublikada bozor munosabatlariiga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloq qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinci bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarni to'liq joriy qilish maqsad qilib

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: «O'zbekiston», 1995, 19-b.

qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov asarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar ajratib ko'rsatiladi.¹

Birinchi vazifa – davlat mulklarini xususiy lashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish. Bunda davlat mulkini xususiy lashtirish, tadbirdorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'limgan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

Ikkinci vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning, umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

Uchinchi vazifa – milliy valuta-so'mni yana ham mustahkamlashdan iborat.

Bu esa so'mning konvertatsiyasi, qat'iy valutalarga erkin sur'atda almashtirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarни qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarning chetga mol chiqarishini kengaytirish hisobiga valuta zaxiralarini mustahkamlash yo'li bilan erishiladi.

To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Bunda tarkibiy o'zgarishlarda Respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni, jumladan yoqilg'i, energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettiriladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariiga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinci bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiladi, xususiy lashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqeいi tugatiladi. Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohadä qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demok-

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998, 332-333-b.

ratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»¹. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

- xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;

- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalg etish uchun qulay huquqiy shartsharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

- kichik va o'rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin olishiga erishish;

- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash;

- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchit davom ettirish.²

Qisqacha xulosalar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiyligi mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

2. Transformatsiyalashuv davri quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: sikllilik (jamiyatda u yoki bu tarkibiy o'zgarishlarni qaytarilib turishligi), beqarorlik (turli xil jamiyat kuchlarining kurashi va o'zaro ta'siri), muqobililik (islohotlar va rivojlanish yo'llarining tanlash imkoniyati), tarixiylik (eski tizimning yo'qolib ketishi, o'rniga boshqa tizimning vujudga kelishi, uning rivojlanishi).

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faroven hayot pirovard maqsadimiz. – T.: «O'zbekiston», 2000, 15-b.

² Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 199-202-b.

3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlagan yo'li – o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'lagini jahon tajribasini hisobga olgan holda revolutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

4. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Iqtisodiy uklad – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – nima va qancha ishlab chiqarishni qayerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilashi lozim. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Islohotlar konsepsiysi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasidir.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega?

2. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring.

4. Bozor munosabatlariga o'tish har bir bosqichining maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling.
5. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi?
6. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir yo'nalishi bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalariningizni bildiring.
7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz?
8. Turli yo'nalishdagi davlat dasturlarining o'zaro bir-birlari bilan qanday bog'langanligini tahlil qiling.
9. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring.
10. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarini qo'yadi?

VI bob. KO'P UKLADLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH. YANGI MULKCHILIK SHAKLLARINING PAYDO BO'LISHI

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iqtisodiy asosini mulkchilik munosabatlari tashkil etadi. Aynan shu munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bu boradagi muammolarning o'z vaqtida hal etilishi iqtisodiy manfaatlarning samarali amalga oshishiga va pirovardida, iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarning yaratilishiga olib keladi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotining muhim belgisi – unga ko'p ukladli iqtisodiyotning mos kelishdir. Chunki, iqtisodiyotda turlituman ukladlarning mavjud bo'lishi xo'jalik yuritishdagi barcha imkoniyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishga zamin yaratadi. Biroq, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida turli mulk shakllariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni tarkib toptirish o'ziga xos muammolarga duch keladi. Mazkur muammolarning mazmuni va ularni hal etish yo'llarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-§. Ko'p ukladli iqtisodiyot va uning tarkibi

Prezidentimiz I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomi asarida shunday deb yozadi: «Strategik jihatdan olganda, biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga beriladi»¹.

Mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarning tamal toshini tashkil etadi. Zero, mulkchilik munosabatlari har qanday iqtisodiy tizimning negizi hisoblanadi. Sobiq ittifoqning boshqa respublikalari qatori O'zbekistonda ham 70 yil davomida shakllangan mulkchilik munosabatlari xo'jalikning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi negizini tashkil etar edi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilik shakllarining, ko'p ukladli aralash iqtisodiyot tuzilmalarining xilma-xilligiga asoslanadi. Bu raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch ekaniigi, u ko'p sonli bozor subyektlarini talab qilishi bilan izohlanadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 156-b.

Bozor subyektlari har xil mulkchilik shakllariga asosan faoliyat olib boradi. Ularning mavjudligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganligi va ishlab chiqarishning ijtimoiylashuv darajasi bilan belgilanadi. Bozorning o‘zi uchun iqtisodiyotda qanday mulkchilik shakllari amal qilishining ahamiyati yo‘q. Ammo mazkur mulkchilik shakllarining o‘z xo‘jalik faoliyatida qay darajada erkin amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish strategiyasini amalga oshirish uchun bir qancha qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi qonunida mamlakatimizda mulkchilikning quyidagi shakllari amal qilishi belgilab o‘tilgan:

1. Xususiy mulk. U o‘z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidан iborat.

2. Shirkat (jamoa) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek kooperativlarning, ijara, jamoa korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o‘z ichiga oladi.

3. O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkiga ma’muriy-hududiy tuzilmalarning mulki (kommunal mulk) kiradi.

4. Mulkning aralash shakllari.

5. Qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari, tashkilotlari, davlatlarining, shu jumladan chet el yuridik shaxslarining mulki.¹

O‘zbekistonda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqli ekanligi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan.

Ko‘p ukladli jamiyatning iqtisodiy tuzilmasida mazkur ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iqtisodiy negizini tashkil etuvchi hukmron uklad ajralib turadi. Ushbu tizim doirasidagi qolgan barcha ukladlar hukmron ukladga bo‘ysunuvchi xo‘jalik shakllari sifatida amal qiladi.

Kapitalizmdan sotsializmga o‘tish iqtisodiyotida, masalan, sobiq ittifoqda beshta ijtimoiy-iqtisodiy uklad mavjud bo‘lgan: 1) sotsialistik, 2) davlat-kapitalistik, 3) xususiy-kapitalistik, 4) mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan, 5) patriarchal. Sotsialistik uklad mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilashda yetakchi rol o‘ynagan.

O‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar, MDHning boshqa respublikalari qatori, O‘zbekiston Respublikasida ham mulkchilikning

¹Qarang: O‘zbekistoning yengi qonunlari: Mulkchilik to‘g‘risidagi qonun. 1-son. – T.: «Adofat», 1991.

asosiy ikkita shakli: umumxalq (davlat) mulki va kolxozi-kooperativ mulki mavjud edi. Yuqorida sanab o'tilgan mulkchilikning qolgan shakllari yangi mulkchilik shakllari hisoblanadi.

2-§. Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish yo'llari

Bozor munosabatlarning asosi bo'lib hisoblangan ko'p ukladli iqtisodiyot mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiy lashtirish orqali shakllantiriladi.

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalari va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlariga, davlat mulkiga kirmaydigan boshqa korxona va tashkilotlarga aylantirish.

Xususiy lashtirish – jismoniy shaxslar, nodavlat yuridik shaxslarning davlatdan obyektlar, davlat aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini sotib olishi.¹

Xususiy lashtirish raqobat muhitini vujudga keltiradi. Raqobat muhitining shakllanishida xususiy lashtirish har xil shakllarda, avvalo, davlat mulkining monopoliyasiga barham berish, shunga o'xshash faoliyat turi bilan shug'ullanadigan yoki turdosh mahsulot ishlab chiqaradigan, xizmatlar ko'rsatadigan, ammo mulkchilikning har xil shakllari – jamoa mulki, xususiy mulk va h.k.ga asoslangan ko'plab korxonalar tashkil etish orqali ishtirot etadi.

Xususiy lashtirish iqtisodiyotning nodavlat sektori shakllanishining yagona yo'lli emas. Ikkinci kuchli oqim – yangi kichik yoki o'rta korxonalar yaratishdir, ular individual xususiy mulkchilikka turli kooperativlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishida shakllanishi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda ularning ulushi yalpi milliy mahsulotning yarmidan ko'prog'iga to'g'ri keladi.

Prezident Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli risolasida davlat mulkining ahamiyatini ham qayd etib o'tadi. «Tabiiyki, iqtisodiyotning davlat korxonalari saqlanib qolishi lozim bo'lgan sohalariga ham e'tibor berilishi lozim. Fransiya, Yaponiya, Italiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi davlat sektori bozor iqtisodiyoti sharoitida ham sezilarli rol o'ynashda davom etishini ko'rsatadi. Davlat sektori hech qanday rol o'yinmaydigan mamlakatni topish qiyin».²

¹ O'zbekistorning yangi qonuniari. 5-soni. – T.: «Adolat», 1993, 153-b.

² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 292-293-b.

O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunida mulkchilikning yangi shakllari bilan bir qatorda, davlat mulkini tasarruf etish shakllari ham belgilab qo'yilgan. Masalan, davlat mulki bo'lgan va davlat korxonasiiga biriktirib qo'yilgan mol-mulk to'la xo'jalik yuritish huquqi asosida unga tegishlidir. Korxona o'z mol-mulki bilan to'la xo'jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi, unga nisbatan o'z xohishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi. To'la xo'jalik yuritish huquqiga nisbatan mulkchilik huquqi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.¹

I. Karimov to'la xo'jalik yurituvidan korxonaning maqomi va huquqlari unga bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashishga imkoniyat tug'dirishi lozimligini qayd etadi. Davlat korxonalarini iqtisodiy jihatdan mumkin qadar erkin bo'lishlari, ularning faoliyati tijorat qonun-qoidalariga asoslangan bo'lishi lozim. Mulkchilik shakliga ko'ra davlat korxonasi bo'lgani holda, ular xo'jalik yuritish mexanizmi, daromadni taqsimlash va moddiy rag'batiylarish shartlariga ko'ra nodavlat korxonalaridan deyarli farq qilmasliklari kerak². Fikrini davom ettirib, Prezident yangi uklad va o'rta mulkdorlar tabaqasining shakllanishini nazariy jihatdan asosladи va amalda ko'rsatib berdi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda o'rta mulkdorlar tabaqasi qanday rol o'ynaydi, degan savolga aniq javob beriladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining siyosiy negizini quyidagilar tashkil etadi: birinchidan, ishlab chiqarish vositalari kuchli mulkdorlarining mavjudligi; ikkinchidan, aynan o'rta mulkdorlar tabaqasi fuqarolik jamiyati shakllanishining tayanchi hisoblanadi; uchinchidan, aholi o'tasida mulkdorlarning o'rta tabaqasi shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqaga qaytmasligining kasolati bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, «strategik jihatdan olganda, biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga beriladi. Kichik biznes – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sifining paydo

¹ O'zbekistonning yangi qonunları: Mulkchilik to'g'risidagi qonun. 1-son. – T.: «Adolat», 1991.

² Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuquqlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 293-b.

bo'lishi demakdir»¹. Muhimi – kichik va o'rta korxonalar iqtisodiyotning hamma sohalarida tashkil etilmoqda.

O'z navbatida ta'kidlash lozimki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiy lashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha hisoblanadi. Xususiy lashtirish – davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi bo'lsa, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiy lashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U quyidagi bir qator yo'llar bilan amalgalash oshiriladi:

- davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
- davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish;
- mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish;
- mulkni ayrim tadbirdor va ish boshqaruvchilarga sotish;
- ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish;
- davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.

Xususiy lashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin: 1) davlat mulkini bepul bo'lib berish orqali xususiy lashtirish; 2) davlat mulkini sotish orqali xususiy lashtirish; 3) davlat mulkini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiy lashtirish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning ko'rsatib o'tilgan yo'llari va usullaridan qaysi birini tanlash undan kutilgan maqsadga bog'liq. Masalan, Rossiyada davlat mulkini vaucher orqali bepul taqsimlash usuli qo'llanildi. Bundan ommaviy xususiy lashtirishdan ko'zlangan maqsad qisqa muddat ichida cheklar bozorini joriy etish hisobiga mulkdorlarning g'oyat keng qatlamini vujudga keltirishdan iborat edi. Agar tadbirdorlikni rag'batlantirish ko'zda tutilsa, xususiy lashtirish tanlab olingen ozchilik o'rtasida o'tkaziladi. Agar xususiy lashtirish chetdan kapitalning kirib kelishiga, yo'l ochishi zarur bo'lsa, davlat mulkini xorijiy tadbirdorlarga berish shaklida amalgalash oshiriladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ayrim usullarga ustuvorlik berish boshqa usullarni qo'llashni rad etmaydi, aksincha, ularni ham qo'llash zarurligini bildiradi. Masalan, korxona jamoasiga ustunlik berilib, davlat mulkini aksiyalashtirish, bu

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida. xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafotllari. T. 6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 156-b.

aksiyalarni sotib olishda shu jamoadan tashqari kishilar va chet el kapitalining ishtirok etishi ham bo'lishi mumkin. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish sharoitga qarab pulli, pulsiz yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan qat'i nazar, bu tadbir xilma-xil mulkchilikni vujudga keltirishni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining barcha shakllari va turlari rivojlanadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish mulkchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan davlatning monopol hukmronligiga chek qo'yib, jamiyatda faoliyk ko'rsatayotgan erkin tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishdan iborat. Aslida xususiy lashtirish iqtisodiyotning davlatlashtirishdan qaytish yo'llaridandir. Xususiy lashtirish davlat mulkini ma'lum darajada haqiqiy egalari – fuqarolarga berish demakdir. Ko'pincha xususiy lashtirish – bu davlat mulkini ishlovchilarga berish, deb talqin qilinadi. Aslida mamlakatning barcha aholisiga davlat mulkini bo'lib berib bo'lmaydi, bunda aholining hammasi mulkka ega bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish ishlab chiqarish hamda mahsulotni ayirboshlash kabi mashaqqatli ishlarni o'z zimmasiga olavermaydi.

Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish jarayonida, avvalambor, xususiy lashtirish yo'li bilan yaxshi iqtisodiy natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasidan to'laroq foydalanish va ular yo'li qo'yan xatolar takrorlanmasligi kerakki, bu bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Xususiy lashtirishni amalga oshirish uchun davlat mulkini xususiy lashtirishning keng ko'lami dasturini ishlab chiqarish zarur.

Huquqiy jihatdan xususiy lashtirilgan barcha korxonalarga erkin iqtisodiy xo'jalik yuritish huquqi berilishi va davlat sektori bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Davlat sektoriga nisbatan bu korxonalarga soliqlarni birmuncha kamaytirish va ayrimlarini ma'lum muddatga soliqdan ozod qilish zarur.

Xususiy lashtirish natijasida aholi orasida ijtimoiy jihatdan tabaqlanish yuz beradi va kishilarning bajargan ishiga qarab oladigan haqi turlicha bo'lib, aholining daromadlarida ham tabaqlanish yuz beradi. Kishilar turli sohalarda, masalan, biznesda turli shaklliardagi mulkka ega bo'lib, aksiya sotib olish va korxona mulkida o'z hissalarini oshirib borishga harakat qiladilar.

Xususiy lashtirish orqali korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ma'lum jamoa va shaxslarga sotilgandan keyin faoliyatlarini bozorning

shafqatsiz raqobat qonunlari asosida tashkil etadi. Bozor korxonalarining yashovchanligini va ularni doimo raqobat kurashida o‘z manfaatlarini himoya qilishga majbur etadi. Mabodo korxona raqobat kurashiga dosh berolmay sinsa, oldingi davrdagidek davlat budgetidan mablag‘ hisobiga uni saqlab qolish hollariga xususiy lashtirish orqali barham beriladi.

Xususiy lashtirish mulkning bir shaklidan ikkinchi shakliga o‘tishni aks ettirmasligi kerak, balki xususiy lashtirish oldiga qo‘yilgan vazifa katta bo‘lib, ya‘ni xususiy lashtirish orqali avvalo barcha sohani o‘z qaramog‘ida turli uslublar orqali birlashtirib turgan davlat hukmronligini iqtisod-dan ajratish uchun bir qancha tadbirdarni ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Davlat korxonalarini xususiy lashtirish bu mulkchilikning rivojlanishiga, uning yangi bosqichiga o‘tishiga bo‘lgan talabidan kelib chiqadigan bir jarayondir. Xususiy lashtirishning rivojlanishini ta’minlaydigan muhim omillardan biri – bu ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlarning tashabbusi, ularning ishlab chiqarishdagi faolligi hamda ishbilarmonligidir. Davlat mulkini xususiy lashtirish natijasida hokimiyat va ishlab chiqarish sohalariga yangi ishbilarmonlar, aholining faol qismi jalb etiladi va mulkiy munosabatlarni rivojlantirishdan hamda mulk shakllarini takomillashtirishdan aholining shu qismi manfaatdorgina bo‘lib qolmay, balki o‘rtta va quyi ijtimoiy qatlamni ham mulkiy munosabatlarni takomillashtirishdan manfaatdor qiladi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish siyosati mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini, mahalliy va milliy sharoitlarni, urf-odatlarni hisobga olgan holda olib borilishini ko‘zda tutadi.

Davlatlashtirishdan qaytishning muhim yo‘nalishlari bu ijara munosabatlarini rivojlantirish va aksionerlik mulkini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayon ma’lum tadbirlarga rioya qilingan holda olib borilishi lozim, bu avvalo, ixtiyorilik asosida, oshkoralik hamda jamoatchilikning umum ishtirokida amalga oshirilib, u mehnat jamoalarining iqtisodiy manfaatiga, davlat manfaatlariga putur yetkazmasligi, shu bilan birga iste’molchilar manfaatlariga ham zid bo‘imasligi zarur. Bu holda mahsulot hajmi, sifati va mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarishni yaxshi tashkil etish, mavjud moddiy texnika, moliyaviy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyadan samarali foydalanish, tovar ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga bozorda narxlarning pasayishiga erishish yo‘li bilan aholining moddiy farovonligining oshishiga erishish talab etiladi.¹

¹ Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 111-115-b.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan xususiy lashtirish jarayonining o‘ziga xos jihat – bu uning bosqichma-bosqich olib borilganligi bo‘lib, Sh.Shodmonov va U.G‘afurov tomonidan tayyorlangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida bu bosqichlar quyidagicha bayon etiladi:

O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. 1992–1993-yillar xususiy lashtirishning birinchi bosqichini o‘z ichiga olib, bu bosqichda xususiy lashtirish jarayoni umumiyligi uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o‘rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko‘proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagisi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi.

Xususiy lashtirishning birinchi bosqichida davlat xalq xo‘jaligining iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydigan ayrim sektorlarini, korxonalarni saqlab turishni va mablag‘ bilan ta’mirlash vazifalarini o‘z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiy lashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo‘lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi.

Savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiy va jamoa mulki qilib berildi. Natijada, 1997-yilda savdo-sotiq hajmi va umumiyligi ovqatlanish yalpi mahsulotining 95 foizdan ortiqrog‘i davlatga qarashli bo‘limgan sektorga to‘g‘ri keldi. Uy-joylarni xususiy lashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib qoldi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994–1995-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu bosqichda ko‘plab o‘rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatbahosiga qo‘zolar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki hissadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalari qizg‘in tashkil qilindi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishning va xususiy lashtirishning bu bosqichda ochiq turdag'i aksionerlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama tafsifga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larni o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinci tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xususiy lashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmas sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarini tashkil qilish – ikkinchi qadratlari jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich davrida (1996–1998-yillar) xususiy lashtirilmaydigan obyektlar ro'yxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat tasarrufidan chiqarildi.

Xususiy lashtirish jarayonlarining to'rinchi bosqichi (1998–2002-yillar) ning asosiy vazifalari sifatida davlat budgetiga xususiy lashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish, xususiy lashtirilgan korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruva samaradorligini oshirish va mulkchilik yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish tadbirlarini amalga oshirish belgilandi.

O'zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonlarining hozirgi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan bog'liq. Mazkur farmon yaqin istiqbolda yo'naltirilgan. Iqtisodiy nochor davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiy lashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi. Xususan, xususiy lashtirilgan korxonalar davlat aktivlarining boshlan-

g'ich narxlarini sekin-asta pasaytirib borish hamda davlat, iqtisodiy nochor korxonalarini va past likvidli obyektlarni nol darajadagi xarid qiymati bo'yicha tanlov asosida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartiblari tasdiqlandi.¹

Shuningdek, Respublikamizda xususiy lashtirishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xususiy lashtirish jarayonlarining mo'ljalga yo'naltirilganligi;
- xususiy lashtirish jarayonlarining to'lovlligi, ya'ni mulkning ma'lum haq evaziga sotilishi;
- mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish chog'ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratilishi;
- davlat mulkini xususiy lashtirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo'ysundirilganligi va ularning asosini tashkil etishi;
- mulknii xususiy lashtirish jarayonining davlat tomonidan boshqarilishi;
- xususiy lashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta'minlashda qonunlarga rioya etilishi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish o'zining chegarasiga ega bo'lib, davlat sektori saqlanib qoluvchi sohalarda bu jarayon amalga oshirilmaydi. Biroq, bozor sharoitida davlat mulkidagi obyektlarning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Qisqacha xulosalar

1. Mulkchilik munosabatlari – shaxsiy, jamoa va davlat manfaatlarini o'zida ifoda etib, ishlab chiqarish omillari va natijalaridan foydalanish borasida kishilar, jamoalar, tarmoqlar, hududlar va davlat o'rtaсидagi munosabatlar majmuasidir.

2. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni moddiy va ma'naviy ne'matlarni o'zlashtirish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks etadi. Agar mulkchilikning iqtisodiy mazmuni u yoki bu obyektni o'zlashtirish va foydalanish borasida subyektlar o'rtaсидagi munosabatlarni bildirsa, mulkchilikning huquqiy mazmuni subyektning obyektga nisbatan bo'lgan munosabatini aks ettiradi.

¹ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 116-118-b.

3. Mulkni davlat tasarrufdan chiqarish va xususiy lashtirish – korxonalar ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, ularning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlarni xususiy lashtirish jarayoniga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan kompleks dasturdan iborat jarayondir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkdan foydalanish – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatalishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning naqli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

Mulkka egalik qilish – mulkdorslik huquqining o'z egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Xususiy lashtirish – mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Davlat tassarrufidan chiqarish – davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltililishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ko'p ukladli iqtisodiyotning mohiyati nima?
2. Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi?
3. Nima uchun hozirgi bosqichda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi?
4. O'zbekistonda xususiy lashtirish bosqichlari va shakllariga tavsif bering.
5. Xususiy lashtirishning qanday usullarini bilasiz?
6. Xususiy lashtirish usullaridan birini tanlab olishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan boshqa o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlarda olib borilgan xususiy lashtirish jarayonlari tajribalari to'g'risida nimalar bilasiz? Ularning ijobiylari va salbiy tomonlari to'g'risida gapirib bering.

VII bob. BARQAROR IJTIMOIY YO'NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTINING SHAKLLANTIRILISHI

Oldingi boblardan ma'lum bo'ldiki, sof (klassik) bozor iqtisodiyoti o'zining tabiatini va amal qilish tavsifiga ko'ra taraqqiyotning hozirgi bosqichi xususiyatlariga muvofiq kelmaydi. Shunga ko'ra, har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatning pirovard maqsadi – barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishdan iborat. Barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining mohiyatini ochib berish avvalo bozor va uning mexanizmini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, iqtisodiyotni tartibga solishning zarurati, uni boshqarishning bozor va davlat mexanizmlari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini o'rganish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, mazkur bob doirasida keynschilik va neokonservativ konsepsiylar nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi masalalarining ko'rib chiqilishi barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining tabiatini to'liq tasavvur qilish imkonini beradi.

1-§. Keynschilik va neokonservativ konsepsiylar nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi

Kapitalizmning «aralash» iqtisodiyotga o'tish jarayoni Birinchi jahon urushidan, aniqrog'i – 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan so'ng boshlandi. Ushbu inqiroz kapitalistik tizim amal qilishining o'zini shubha ostiga solib qo'ydi. Bu muammoning yechimini topish maqsadida taniqli iqtisodchi J.M.Keyns (1883–1946) iqtisodiyotga davlatning faol aralashuviga g'oyasini ilgari surdi. Keynschilik siyosati umumiyl taklifga ta'sir ko'rsatish uchun umumiyl talabning boshqariishi ustidan nazorat o'matishni tavsija qildi. Keyns modeli xususiy kapitalni investitsiyalashga rag'batlantirish, shuningdek, jamoat ishlarini davlat tomonidan moliyalashtirish va milliy daromadni budget orqali kam ta'minlanganlar foydasiga qayta taqsimlash yo'li bilan umumiyl «samarali» talabni rag'batlantirishni nazarda tutar edi. Davlat budgeti, iqtisodiyotdagi taqchillikni moliyalashtirish, shuningdek, foiz

hisob stavkasini boshqarish Keyns modelining asosiy rag'batlantirish vositalari hisoblanardi.

Keyns modeli AQSH da prezident F.R.Ruzvelt siyosatida to'liq qo'llandi va yaxshi natijalar berdi.

Keynschilik – faqat davlat sektorini va davlatning iqtisodiyotga aralashuvini himoya qilish emas, balki iqtisodiyotni boshqarishning alohida konsepsiysi hamdir. Bu konsepsiya bilvosita makroiqtisodiy boshqarish konsepsiyasidir. Uning maqsadi – bandlikni, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat. Keyns va uning izdoshlari sof bozor mexanizmi to'liq bandlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmasligidan, shuning uchun ham davlatning aralashuvi ta'lab qilinishidan kelib chiqди.


Keynschilik matabining muxoliflari – neoklassik nazariya tarafdarlari esa kapitalistik iqtisodiyot muvozanat, mutanosiblik va barqarorlikka moyilligi to'g'risidagi qoidadan kelib chiqadilar. Ularning fikricha, bozor va raqobat, narxlarning moslashuvchanligi iqtisodiy muvozanat o'rnatishning eng yaxshi mexanizmlaridir.

XX asrning 70–80-yillari chegarasida keynschilik nazariyasi va unga asoslangan siyosat neokonservativ yo'nalish vakillari va avvalo monetaristlar tomonidan tanqid qilindi. Ular keynschilarning taqchillikni moliyalashtirish haqidagi tavsiyalari inflatsiyani kuchaytirishini qayd etdilar. Darhaqiqat, shu davrda inflatsiyaning kuchayishi g'arb iqtisodiyotining asosiy muammosiga aylangan edi. Bunda ular Keynsni aybladilar. 50-yillar oxiri – 60-yillar boshida keynschilikka qaramaqarshi yo'nalish – monetarizm vujudga kelди. Uning asoschisi – amerikalik iqtisodchi Milton Fridman «Pul va iqtisodiy taraqqiyot» (1973) nomli kitobida iqtisodiyot faoliyatining bosh mexanizmi bozor va erkin tadbirdorlik ekanligini, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi faqat pul muomalasi sohasi bilan cheklanishini isbotlab berdi. Fridman g'oyalari «reyconomika» degan iqtisodiy siyosatda o'z aksini topdi. Neoliberal konsepsiyalarning tarafdarlari fikricha, pul massasi keskin o'zgarishiga olib keladigan keynschilikning iqtisodiyotni antisiklik boshqarish haqidagi tavsiyalaridan voz kechish va pullarni qat'iy boshqarishga o'tish lozim. Muomalada pul massasi, konyunkturadan qat'i nazar, faqat milliy daromadning uzoq muddatli o'sish sur'atlariga muvofiq tarzda ko'payib borishi zarur. Ular davlat daromadlarining o'sishiga qarshi chiqdilar va davlat faqat o'z daromadlarini kamaytirishi va soliq stavkalarini pasaytirishi lozim, degan fikrni ilgari surdilar.

Neokeynschilarning fikriga ko'ra, kapitalistik iqtisodiyotda barqaror o'sishdan va resurslardan oqilona foydalanishdan og'ishni keltirib chiqaradigan omillar mavjud va ularga tuzatish kiritish uchun davlat zarur. Ammo yangi sharoitlar va o'z raqiblarining tanqididan kelib chiqib, keynschilar Keyns takliflariga muayyan tuzatishlar kirdilar.

Shunday qilib, keynschilikning inqirozi neoklassik yo'nalishni nafaqat jonlantirdi, balki keynschilikning yanada rivojlanishiga ham olib keldi.

M.Keynsning izdoshi O.Fillips talab inflatsiyasi modelini taklif qildi. U Buyuk Britaniya statistika ma'lumotlaridan foydalaniib ish haqi stavkalarining o'zgarishi bilan ishsizlik darajasi o'rtasidagi teskari bog'lanishni aks ettiruvchi egri chiziq tuzdi (3-rasm). Angliyada ishsizlik 2,5-3% dan oshishi narxlar va ish haqining o'sishi keskin sekinlashuviga olib kelar edi. Shunga ko'ra, inflatsiya darajasini 1%ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2%ga o'stirish lozim bo'ladi.



Bundan ishsizlikning kamayishi narx-navo va ish haqining oshishiga olib keladi degan xulosa chiqarildi. Iqtisodiyotda inflatsiya sur'atlarini tezlashtirish hisobiga ishsizlik darajasini pasaytirish mumkin, ammo buni faqat mo'tadil inflatsiya va o'zgarmas sur'atdagi ishsizlik sharoitida amalga oshirish mumkin. Keyinchalik P.Samuelson va R.Solou mehnat haqi stavkasini tovar narxlarining o'sish sur'atlariga o'zgartirib, Fillips egri chizig'ini takomillashtirdilar. Shu ko'rinishdagi Fillips egri chizig'idan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, avvalo bandlik va ishlab chiqarish darajasi yuqori, narxlar ma'lum darajada barqaror bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun foydalanila boshlandi.

Iqtisodiy boshqarish amaliyoti Fillips egri chizig'i qisqa muddatli iqtisodiy holatga nisbatan tatbiq etilishi mumkintligini ko'rsatdi. Uzoq muddatli (5-10 yil) istiqbolda, ishsizlik darajasi yuqori ekanligiga qaramay, inflatsiya o'sishda davom etadi va bir qancha holatlar bilan

belgilanadi. Ushbu holatlar orasida umumiylar talabni rag'batlantirish siyosatini, hukumatning inflatsiyani oshirish hisobiga ishsizlik darajasini pasaytirishga intilishini qayd etish muhimdir. Shuningdek, Fillips egri chizig'idan inflatsiya va ishsizlik muqobilini iqtisodiy tahlil qilish uchun ham foydalanish mumkin. Ammo narx-navoning harakatiga faqat ish haqi ta'sir ko'rsatmaydi. Inflatsiya nazariyasi bitta sabab bilan kifoyalanmaydi. Ish hadi ishlab chiqarish xarajatlarning bir qismini tashkil etadi, xolos. Inflatsiyaning boshqa sabablari hisobga olinmaganligi Fillips egri chizig'iga stagflatsiya hodisasini tushuntirishga imkon bermadi. Keyns g'oyasiga ko'ra inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi aloqadorlik mayjud bo'lsa, 70-yillarda ikkala jarayon mutanosib tarzda ro'y berdi.

Ishsizlik darajasining oshishi bilan bir vaqtida narx-navo ham o'sib bordi. 1983–1991-yillarda inflatsiya va ishsizlik pasaydi. Stagflatsiya – inflatsiya va stagnatsiyaning uyg'unligini anglatib, stagnatsiya deganda ishsizlik natijasida ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turg'unlik tushuniladi.

1991–1994-yillarda O'zbekiston Respublikasida narxlarni erkinlashtirish sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. 1994-yil 1-iyuldan respublika hududida yagona qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valuta – so'mning muomalaga kiritilishi bilan o'z moliya, pul-kredit va iqtisodiy siyosatini olib borishning haqiqiy mexanizmi vujudga keldi. Korxonalar jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'nga qo'yishi, erkin muomaladagi valuta ishlab topishni o'rganishiga imkoniyat yaratadigan vosita va mexanizmlar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimining shakllanishi ham inflatsiyani tiyib turishga imkoniyat yaratadi. Inflatsiyaga qarshi kurashning har bir yo'nalishi juda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy sohadagi og'ir ahvol budget taqchillagini kamaytirishni qiyinlashtiradi. Budget taqchilligi ko'p jihatdan samarali ishlamaydigan korxonalarning qo'llab-quvvatlanishi bilan belgilanadi. Ammo ularning yopib qo'yilishi ommaviy ishsizlik xavfini tug'diradi va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Harbiy xarajatlarni kamaytirish armyada norozilik uyg'otadi. Harbiy ishlab chiqarishni konversiya qilish ham katta xarajatlarni talab etadi.

Ammo muammoning murakkabligi uning yechimi yo'qligini anglatmaydi. Davlat siyosati ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiya va ishsizlik xavflarini mutanosiblashtirishdan iborat bo'lishi lozim. Shu

sababli, O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy vaziyatning ziddiyatliligi va murakkabligini chuqur anglab, hukumat inflatsiyani kuchaytirishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olishga harakat qilmoqda.

2-§. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat mexanizmlari

Bozorning rivojlanish tarixi uning rivojlanmagan, erkin (klassik), tartibga solinadigan va deformatsiyalashgan turlarini ajratish imkonini beradi.

Har bir bozorning mohiyati uning bosh iqtisodiy funksiyalarida o'z ifodasini topadi. Iqtisodiy funksiya – ushu kategoriya ifodalashi lozim bo'lgan, uning mohiyatini aks ettiradigan asosiy vazifasidir.

Bozoring asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarish va iste'molni muvofiqlashtirish.
2. Mahsulot ayirboshlashning narx ekvivalentlarini belgilash.
3. Ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy rag'batlantirish.

Bozor o'z mexanizmi orqali iqtisodiyotni tartibga soladi. Bozor mexanizmi – bozor unsurlari: talab, taklif va narxning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri mexanizmidir. U birgalikda bozor iqtisodiyotini tartibga solishni ta'minlovchi ikki jihatga ega. Birinchisi – talab va taklifning o'zaro ta'siri mexanizmi; uning bosh vazifasi – ularning muvozanatini ta'minlash. Ikkinchisi – raqobat mexanizmi; u tovar ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirishni ta'minlaydi.

Erkin raqobatga asoslangan bozorga sof kapitalizm modeli xos. Ushbu model quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- xususiy mulk;
- tadbirkorlik va tanlash erkinligi;
- xulq-atvorning bosh motivi sifatidagi shaxsiy manfaat;
- raqobat;
- narxning bozor vositasidagi shakllanishi;
- davlat aralashuvining cheklanganligi.

So'nggi jihat hatto «erkin» bozor tizimida ham davlat idorasisiz ish olib borish mumkin emasligidan dalolat beradi. Har qanday ijtimoiy yoki jamoa mehnati muayyan darajada boshqarilishi lozimligi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham isbot talab qilmaydi. Har qanday davlat o'z ijtimoiy tabiatidan qat'i nazar, jamiyatga xizmat qilishi lozim. Shu yerda Prezident I.Karimovning «Har qanday davlat, ayniqsa, demokratiya yo'lidan borishga harakat qilayotgan davlat o'z xalqining manfaatlarini, fuqarolarining sha'ni va qadr-qimmatini, ularning hayoti

va erkinliklarini ishonchli tarzda himoya qilishga tayyor bo'lishi shart»¹, degan so'zlarini keltirish o'rinni bo'ladi.

Barcha zamonlarda bozor xo'jaligi davlat tomonidan idora qilingan. Bunday idora qilishning zarurligi va imkoniyatlari bozorning ijtimoiy tabiat bilan ham belgilanadi. Bozor mexanizmi o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiydir. Ko'rsatilgan hodisalarining ijtimoiy tabiatini jamiyatni yuzaga kelgan muammolardan chiqish yo'llarini izlashga va ularni davlat-huquqiy ta'siri vositalari yordamida topishga harakat qiladilar. I.Karimov ta'biri bilan aytganda, bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida «bizning asosiy vazifamiz – odamlar o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlari va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmini yaratib berishdan iborat. Shu bilan birga, biz barpo etayotgan jamiyatning yana bir muhim vazifasi halol mehnat qilayotgan har bir kishiga o'z oиласини boqish, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, o'zining va qarindosh-urug'larining qadr-qimmatini himoya qilish uchun barobar imkoniyatlar vujudga keltirishdir»².

Davlat bozorning o'zi prinsipial ravishda bajara olmaydigan funksiyalarni o'z zimmasiga oladi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni zarur miqdorda pul bilan ta'minlash.
2. «Tashqi samara» ta'sirlarini tartibga solish. Buni davlat o'z zimmasiga oladi. Bu aksariyat hollarda ishlab chiqarishning ekologik jihat bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, hozirgi sharoitda bu muammo dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Agar iqtisodiyot «uy xo'jaligi yuritish mahorati»³ degan ma'noni anglatса, ekologiya esa – uy xo'jaligi to'g'risidagi fandir. Binobarin, inson yashayotgan muhit iqtisodiyot qay darajada boshqarilayotgani bilan belgilanadi. Bu ichimlik suvi, havo va atrof-muhitning ifloslanishi, ishlab chiqarish faoliyati chiqindilari, ro'zg'or chiqindilari muammolaridir.

3. Ijtimoiy «ne'matlar» (yoki «ijtimoiy tovarlar»)ga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish. Bozor mexanizmi talab orqali ifodalangan ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Ammo pulda o'chash va talabga aylantirish mumkin bo'limgan ehtiyojlar ham bor. Bundan tashqari, iste'mol qilishda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadigan tovar va xizmatlar ham mavjud. Mudofaa, jamoat tartibini saqlash, davlatni

¹ Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 335-336-b.

² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 338-b.

³ Камиев В.Д. Экономика и бизнес. – М.: МГТУ, 1993. С.437.

boshqarish, yagona energetika tizimi shular jumlasidandir. Ushbu ne'matlar jahon iqtisodiy fanida «ijtimoiy tovarlar» deb ataladi. Mazkur ne'matlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular iste'moldan chiqmaydi, barcha iste'molchilarga teng taqsimlanadi va bir qismi jamoa bo'lib iste'mol qilinadi. Ijtimoiy tovarlar bilan ta'minlash davlat funksiyalariga kiradi, ularni moddiy ta'minlash esa markaziy yoki mahalliy budgetlar orqali amalga oshiriladi.

Davlatning shu funksiyasini hisobga olib, Prezident I.Karimov 1996-yilda Oliy Majlisning VI sessiyasida so'zlagan nutqida shunday deb qayd etgan edi: «Bugun, erishilgan marralardan turib, o'z oldimizga demokratik, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish vazifasini qo'yar ekanmiz, pirovard maqsadga erishish – fuqarolik jamiyatini qurish zaruratidan kelib chiqib, ish tutmog'imiz darkor. Ya'ni shunday davlat va ijtimoiy tuzilma yaratish kerakki, unda kuchli markaziy hokimiyat o'z sa'y-harakatlarini mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolarning xavfsizligi, tartib-intizom, tashqi siyosat, valuta-moliya, soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va jamiyatning boshqa strategik vazifalarini amalga oshirish singari asosiy umummilliy vazifalarga qaratmog'i zarur»¹.

Ko'rsatilgan funksiyalar erkin bozor sharoitida davlat bajarishi mumkin bo'lgan ishlarning maksimumi, real bozor iqtisodiyotida bajaradigan ishlarning esa minimumidir.

Odatda bozor xo'jaligi rivojlanib borishi bilan ko'plab mamlakatlarda turli iqtisodiy muammolar yuzaga keladi, ba'zan esa keskinlashib boradi. Hatto o'zini-o'zi tartibga soluvchi bozor iqtisodiyoti ham bu muammolarni o'z-o'zicha hal qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Natijada kam rentabelli yoki norentabel ishlab chiqarishlarga ko'p miqdorda investitsiyalar kiritish zarurati vujudga keladi, tarmoq va sohalarda, ba'zida esa butun xo'jalik miqyosida tanglik holatlari tez-tez ro'y berib turadi.

Bu tangliklar ommaviy ishsizlik, pul muomalasining izdan chiqishi, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi bilan barobar kechadi. Shunga ko'ra, davlat tomonidan tegishli iqtisodiy siyosatning olib borilishini taqozo etadi.

Nazariy jihatdan davlatning iqtisodiy siyosati iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qaraganda kengroq tushunchadir. Bu davlatning iqtisodiy siyosati xo'jalik hayotiga aralashmaslik (iqtisodiy

¹ Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. T. 5. – T.: «O'zbekiston», 1997, 124-b.

liberalizm) tamoyiliga asoslanishi bilan izohlanadi. Hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashmasligini tasavvur qilish mumkin emas. Iqtisodchilar ko'pdan beri iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi to'g'risida emas, balki uning ko'lami, shakllari va intensivligi to'g'risida bahslashmoqdalar. Shu boisdan «iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish», «davlatning iqtisodiy siyosati» tushunchalari bugungi kunda mushtarak mazmun kasb etmoqda.

Iqtisodiyotni tartibga solishga davlat aralashuvining ko'lami va darajasi uning rivojlanish darajasiga, shuningdek, tashqi sharoitlarga ko'ra turlichadir. Bu holatni va O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, Prezident I.Karimov shunday deb yozgan edi: «Davlat boshqaruvi organlarining roli tubdan o'zgarmoqda. Ular o'z asosiy funksiyalari va vazifalarini bajarishga, chunonchi: strategiyani belgilash va uning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish, mamlakatning mudofaa va xavfsizligini ta'minlash, faol tashqi siyosat olib borish, ijtimoiy va ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini bozor munosabatlariga o'tkazish uchun shart-sharoit yaratishga tobora ko'proq e'tiborni qaratmoqdalar»¹.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektiv imkoniyati nazariy jihatdan iqtisodiy taraqqiyot, ishlab chiqarish va kapital jamlanishining muayyan darajasiga erishilganidan so'ng paydo bo'ladi. Zarurat ushbu imkoniyatni haqiqatga aylantiradi. Zero, iqtisodiyotda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar va qiyinchiliklar tobora ko'payib boradiki, ularni hal etish faqat iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish orqali amalga oshirish mumkin bo'lib qoladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi. Hozirgi zamon iqtisodiy tizimi ikki kuch: bozor mexanizmi ta'siri va davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga faol aralashuvi uyg'unligidan iborat bo'lgan «aralash iqtisodiyot» ko'rinishidadir. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi – tartibga solinadigan bozorning muhim tarkibiy qismi. Ammo gap faqat shuning o'zida emas: iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida bozorning o'zi, raqobat xususiyati ham o'zgarib boradi.

XX asrga xos bo'lgan tartibga solinadigan bozor XVIII–XIX asrlardagi klassik erkin bozordan ancha farq qiladi. Chunki, tartibga solinadigan bozorda erkin bozorga xos xususiyatlar – talab va taklif

¹ Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohoishlarni chequrlashitirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 345-346-b.

hajmining noma'lumligi, narxlarning talab va taklif hajmiga qarab belgilanishi kabilar mohiyatan o'zgaradi.

Erkin bozorda narxlar tartibga solishning asosiy vositasi sifatida mnydonga tushadi. Shuningdek, mazkur bozor sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar (tadbirkorlar) noma'lum bozorga tovar ishlab chiqaradi.

Hozirgi zamon bozorining bosh qoidasi shundan iboratki, potensial ishlab chiqaruvchi avval o'zi ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotga xaridor topadi va shundan keyingina ishlab chiqarishga kirishadi. Bu qoida avval mahsulot ishlab chiqarishni va shundan keyin xaridor qidirishni nazarda tutadigan arxaik bozor – yarmarka prinsipiiga zid. Bu yerda mahsulot asosan iste'molchilarning buyurtmalariga asosan ishlab chiqariladi va sotiladi. Erkin raqobatga asoslangan o'zini-o'zi idora etuvchi bozorga tayyor mahsulot bozori xos bo'lsa, hozirgi davr iqtisodiyotida bozorning yangi tipi – buyurtmalar (davlat buyurtmalari yoki iste'molchilar, savdo tashkilotlarining to'g'ridan-to'g'ri buyurtmalari) bozori paydo bo'ldi. Bunda korxonalar o'z ishlab chiqarish dasturini bozor buyurtmalaridan va o'z moddiy manfaatlardan kelib chiqib tuzadi. Shu boisdan uning tartibga soluvchi ta'siri iqtisodiy muvozanat buzilishiga yo'l qo'ymaslik, talab va taklif muvozanatini ta'minlash imkonini beradi.

Hozir korporatsiyalar o'rtasidagi har bir oldi-sotdi bitimi yuridik kuchga ega bo'lgan yozma yoki og'zaki shartnoma tuzish yo'li bilan amalg'a oshirilmoga. Shartnoma bozor munosabatlari sohasidagi holatni tubdan o'zgartiradi, uni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalar sohasiga aylantiradi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilmay qolishi xavfi deyarli yo'qoladi. Mahsulot sifati, narxi, yetkazib berish shakllari va muddati, to'lovlar tartibi va boshqa masalalar shartnomada belgilab qo'yiladi.

Ammo aralash iqtisodiyot sharoitida xavfning kamayishi korxona iqtisodiy faoliyatining barcha ko'rsatkichlari oldindan to'liq ma'lum bo'ladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bozor kuchlari ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning o'zaro raqobati ko'rinishida amal qilishda davom etadi. Raqobat narxga va sifatga hamda korxonalar ishlab chiqarish quvvatlarining yuklanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilmay qolish xavfi o'rniga quvvatlarining yuklanmay qolish xavfi paydo bo'ladi.

Shunday qilib, munosabatlarning shartnomaga asoslangan shakli raqobat zamirida yotuvchi iqtisodiy majburlash imkoniyatini kamaytirmaydi. U oldingidek ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarishni

takomillashtirish, yangi bozorlar va yangi iste'molchilar qidirishga, xarajatlarni kamaytirishga majbur qilaqdi. Sharhnomaga asoslangan iqtisodiyot korxonalarining bankrotga uchrashi imkoniyatidan xoli emas. Ammo ko'riliши mumkin bo'lган ijtimoiy zararlar miqdori unda «sof» bozor iqtisodiyotidagi qaraganda kamroqdir.

To'g'ridan-to'g'ri aloqalar faqat yirik korporatsiyalar o'tasida o'rnatilmaydi. Tarmoqqa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ham jalb qilinadi. Yirik va kichik kompaniyalar o'tasidagi ichki pudrat munosabatlari g'arb amaliyotidan mustahkam o'r'in olgan.

XX asrning 70–80-yillarda kompyuterlashtirish, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlariga o'tilishi natijasida korxonalar va xaridorlar o'tasidagi sof bozorga asoslangan munosabatlarni shartnoma munosabatlariga o'tkazish jarayoni ancha rivojlandi. Masalan, mehnatni tashkil etishning konveyer usulini saqlab qolgan g'arb avtomobil sanoati qisman buyurtmalar bo'yicha ishlashga o'tdi.

Narx belgilash tizimida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Talab va taklifning hajmidan tashqari narxlarga oligopolistik tuzilmalar va davlat ham ta'sir ko'rsatadi. Ammo bunda bozor narxi qoladi, chunki narxlarni tartibga solish, vaqtinchalik bir darajada ushlab turish yoki oshirish mumkin, ammo bu va boshqa ko'p sonli manipulatsiyalarni amalga oshirish uchun u avval talab va taklifning to'qnashuvi hamda iqtisodiy subyektlar o'z xohish-irodasini erkin bildirishi natijasida vujudga kelishi lozim.

Aralash iqtisodiyot bozori ham tartibga solish funksiyasini o'z talab va taklif, narxlar, daromad va raqobat mexanizmi yordamida hamda korxonalar bilan ommaviy iste'molchi o'tasidagi shartnoma munosabatlari tizimi orqali bajaradi.

Shu bilan birga, bozor jiddiy kamchiliklarga ham ega: u aholi turmush darajasining tabaqlashuviga olib keladi, uni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlamaydi.

Har bir xalq tarixida uning taqdirini tubdan o'zgartirib yuboradigan voqealar yuz beradi. Ittifoq tiziminining parchalanishi va sobiq ittifoqdosh respublikalarning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi O'zbekiston uchun shunday tarixiy voqeа bo'ldi. Ushbu muammoga kengroq nazar tashlaydigan bo'lsak, shuni tan olish kerakki, XX asrning so'nggi o'n yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomonidan, davlatlar va xalqlar o'tasida yaqinlashuv

Juruiyoni va hamkorlikning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy mukonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va undozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomonidan, sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, unitar tizimlar o'mida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. 80-yillarda va 90-yillarning boshida jahonda ro'y bergan olamshumul o'zgarishlar hozirgi zamон iqtisodiy tafakkuriga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollariga nisbatan yondashuvlarga jiddiy tuzatishlar kiritdi. Erkin iqtisodiy tartibga solish g'oyalari ham, markazlashtirilgan rejalashtirish g'oyalari ham inqirozga uchradi.

Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqdi. Ushbu model zamirida tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti (aralash iqtisodiyot - ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti) yotadi.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat suvereniteti to'g'risida»gi qonuni (1991-yil 31-avgust) qabul qilib, mustaqil davlat sifatida shakllanish va rivojlanishning yangi davriga qadam qo'ydi. Prezident I.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» risolasida uning pirovard maqsadini ko'rsatib berdi. Bu maqsad ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ochiq tashqi siyosatga ega kuchli huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qurishdir.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida aralash bozor iqtisodiyotiga ega davlatning uch asosiy funksiyasi qayd etiladi: samaradorlik, odillik, barqarorlik.

1. Samaradorlik. Ushbu funksiyaning amalga oshirilishi muttasil o'zgarib boruvchi texnologik asosda tobora ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishda xarajatlarni mumkin qadar kamaytirish uchun shart-sharoitlar yaratishni, jahon bozoridagi o'z mavqeini mustahkamlashni, bozor mexanizmi amal qilishi uchun qulay sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Raqobatni qo'llab-quvvatlash – uning bosh vazifasi. Masalan, O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida bozor mexanizmi amal qilishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida barcha mulkchilik shakllarining teng huquqliligi konstitutsiyaviy tarfibda mustahkamlab qo'yildi.

Xususiy lashtirish jarayonida ko'p ukladli iqtisodiyotning vujudga keltirilishi va turli mulk shakllariga mansub korxonalar o'rtasida raqobatning kuchayishi korxonalarini o'z ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirishga va ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta

jihozlashga, kamroq xarajatlar bilan yuqori sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarishga da'vat etadi. Bu pirovard natijada iqtisodiy va fan-tennika taraqqiyotiga turki beradi¹.

Iqtisodiyot tizimini tubdan o'zgartirish, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga ko'tarish strategik vazifasi qo'yiladi.

2. *Adolatlilik*. Bozor daromadlarni taqsimlashning faqat bir mezonini tan oladi: bu tovar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchi bozoridagi raqobatda ishtirok etishdir. Shu bois raqobatda yutib chiqqanlar katta daromad olishi ham, omadi yurishmaganlar kam daromad olishi hamadolatdan deb hisoblanadi. Sof bozor iqtisodiyoti yashash minimumi olishni kafolatlamaydi. Bozor nuqtayi nazaridan odilona hisoblangan daromadlarni taqsimlash prinsipi umuminsoniy nuqtayi nazarda odilona emasligini jamiyat anglab yetishi va tan olishi uchun muayyan vaqt kerak bo'ldi. Pirovard natijada davlat soliqlar orqali daromadlarni qayta taqsimlash, shuningdek, mehnatga layoqatsizlar, qariyalar va h.k.ni qo'llab-quvvatlash funksiyasini o'z zimmasiga oldi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti aholining to'liq bandligini ham ta'minlamaydi, unda majburiy ishsizlik bo'lishi muqarrardir (6% gacha ishsizlik tabiiy hisoblanadi), shu bois ishchi kuchi bozorini tartibga solish, ishsizlarni moddiy ta'minlash ham bozor iqtisodiyotida davlatning funksiyasidir.

Davlat ish bilan band bo'lganlarga ham g'amxo'rlik qilishi, eng kam ish haqi miqdorini belgilash yo'li bilan ular iste'molining minimal darajasini kafolatlashi lozim.

3. *Bargarorlik*. Davlat iqtisodiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiyot rivojlanishi siklik ko'rinishining nojo'ya ta'sirini bartaraf etish, inflatsiyaga qarshi siyosat olib borish makroiqtisodiy funksiyasini bajaradi.

Bundan tashqari, davlat bozorning samarali ishlashiga imkoniyat yaratadigan huquqiy negizni ta'minlash, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, soliq siyosatini olib borish, fundamental ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mintaqaviy muammolarni hal qilish vazifalarini ham o'z zimmasiga oladi.

Xullas, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish sof bozor mexanizmini to'ldiradi, unga tuzatish kiritadi. P.Samuelson ta'biri bilan

¹Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy istohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 289-290-b.

nytganda: «Iqtisodiyotni ularning birisiz boshqarish bir qo'lda chapak chalishga urinish bilan barobardir».

Ammo iqtisodiyotga davlatning aralashuvi to'g'risida so'z yuritganda, uning joiz chegaralarini belgilash muhimdir. Iqtisodiyot barqarorlashishiga qarab uning erkinkashuvi ro'y beradi, bu esa davlatning iqtisodiy funksiyasi o'zgarishiga olib keladi.

I.Karimov Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiglashtiruvchi kengash yig'ilishidagi ma'rzasida (2000-yil 1-fevral): «Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat», deb ta'kidlab o'tdi.

Ushbu muammo davlat mulki va xususiy mulk o'rtaсидаги оғилона нисбат chegaralari bilan bog'liq. Bu chegaradan chiqish bozor mexanizmining deformatsiyalanishiga olib keladi. Muvozanatni tiklash faqat mulknı davlat tasarrufidan chiqarish orqali amalga oshadi.

3-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: 1) huquqiy tartibga solish; 2) ma'muriy tartibga solish; 3) iqtisodiy tartibga solish.

1. Huquqiy tartibga solish. Bu yerda huquqiy negiz, ayniqsa, bozor munosabatlari shakllanayotgan davrda katta ahamiyat kasb etadi. Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin. «Shu sababli birinchi bosqichda biz islohotlarning o'z huquqiy negizini yaratishga asosiy e'tiborni qaratib keldik»¹.

2. Ma'muriy tartibga solish. Davlat ma'muriy usullar yordamida tartibga solish vazifalarini bajaradi. Ma'muriy yoki huquqiy tartibga solish xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini muayyan huquqiy doiraga soladi (huquqiy davlatda). O'z mazmuniga ko'ra ma'muriy tartibga solish bozor mexanizmlari ta'sirini cheklashga qaratiladi. Ammo rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'muriy tartibga solish usuli

¹ Karimov I.A. Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiglashtiruvchi kengash yig'ilishidagi ma'rza. T. 8. – T.: «O'zbekiston», 2000.

² Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 181-b.

o‘z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur holda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat ma’muriy usullar bilan tartibga solinadi. Ma’muriy usullardan iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham faol foydalaniladi.

3. Iqtisodiy tartibga solish. Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, ma’muriy tartibga solish usullari o’zini-o’zi idora etuvchi bozor mexanizmlariga ta’sir ko’rsatsa, ularni cheklasa, iqtisodiy tartibga solish metodlari ulardan faol foydalanadi.

Iqtisodiy tartibga solish dastaklarining tasnifi

4-jadval

Iqtisodiyotga bevosita ta’sir ko’rsatish chora-tadbirlari	Bilvosita ta’sir ko’rsatish chora-tadbirlari:
Maqsadli moliyalashtirish (shu jumladan mintaqaviy va maqsadli dasturlar) Davlat xaridlari tizimi	Budget-soliq Pul-kredit Amortizatsiya Valuta Bojxona Investitsion

Iqtisodiy tartibga solish dastaklari orasida iqtisodiy dasturlashtirish yoki indikativ-tavsiyaviy rejalashtirish alohida o‘rin egallaydi. Indikativ rejalashtirish ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tuzilishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va xo’jalik strategiyasining belgilangan variantiga muvofiq davlat tomonidan vaqtı-vaqtı bilan kompleks ta’sir ko’rsatilishini anglatadi.

Hozirda iqtisodiyotni dasturlashtirish tajribasiga ega mamlakatlar talaygina bo‘lib, bu tajriba Ikkinchı jahon urushidan keyin Fransiya, Niderlandiya, Norvegiya, Yaponiyada, keyinchalik Shvetsiya, Finlandiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda vujudga keldi. Dasturlashtirishda ustuvorliklar va tanlangan maqsadlar tartibga solish tizimi bilan muvofiqlashtiriladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda ishtirok etishdan tashqari, mustaqil xo’jalik yurituvchi subyekt (davlat sektori) sifatida ham faoliyat olib boradi. Iqtisodiyotda davlat sektori tarixiy rivojlanishining muhim sabablari bo‘lib urushlar, milliy mudofaa, makroiqtisodiy jarayonlarni infratuzilma bilan ta’minlash, aholining o’sishi, atrof-muhit muammolari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy fanida davlat sektori tushunchasi davlat mulkidan ham ko'ra ko'proq ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilishda davlat ishtirokining barcha shakllari bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan mazkur sektor davlat o'z funksiyalarini bajarishida unga tuyanch bo'lib xizmat qiladi.

Davlat sektori an'anaviy talqinda eng avvalo davlat korxonalari majmuidir. Ushbu sektoring samarali faoliyati katta muammolardan biri bo'lib qolmoqda, chunki bu yerda sobiq ittifoq iqtisodiyotidan yaxshi tanish bo'lgan samaradorlikning, sifatning pasayishi kabi tendensiyalar yuzaga kelmoqda. Shu sababli mulkni davlat tasarrufiga o'tkazishning oqilona chegaralarini topish muammosi, shuningdek, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish muammolari jahon miqyosidagi muammolardir. XX asming 70–80-yillarda g'arbdagi mamlakatlarning aksariyatida «mulkni davlat tasarrufidan chiqarish» to'lqini barham topdi. Bu muammo ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishda O'zbekiston Respublikasining ham diqqat markazida turibdi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunda shunday deb qayd etilgan: «Tadbirkorlik faoliyatining va mulkdor bilan bo'lgan munosabatlarning tavsifidan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyati mulkdor tomonidan ham, mulkdorning mol-mulkini idora qiluvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin»¹.

Ushbu muammoning mazmuni Islom Karimovning kitobida ham yoritib berilgan. Chunonchi, xususiy lashtirilishi mumkin bo'lmagan korxonalar doirasini aniq belgilash, bu doirani mumkin qadar toraytirish zarurligi qayd etilgan. Bunday korxonalar bozor sharoitiga moslashishini yengillashtiradigan xo'jalik mexanizmini ishlab chiqishi kerak². Davlat korxonalari uchun ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi tizimining saqlab qolinishi umuman bozor mexanizmini deformatsiyalagan bo'lar edi. I.Karimov bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat korxonalari maqomini shunday tushuntiradi: davlat korxonalari iqtisodiy jihatdan mumkin qadar erkin bo'lishlari, ularning faoliyati tijorat qonun-qoidalariga asoslangan bo'lishi lozim. Mulkchilik shakliga ko'ra davlat korxonasi bo'lgani holda, ular xo'jalik yuritish mexanizmi, daromadni

¹ O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1999, 90-b.

² Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 293-b.

taqsimlash va moddiy rag‘batlantirish shartlariga ko‘ra nodavlat korxonalardan deyarli farq qilmasliklari kerak¹.

Shunday qilib, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish «Imkoniyat bo‘lgan barcha joyda raqobat, zarur bo‘lgan barcha joyda tartibga solish», degan qoidaga ko‘ra amalga oshiriladi. Bunda bevosita tartibga solish mikrodarajaga nisbatan minimal darajada, makrodarajaga nisbatan esa – maksimal darajada tatbiq etiladi.

Qisqacha xulosalar

1. Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi uning milliy iqtisodiyotda bozor vositasida o‘zini-o‘zi tartibga solish orqali bajarish mumkin bo‘lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo‘lmaydigan vazifalarni o‘z zimmasiga olishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste’molning xususiy tavsifini keltirib chiqaruvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish zarurligi; iste’molchilarining manfaatlarini himoyalash; bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish, jumladan, aholining kam ta’minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g‘amxo‘rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko‘rsatish va shu kabilarni o‘z zimmasiga olishi; hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish vazifasini ham o‘z zimmasiga olishi orqali izohlanadi.

2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda jamiyat a’zolarining ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minkovchi, umumiyl iqtisodiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha davlatning faoliyati tushuniladi.

3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalari orqali ifodalanib, ular asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish, iqtisodiyotni tarkibga solishning umumiyl tamoyillaridan kelib chiqadi, ya’ni: bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug‘diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta’minlash; raqobatni himoya qilish; daromad va boylikni qayta taqsimlash; resurslarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotni barqarorlashtirish,

¹ Qarang: Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T. 3. – T.: «O‘zbekiston», 1996. – 293-b.

ya'ni iqtisodiy tebranishlarni vujudga keltiradigan inflatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

4. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bevosita va bilvosita ta'sir qilish usullari hamda tashqi iqtisodiy usullardan foydalanadi. Tartibga solishning bevosita ta'sir qilish usullari foydalaniqanda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri, ma'muriy tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu usullar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiyotning ayrim bo'g'lnlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish; narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati; ish bilan bandlik xizmati faoliyati (mehnat birjalari)ni tashkil qilish; iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish va h.k.

5. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budget siyosatida o'z ifodasini topadi. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi: hisob stavkasini tartibga solish; moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdag'i zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish; davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni setish va to'lash). Davlat budget siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o'zgartirishga qaratilib, bu usulning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy vazifalari – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi ma'muriy vositalari.

Bilvosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Hozirda davlatning iqtisodiyotdagi roliga qanday qarashlar mavjud?
2. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalari nimalardan iborat? Ularning qisqacha tavsifini bering.
3. Bozor iqtisodyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
4. Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
6. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'yndaydi?
8. Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

VIII bob. TRANSFORMATSIYALASHUV DAVRIDA IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY MUAMMOLARI. TARKIBIY O'ZGARISHLAR, USTUVOR YO'NALISHLAR

Transformatsiyalashuv davri uchun beqaror, makroiqtisodiy nomuvozanatlizka asoslangan rivojlanish xosdir. Chunki, aynan muvozanatning buzilishi natijasida yangi makroiqtisodiy muvozanatga intilish orqali yanada yuqoriqoq taraqqiyot bosqichiga erishiladi. Mazkur jarayonlarning tub mohiyatini ohib berish uchun dastlab makroiqtisodiyotning mohiyati va ijtimoiy takror ishlab chiqarishning turli qirralarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Shuningdek, makroiqtisodiy darajadagi iqtisodiyotni barqarorlashtirish jarayonlari, ularni ta'minlashda zarur bo'lgan barqarorlashtirish dasturlarining mazmuni va ahamiyatini o'rganish ham muhimdir. Barqarorlashtirish dasturi doirasida milliy ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, davlat mulkini xususiy lashtirish, tarkibiy o'zgarishlar jarayonida chet el investitsiyalarining ishtiroki masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-§. Makroiqtisodiyotning mohiyati va ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ko'p qirraligi

XV–XIX asrlarda G'arbiy Yevropada yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum – dastlabki bosqich kapitalizmi vujudga keldi va qaror topdi. Keyinchalik klassik kapitalizm deb nomlangan ushbu bosqichda xususiy kapitalistik tadbirdorlikning barcha tamoyillari mujassamlashdi. Bu yerda yakka mulkdor asosiy subyektga aylandi. U kichik korxona egasi bo'lib, ishlab chiqarishni shaxsan o'zi boshqarar edi. Mazkur xo'jalik faoliyati o'sha davrda yashab ijod qilgan A.Smit va D.Rikardo kabi iqtisodchilarning asarlarida nazariy jihatdan yoritildi. Klassik kapitalizm taqdiri ziddiyatlarga to'liq. Dastlabki bosqichda u insoniyat industrial ishlab chiqarishga o'tishiga har tomonlama imkoniyat tug'dirdi. Shu tariqa u texnika va korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish sohalarida ulkan miqdor va sifat o'zgarishlariga yo'l ohib berdi. Bu o'zgarishlar yakka mulkdorlik bilan to'qnashdi.

Klassiklar milliy iqtisodiyotni yaxlit deb qaradilar, kichik iqtisodiy shakllar (xususiy kapital, oilaviy xo'jalik) va yirik shakllar (butun millatning jami kapitali va sh.k.) o'rtaida chegara o'tkazmadilar. Pirovard natijada ikkalá shaklga mansub xo'jalik tuzilmalari ham o'zaro aloqada o'rganildi.

Neoklassiklar boshqacha ish tutdilar. Ular mamlakatning butun xo'jaligini xususiy mulkdorlar (uy xo'jaliklari, yakka tadbirkorlar) faoliyatiga bog'ladilar. Ularning faoliyatiga davlatning aralashuvi zarurligi rad etildi. Ushbu yondashuv milliy iqtisodiyotning qarama-qarshi sektori – mulkning bo'linmasligiga asoslanadigan davlat xo'jaligini tan olmas edi. Ammo XIX asrning so'nggi choragida va keyinroq, neoklassik yo'nalish qaror topgan davrda g'arb mamlakatlarida xo'jalik hayotiga davlatning aralashuvi sezilarli tus olib bordi. Biryoqlama yondashuvga qarama-qarshi o'laroq, XX asrning 30-50-yillarida makroiqtisodiyot vujudga keldi hamda umummilliy ahamiyatga molik iqtisodiy muammolarni, shu jumladan, davlatning xo'jalik faoliyatini o'rgana boshladi.

G'arbda makroiqtisodiyot asoschisi Jon Meynard Keyns hisoblanadi. U bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish zarurligi va davlat iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyillarini asoslab berdi. Natijada milliy iqtisodiyot subyekti sifatidagi davlat bilan firmalar va uy xo'jaliklari o'rtaida yangi munosabatlар yuzaga keldi.

Makroiqtisodiyotning keynscha variantlarida nazariy tadqiqotning diqqat markaziga asosan xalq xo'jaligi munosabatlari qo'yildi. Makroiqtisodiy rivojlanish muammolari esa e'tibordan chetda qoldi. Shu tariqa hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasi mikroiqtisodiyotni tadqiq qilishi kerakmi yoki makroiqtisodiyotnimi, degan savol tug'ildi. Bu savolga XX asr 40-yillarining oxiri – 60-yillar boshida «Ekonomiks» darsligining mualliflari professorlar P.Samuelson, K.Makkonnell, S.Bryu va boshqalar javob berdilar. Ular ikki bo'limdan: mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot bo'limlaridan iborat darslik tuzdilar. Shunday qilib, makroiqtisodiyot – iqtisodiy nazariy bo'limi. G'arb olimlari unga vazifasi iqtisodiy tizim qanday amal qilayotganini aniqlashdan iborat bo'lgan siyosiy iqtisod tarmog'i deb ta'rif berdilar¹. Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyotning shartlari va omillarini, uning rivojlanish natijalarini o'rganadi. Uning obyektlari orasida quyidagilar bor: boylik, milliy daromad, iqtisodiy o'sish sur'atlari va omillari, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasi, nisbatlari va b.

¹ Видалин В.И. Общая экономическая наука. – М.: Промиследиз, 1995. 350-б.

Makroiqtisodiyotni o'rganishda birinchi muammo sifatida ijtimoiy takror ishlab chiqarishni ko'rib chiqish lozim. Bu xalq xo'jaligiga faqat korxonalar, uy xo'jaliklari, tarmoqlar, sohalar, komplekslar majmui sifatida emas, balki o'zidan-o'zi ko'payuvchi tizim sifatida qarash imkonini beradi. Binobarin, ushbu tizim tarkibiy qismlari, unsurlarining o'zaro ta'siri va aloqasi iqtisodiy jarayonlar uzlusiz yangilanishi va takrorlanishiga imkoniyat yaratadi. Demak, «takror ishlab chiqarish» tushunchasi har qanday ishlab chiqarish jarayoni ayni vaqtida takror ishlab chiqarish jarayoni ham ekanligini, jamiyat iste'mol qilishni to'xtata olmasligini, shu boisdan u ishlab chiqarishni ham to'xtatishi mumkin emasligini anglatadi.

Mehnatning ijtimoiy taqsimotiga va ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy erkinligiga asoslangan bozor xo'jalik yuritish tizimida ishlab chiqarish barcha tovarlar sotilgan, barcha ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari xarajatlari qoplangan holdagina mumkindir. Ushbu shartlar muayyan xalq xo'jaligi nisbatlariga rioya qilishni nazarda tutadi.

Bunday xulosaga birinchi bo'lib fransuz iqtisodchisi, makroiqtisodiy tahlil asoschisi Fransa Kene (1644–1774) keldi. Uning «Iqtisodiy jadval» asari va «Don», «Fermerlar» maqolalari iqtisodiy tadqiqotlarning mazkur yo'nalishiga asos soldi.

F.Kene taklif qilgan takror ishlab chiqarish modeli uning sinflar nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, millat uch sinfdan: ishlab chiqaruvchilar, mulkdorlar va yer egalari (hech narsa yaratmaydigan sinf)dan tashkil topadi. Birinchi sinf – ishlab chiqaruvchilar (fermerlar) sof mahsulot yaratadi. U kapitalistlar – fermerlar va zamindor-ishchilarini ajratmaydi, balki ularni bir ishlab chiqaruvchilar sinfiga birlashtiradi.

Ikkinci sinf – mulkdorlar (qirol, senorlar, cherkov va h.k.) sof mahsulotni o'zlashtiradi. Ishlab chiqaruvchilar sinfi mulkdorlardan yerni ijara oladi va ularga ijara haqi to'laydi.

Uchinchisi – unumsiz sinf, ya'ni hunarmand, ishchi va savdo xodimlari sof mahsulot yaratmaydi va uni o'zlashtirmaydi. Ular faqat qishloq xo'jalik mahsulotini boshqa natural shaklga soladi.

F.Kene birinchi marta asosiy va ishlab chiqarish daromadlari masalasini ko'tardi. Uning takror ishlab chiqarish nazariyasi butun jamiyat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarini tadqiq qilishga birinchi urinish bo'ldi. Takror ishlab chiqarish jarayoni – uch jarayon: jami ijtimoiy mahsulot (yalpi milliy mahsulot) ishlab chiqarish, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligidir. Jami


ijtimoiy mahsulot – yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishning uzlusiz davom etishi va rivojlanishining moddiy negizi hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish to‘rt bosqichdan iborat: ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash, iste’mol qilish. Mashinali texnika va ilg‘or texnologiyalar asoslangan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining sharti hisoblanadi. Sof mahsulot kengayish manbaidir. Butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish ishlab chiqarish tuzilmasi va ijtimoiy ehtiyojlar tuzilmasining o‘zaro nisbatini, ya’ni muayyan darajada mutanosibligini nazarda tutadi.

Hozirgi zamон g‘arb iqtisodiy adabiyotlarida jamiyat miqyosidagi uzlusizlik mahsulotlari va daromadlarning iqtisodiy muomalasi modelida ko‘rib chiqiladi (4-rasm).

Iqtisodiy muomalaning asosiy buniyodkor bo‘g‘inini jamiyatga kerakli mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar (firmalar) tashkil etadi. Korxonalar mahsulotga talabni vujudga keltiradigan xaridorlar va resurslarni sotuvchilar bilan uzviy aloqada ish olib boradi. Bu aloqalar ishlab chiqarish mahsulotlari sotiladigan iste’mol bozorida va ishlab chiqarish omillari xarid qilinadigan resurslar bozorida oldi-sotdi yo‘li bilan amalga oshiritadi. Bu aloqalarning muttasili davom etishi va takrorlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishning mezoni hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida bozorga asoslangan aloqalar amal qiladi. Bu iqtisodiy muomaladagi barcha ne’matlar ikki shaklda: natural-moddiy va pul shaklida mavjud bo‘lishini anglatadi.



4-rasm. Iqtisodiy aylanish modeli.

Uy xo'jaliklari ne'matlar iqtisodiy muomalasining ilk nuqtasi hisoblanadi. Ular oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyatini ishlab chiqarish resurslari sifatida taklif qiladi. Ammo uy xo'jaliklari iqtisodiy muomalaning pirovard mahsuloti va pirovard maqsadi hamdir. Zero, ishlab chiqarish iste'molni ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Shunday qilib, iste'mol maqsadiga resurslarni sotish, ulardan ishlab chiqarishda foydalanish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va ularni sotish orqali erishiladi. Uy xo'jaliklari davlatga to'g'ri soliqlar to'laydi, davlatdan esa mehnat haqi, maosh, transfer to'lovlari (davlat to'lovlari, pensiyalar, stipendiyalar, dotatsiyalar) oladi.

Korxonalar (firmalar) davlatga to'g'ri va egri soliqlar to'laydi, davlatdan esa subsidiyalar, soliq imtiyozlari, mukofotlar, imtiyozli kreditlar tarzida transfert to'lovlari oladi. Ushbu model yopiq milliy iqtisodiyotdag'i iqtisodiy muomalani tavsiflaydi.

Yana bir xo'jalik yurituvchi subyekt – xorijning qo'shilishi ochiq milliy iqtisodiyot muomalasini murakkablashtiradi. Ushbu jarayonlarning muttasil takrorlanishi va davom etishi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mazmunini tashkil etadi.

2-§. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston o'z iqtisodiy, siyosiy va davlat qurilishi va rivojlanishining yangi sifat bosqichiga o'tdi.

Iqtisodiy islohotlarning maqsadidan kelib chiqqan holda, ularning asosiy vazifalaridan biri bo'lib ishlab chiqarish pasayishining oldini olish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi.

«Barqarorlashtirish» – bu muayyan muvozanatli, barqaror holat. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – qonuniy va voz kechib bo'lmaydigan jarayon bo'lib, bozorni shakllantirishda inqirozli holatdan chiqib ketishga yo'naltirilgan. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda diqqat e'tibor inqiroz holatlarni bartaraf qilishga emas, balki mamlakatni shunday inqirozlik holatiga olib kelgan ichki sabablarni chuqur o'rghanishga, yuzaga keladigan chetlanishlar va nomutanosibliklarga (disproportsiyalarga) qarshi o'z vaqtida chora ko'rish, inqirozli holatlar yuzaga kelishining oldini oluvchi chora-tadbirlar o'tkazishga qaratilishi lozim.

Barqarorlashtirish siyosati – bu, eng avvalo, davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ushlab turish, ishlab chiqarishning yalpi pasayishi va ommaviy ishsizlikning oldini olish, inflatsiya darajasini va

pul emissiyasini boshqarishni ta'minlash, to'lov balansini saqlash borasidagi maqsadli siyosatidir.

Transformatsiyalashuv davrida davlat o'z iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda shuni hisobga olishi kerakki, u ishlab chiqarishning ustun, katta istiqbolga ega tarmoqlarini, ya'ni muhim bo'g'itlarining rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi zarur va bu bilan iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish siyosatini bosqichma-bosqich olib borishi lozim. Davlat bu ustun yo'naliishlarning tarkibiy isloh qilinishini ta'minlashi zarur. Busiz iqtisodiyotda to'liq tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin. Barqarorlashtirish siyosatining maqsadi – bu ichki va tashqi tengsizlik, ya'ni disbalansni bartaraf etishdir, chunki bu tengsizlik boshqarib bo'lmaydigan iqtisodiy pasayishga olib kelishi mumkin.

Jahon amaliyotida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish bo'yicha prinsipial jihatdan farq qiluvchi yondashuvlar mavjud. Ulardan biri – bu monetaristik yondashuv, u inflatsiya darajasini pasaytirish, pul massasini va yalpi to'lovga qobiliyatli talabni keskin qisqartirish orqali pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslangan. Bunday yondashuv chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlamaydi, aksincha, ko'pincha ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishiga, investitsion faoliyatning to'xtab qolishiga olib keladi. Ikkinci yondashuv – ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini rag'batlantirish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish va tengsizliklarni bartaraf etishga ko'maklashish, katta moliyaviy va pul-kredit siyosatini amalga oshirish, tovar bilan ta'minlanmagan ortiqcha talabni cheklashga asoslanadi.

I.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlaganidek, «bizning yondashuv hech qanday ijtimoiy portlashlar va qaltisliklarsiz chuqur, davom etadigan inqiroz holatidan chiqib ketishdan iborat»¹.

«Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqish chog'ida ana shu qattiq monetarizmga tayanmaslik kerak. Balki muvozanatga keltirilgan monetar siyosatni asosiy tarmoqlarni va ishlab chiqarishni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borish zarur».

Iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyida-gildan iborat bo'ladi:

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 202-203, 212-b.

- agar ishlab chiqarish hajmining qisqarishi tarkibiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirishga bog‘liq bo‘lmasa, uning kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ustuvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish, ishlab chiqarish faoliyati rag‘batlantirilishiga ko‘maklashish;
- davlat budgeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini mumkin bo‘lgan doirada ta’minalash;
- pulning qadrsizlanishi jarayonlarini to‘xtatib qolish;
- to‘lov balansi va davlat valuta rezervlarining holatini yaxshilash uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish va shuning negizida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy munosabatlarda tutgan o‘rnini mustahkamlash;
- ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli ijtimoiy siyosatning muvozanatlashtirilganligini ta’minalash, aholining tur mush darajasini mumkin qadar tutib turish va yaxshilash.

«Makroiqtisodiy barqarorlik biz uchun birdan-bir maqsad emas. U iqtisodiyotni jonlantirish va tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, ...raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, aholining daromadlarini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hayotiy zarur bosqichi sifatida muhimdir».

3-§. Ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish.

Xususiy lashtirish, tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida xorijiy investitsiyalarning o‘rni va roli

Chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘sishni, aholi farovonligini ta’minalash, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

Sobiq ittifoq parchalanishidan so‘ng iqtisodiyot og‘ir ahvolda edi – o‘ta markazlashgan, bir tomonlama xomashyo yetishtirishga yo‘naltilrilgan, chuqur hududiy tengsizliklar, ma’naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish bazasiga ega bo‘lgan iqtisodiy tizim meros bo‘lib, saqlanib qolgan edi. Shu sababli haqiqiy mustaqillik va iqtisodiy ozodlikka erishish uchun quyidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur edi:

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqur lashtirish yo‘lida. – T.: «O‘zbekiston», 1995, 202-203, 212-b.

- iqtisodiyotning bir tomonlama xomashyoga yo‘naltilganligini bartaraf etish;
- tarmoq tarkibini keskin o‘zgartirish;
- ittifoqdagi ixtisoslashuv natijasida yuzaga kelgan disproporsiyaлarni yo‘qotish;
- mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini jahon talablari darajasiga ko‘targan holda tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o‘tish.

Tarkibiy siyosat XXI asr bo‘sag‘asida O‘zbekistonning prinsipial jihatdan yangi xalq xo‘jaligi majmuasini yaratishga yo‘naltilgan, u esa o‘z navbatida respublikaning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini kafolatlashi va xalqimizning munosib hayot kechirishini ta’minlashi zarur.

Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini qayta qurish, ishlab chiqariladigan mahsulotni, eksport va import tarkibini qayta qurish lozim. Eng avvalo, makroiqtisodiy takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solish zarur. Yakuniy natijada iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish va aholi talablariga javob beruvchi optimal muvozanatga erishish zarur.

Hududiy tarkibni, tabiiy resurs va mehnat potensialini yaxshilash o‘ziga xos ahamiyatga ega masaladir. Ustun tarmoqlarni rivojlantirish albatta, muayyan tartibda rentabelsiz korxonalarini likvidatsiya qilish va raqobatdosh mahsulotlarni yaratuvchi ishlab chiqarishlarning yo‘nalishini, profilini o‘zgartirish masalalari amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon ham yangi korxonalarini yaratish kabi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida tarkibiy siyosatni ishlab chiqarishda, eng avvalo, tabiiy va mineral xomashyo, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish jihatlarini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda muhim tarmoqlar bo‘lgan neft va gaz sanoati, energetika, oltin qazib chiqaruvchi, rangli metallurgiya tarmoqlari, kommunikatsiya tizimi, infratuzilmalarni rivojlantirish zarur.

Tarkibiy siyosatning muhim va ustun yo‘nalishlaridan biri agrosanoat majmuasida chuqr progressiv buriishiarga erishish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarini, muhandislik, kommunikatsiya, transport, aloqa tizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Infratuzilma majmuasi – bu iqtisodiyotning tarkibiy asoslangan poydevori hisoblanadi. Tarkibiy o‘zgarishlarning ustun turuvchi vazifasi iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirish, ichki bozorni

mahalliy xalq iste'moli tovarlari va sanoat mahsulotlari bilan to'ldirish, infratuzilma xizmatlari, turizm sohalarini rivojlantirish hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiy siyosatida yaqqol ko'zga tashlanuvchi jihat – industrial tarmoqlar ustuvorligini ta'minlashda xorijiy investitsiyalar va kreditga katta o'rinn ajratilganligidir. 2011-yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratildi.

2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Kapital qo'yimalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobjiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Jami investitiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani, ayniqsa, muhimdir.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejayidigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida «Zenit elektroniks» qo'shma korxonasida «Samsung» kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni

paytda maishiy gaz plitalari, kondisionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

«Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida «MAN» yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuuning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazildi.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchisi yo'nalishi kabi yirik loyihalarini amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga-kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatlari faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o'tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunalarini, diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdag'i yo'lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruksiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo'nalishlarda xizmat ko'rsatadigan yo'lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent – Samarqand yo'nalishida mazkur ikki shahar o'rta sidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o'tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan «Talgo-250» yo'lovchi elektr poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi.

Bu poyezdlardan foydalanish maqsadida temiryo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamdag'i ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdag'i yo'llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temiryo'llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temiryo'l vokzallari rekonstruksiya qilindi va qaytadan jihozlandi.¹

Har bir mamlakat bozor tuzilmasiga va ishlab chiqarishning mayda va yirik ishlab chiqarish ko'lamiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistoni ijimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012-yil vatanimiz taroqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladı» nomli ma'luzasi. Xalq so'zi 20.01.2012-yil. №14 (5434)

O'zbekistonning iqtisodiy tuzilmalarini qayta shakllantirish bo'yicha qabul qilingan dasturida quyidagilar nazarda tutildi:

- birinchidan, Respublikaning chetdan tashib keltiriladigan xomashyo resurslari, butlovchi qismlar, oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lgan qo'yish asosida to'liq iqtisodiy erkinligiga erishish;
- ikkinchidan, o'z ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga aholining va butun xalq xo'jaligining hayotiy zarur mahsulotlarga, xalq iste'moli mollariga bo'lgan talabini ta'minlash;
- uchinchidan, iqtisodiyotning barqaror va mustahkam asosda shakllanishini ta'minlash;
- to'rtinchidan, bir yoqlama xomashyo yetkazib beruvchi yo'nalishga ega bo'lgan iqtisodiyotdan, mineral-xomashyo resurslari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni tashkil etish;
- beshinchidan, Respublikaning eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqlarda qoniqarli to'lov balansiga erishish, oltin-valuta zaxirasini mustahkamlash;
- oltinchidan, mehnat resurslarining to'la bandligini ta'minlash, xalqning urf-odatlariga, an'analariga mos keluvchi, yangi texnologiyalarga asoslangan mehnat muhitini yaratish;
- yettingchidan, hududiy va sohalar orasida yuzaga kelgan disproporsiyani bartaraf etish, respublika hududida ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish va rivojlantirish.

Hozirgi davrning eng muhim vazifasi ishlab chiqarish hajmini tushib ketishini bartaraf etish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, korxonalar, sohalar va butun mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishishdir.

O'zbekistonning qisqa vaqt ichida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o'sishni ta'minlashida respublika hukumati o'tkazayotgan investitsiya siyosati katta rol o'ynamoqda. Investitsiya faoliyatining shart-sharoitlarini belgilaydigan qonunlarini rivojlantirish va takomillashtirish davom etmoqda. Ular investitsiyalar va eksportni yanada rag'batlanirishga qaratilgan. Shunga qaramay, mamlakatimizda investitsiya siyosatini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalar borki, ularni ham hal etish kerak.

O'zbekistonda investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashni jadallashtirishda xorijiy kapitalning faol ishtiroki;
- O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga keng darajada integratsiyalash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;
- Respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keluvchi hamda xalq xo'jaligining integratsiyalashgan tuzilmasini yaratishda yordam beruvchi investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan olib borish;
- o'zini-o'zi valuta bilan qoplashni ta'minlovchi ishlab chiqarish loyihibariga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish;
- O'zbekistonning milliy kreditga layoqatligini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori darajadagi kredit oluvchi sifatidagi obro'-e'tiborini ta'minlash;
- ijtimoiy ya ekologik dasturlarni hal etishga yo'naltirilgan investitsiyalarga ko'maklashish.

Chet el tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash va yangilash, balki yangi ishlab chiqarish va korxonalarни yaratishning muhim omiliga aylanadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb etish va foydalanish hozirgi bosqichdag'i investitsiya jarayonining ahamiyatli qonuniyatni bo'lib hisoblanadi. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy va iqtisodiy xavfsizlik, davlat tarkibiy va takror ishlab chiqarish siyosatining o'zaro foydaliligi va ustuvorligini qo'llab-quvvatlash prinsiplari asosida amalga oshishi lozim.

Mazkur prinsiplarga tayangan holda investitsiya faoliyatining optimal shakllarini to'g'ri tanlashning mezonlarini aniqlab olish lozim. Bu mezonlarga quyidagilar kiradi:

- faoliyat sohasi va mahsulot tur'i (ilmiy jihatdan katta salmoqqa ega, texnik jihatdan murakkab va boshqalar);
- loyiha miqyoslari (mayda, o'rta va yirik);
- jalb etishning strategik maqsadi (asbob-uskunalar importidan tortib to ishlab chiqarish – boshqaruv tajribasidan foydalanishgacha).

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mayjud shakllarining yutuqlari va kamchiliklarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, eng maqbul shakl sifatida bevosita investitsiyalar hisoblanishi mumkin. Chunki ular investitsiyani qabul qilayotgan mamlakatning xo'jaligidan investorning

uroq muddatli manfaatdorligini mavjud bo'lishi va tashqi qarzlarga nishbatan katta foyda keltirishi bilan xarakterlanadi.

O'tish davridagi davlatlar iqtisodiyoti uchun xorijiy investitsiyaarning barcha ahamiyatini tushungan holda, O'zbekiston Respublikasi hukumati investitsiya iqlimini yaxshilash hamda xorijiy investorlar bilan munosabat sohasida qonunchilikni takomillashtirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi investitsion loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishdagi byurokratik to'siqlar va sansalorliklarni bartaraf etish, loyihalarni tanlab olish va ro'yobga chiqarish mexanizmini tartibga solish, kelishuvlar va tegishli ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini soddalashtirish maqsadida 1998-yil 9-fevralda Prezidentning «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga binoan davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish bo'yicha yagona vakolatli idora sifatida Vazirlar Mahkamasining Investitsiya dasturlari departamenti tashkil etildi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi jarayonida Departament faoliyatining asosiy yo'naliishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- investitsiya loyihalarini amalga ostirishning barcha bosqichlarida ularning harakatiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ochib berish va bartaraf etish;
- investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- investitsiya dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini tartibga solish.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jaib etish bo'yicha yaratilgan imtiyoz va rag'batlar tizimi yetarli darajada kompleks va turli-tuman hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishning hozirgi bosqichida eng katta qiziqish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2005-yilning 11-aprelida, qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jaib etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bu fikrlarning yaqqol dalilidir. Mazkur Farmonga binoan, 2005-yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jaib etadigan korxonalar quyidagi soliq va majburiy ajratmalarini to'lashdan ozod etiladi:

- asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i;

- mulk solig‘i;
 - ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodon-lashtirish solig‘i;
 - ekologiya solig‘i;
 - mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq;
 - Respublika yo‘l jamg‘armasiga ajratma.¹
- Ularni jalb etishning asosiy usullari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:
- qo‘shma korxonalarni tashkil etish (shu jumladan, xorijiy investorlarga o‘zbek emiteitlarining aksiya paketlarini sotish orqali);
 - O‘zbekiston territoriyasida to‘liq chet el kapitaliga tegishli bo‘lgan korxonalarni ro‘yxatdan o’tkazish;
 - konsessiya asosida xorijiy kapitalni jalb etish;
 - mamlakatning ma’lum mintaqalariga chet elliq investorlarni faol jalb etishga yo‘naltirilgan erkin iqtisodiy hududlar (EIH) ni tashkil etish.

Qisqacha xulosalar

1. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – qonuniy va voz kechib bo‘lmaydigan jarayondir va u bozorni shakkantirishda inqirozli holatdan chiqib ketishga yo‘naltirilgan. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda diqqat-e’tibor inqroz holatlarni bartaraf qilishga emas, balki mamlakatni shunday inqirozlik holatiga olib kelgan ichki sabablarni chuqur o‘rganishga, yuzaga keladigan chetlanishlar va nomutanosibliklarga (disproporsiyalarga) qarshi o‘z vaqtida chora ko‘rish, inqirozli holatlar yuzaga kelishining oldini oluvchi chora-tadbirlar o’tkazishga qaratilishi lozim.

2. Transformatsiyalashuv davrida davlat o‘z iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda shuni hisobga olishi kerakki, u ishlab chiqarishning ustun, katta istiqbolga ega tarmoqlarini, ya’ni muhim bo‘g‘inlarining rivojlanishini har tomonlama qo’llab-quvvatlashi zarur va bu bilan iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish siyosatini bosqichma-bosqich olib borishi lozim.

3. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyida-gillardan iborat bo‘ladi: agar ishlab chiqarish hajmining qisqarishi tarkibiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirishga bog‘liq bo‘lmasa, uning kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik; ustuvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2005-yil 11-aprel. Xalq so‘zi, 2005-yil 12-aprel.

vujudga keltirish, ishlab chiqarish faoliyati rag'batlantirilishiga ko'maklashish; davlat budgeti va korxonalar moliyaviy ahvolining bar-qororligini mumkin bo'lgan doirada ta'minlash; puuning qadrsizlanishi jarayonlarini to'xtatib qolish; to'lov balansi va davlat valuta zaxiralarining holatini yaxshilash uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish va shuning negizida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnni mustahkamlash; ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli ijtimoiy siyosatning muvozanatlashtirilganligini ta'minlash, aholining turmush darajasini mumkin qadar tutib turish va yaxshilash.

Asosiy tayanch tushunchalar

Makroiqtisodiyot – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyot.

Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtaisdagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy hofat.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakkantirishda inqirozli holatdan chiqib ketishga yo'naltirilgan, qonuniy va voz kechib bo'lmaydigan jarayon.

Barqarorlashtirish siyosati – davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ushlab turish, ishlab chiqarishning yalpi pasayishi va ommaviy ishsizlikning oldini olish, inflatsiya darajasini va pul emissiyasini boshqarishni ta'minlash, to'lov balansini saqlash borasidagi maqsadli siyosati.

Barqarorlashtirish siyosatining maqsadi – bu ichki va tashqi tengsizlik, ya'ni disbalansni bartaraf etish.

Monetaristik yondashuv – inflatsiya darajasini pasaytirish, pul massasini va yalpi to'lovga qobiliyatlari talabni keskin qisqartirish orqali pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslangan yondashuv.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun makroiqtisodiy beqarorlilik xos bo'ladi?

2. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining makroiqtisodiy muammolari nimalardan iborat?

3. Tarkibiy o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlarni tanlashning qanday mezonlari mavjud?
4. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ko'p qirraligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Iqtisodiyotai barqarorlashtirish dasturi o'z ichiga qanday chora-tadbirlarni oladi?
6. Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish nima uchun zarur?
7. O'zbekistondagi xususiy lashtirish va tarkibiy o'zgarishlar jarayonida chet el investitsiyalarining ishtiroki qay darajada?
8. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning qanday ustuvor yo'nalishlari mavjud?

IX bob. TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARIDA AGRAR SOHANI ISLOH QILISH

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti tarkibida agrar soha ahamiyatli o'rinni tutadi. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining aksariyat qismi aholining oziq-ovqat hamda sanoat tarmoqlarining xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini bevosita qondiradi. Shu bilan birga, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida agrar sohani isloh qilish muammolari nisbatan keskin, chuqurroq darajada namoyon bo'ladi. Yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini hal etish, qishloq xo'jaligi yuritishning samarali shakllarini tanlash, qishloq xo'jaligi mahsuloti hamda boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlari o'tasidagi narx paritetini muvofiqlashtirish, qishloq aholisining daromadlarini oshirish, qishloqlar qiyofasini yaxshilash kabi masalalarning samarali hal etilishi iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asoratlari ta'sirida vujudga kelgan agrar soha inqirozini bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-§. Agrar sektorning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni

Agrar munosabatlar – qishloq xo'jaligida yerga egalik va yerdan foydalanishning xususiyati bilan belgilanadigan munosabat. Qishloq xo'jaligi har qanday jamiyat hayotida muhim o'rinni egallaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchilik qismi shu tarmoqda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar to'g'risida so'z yuritar ekan, Prezident I.Karimov jumladan shunday deydi: «O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga qishloq xo'jaligi hamda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlarning respublikamiz hozirgi iqtisodiyotida o'ynayotgan roli sabab bo'ldi. Aynan agrar sektor O'zbekistonda iqtisodiy barqaroriikning qudratli omili bo'ldi. Butun agrar siyosatning muhim masalasi, negizi – yerga mulkchilik masalasidir».¹

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 202-203-b.

Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liq. Chunki qishloq xo'jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etgan soha bo'lib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mamlakatimizning oziq-ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlaydi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun xomashyo yetkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

Yer – ishlab chiqarish omili, muhim iqtisodiy resurs hisoblanadi. «Yer» atamasi foydali qaziimalarning butun rang-barangligini qamrab oladi: yerning o'zi (haydaladigan yer), suv resurslari, foydali qazilmalar, o'rmonlar, ekinlar. Yer yuzining muayyan joylari insonning ma'lum ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq: dengizlar, daryolardan baliqchilik uchun foydalaniladi, foydali qazilmalar konchilik sanoati uchun zarur, quruqlikning muayyan qismidan qurilish uchun foydalaniлади. Qishloq xo'jaligidagi yer o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: uning boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirib bo'lmaydigan asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanishi; qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin bo'lgan yerning cheklanganligi; uning muayyan hududda joylashganligi; bir mamlakatning turli hududlaridagi yerlar unumtdorligining farqlanishi va h.k.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'mi juda katta. Jumladan, mamlakatimizda 2011-yilda 6 million 800 ming tonna g'all'a, 3 million 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 million 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz, qariyb 3 million tonna bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirildi. Shu bilan birga, 6 million 600 ming tonna sut, 1 million 500 ming tonnadan ortiq go'sht, 3 milliard 500 million donadan ziyod tuxum tayyorlandi.

Qishloq xo'jaligining YalMdagi ulushi 2000-yildagi 30,1% dan 2010-yilda 17,5% ga qadar kamayishi tabiiy hol bo'lib, bu sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining jadal rivojlanishi va faollashuvi bilan bog'liq. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan erkin konvertlanuvchi valuta tushumining yarmidan ko'prog'i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Aholining 60% dan ortiqrog'i qishloq joylarda yashaydi. Xalqimiz turmush darjasasi, inson resurslari kattagina qismining ish bilan ta'minlanishi qishloq xo'jaligi bilan

bog'liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan mehnat resurslarining 28% dan ko'prog'i qishloq va o'rmon xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Shu boisdan ham qishloq xo'jaligiga e'tibor, ayniqsa, keyingi mustaqillik yillarda haqli ravishda katta bo'limoqda.

Bugungi kunda ham qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i hisoblanib kelmoqda. Buning sababi mamlakatimizda dehqonchilik va chovvachilik bilan shug'ullanish uchun qulay tabiiy sharoitlar – yil davomida quyosh yorug'ligi va issiqligining yetarli darajasi, hosildor tuproq, suv resurslari hamda eng asosiysi, un'anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan dehqonchilik bilim va malakasiga ega bo'lgan ishchi kuchining mavjudligi hisoblanadi. Biroq o'z navbatida ta'kidlash lozimki, mazkur sohaning YaIMdag'i ulushi yildan-yilga kamayib bormoqda. Aksincha, mamlakat iqtisodiyotida sanoat, xizmat ko'rsatish tizimining nisbatan tez rivojlanib borishi tufayli, ularning ulushi oshib bormoqda. Bu tabiiy hol hisoblanib, mamlakat iqtisodiyoti jadal o'sib borgan sari unda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi.

Agrar sektorning mamlakatimiz iqtisodiyoti tarkibida ahamiyatlidir o'ringa ega ekanligi o'tish davrida qishloq xo'jaligini isloh qilish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlardan biriga aylantiradi. Respublikamizda agrar sektorni isloh qilishning nazariy va amaliy masalalari Prezidentimiz I.Karimovning «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kabi asarlarda to'la asoslab berilgan. Bu asarlarda belgilanishicha, qishloq xo'jaligini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yerga mulkchilik masalasining hal etilishi;
- yerning meliorativ holatini yaxshilash va boshqa masalalarda davlat yordamini ta'minlash;
- qishloq xo'jaligida boshqaruv tuzilmalarini qayta tashkil etish;
- agrar sohada xo'jalik yuritish mexanizmlarini saqlab qolish;
- qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, moddiy texnika ta'minoti, agrokimyo xizmati ko'rsatish masalalarida yordam beruvchi tuzilmalar ishini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish;

– qishloqdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi agrar sektorida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan vazifalar orasida eng muhim jihat Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqaruvchilarning o'zlarida o'z mulkining xo'jayini hissini mustahkamlash uchun zarur ishlarning barchasini amalga oshirishdan iboratdir».¹

2-§. Agrar sohada mulkchilik muammosining hal etilishi

Prezident I.Karimov birinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasida so'zlagan nutqida quyidagilarni qayd etib o'tdi: «Qishloq xo'jaligidagi ishlar ahvolini tanqidiy ko'z bilan baholab, shuni ochiq tan olishimiz kerakki, qishloq xo'jaligini isloh qilishning hozirgi bosqichida qishloqda xo'jalik yuritishning zaif jihatlari ko'rinish qoldi. Bu birinchi galda dehqonning yerga, mulkka, ishlab chiqarilgan mahsulotga va daromadga egalik qilishining huquqiy asoslariga tegishlidir. Shu munosabat bilan «Yer to'g'risida»gi, «Mulk to'g'risida»gi, «Ijara to'g'risida»gi, «Kooperatsiya to'g'risida»gi, «Xo'jalik jamiyatlari va birlashmalari to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlarning ayrim qoidalarini qayta ko'rib chiqish zarur. Bugun yangi sharoit va talablarga javob beradigan me'yoriy va huquqiy hujjatlarning yo'qligi qishloqda islohotlarni va o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga to'sqintik qilmoqda. Barcha amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ularga sezilarli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish zarurati tug'ilmoqda. Boshqa masalalar, ayniqsa, yerdan foydalanish masalasi bo'yicha yangi qonunlar, eng avvalo Yer kodeksini qabul qilish lozim. Qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha yaqin yillarga mo'ljallangan aniq maqsadli dastur qabul qilish darkor»².

Qishloq xo'jaligini isloh qilishga bag'ishlangan shu maqsadli dasturning shakl-shamoyillari Prezidentning Oliy Majlis X sessiyasidagi nutqida tavsiflab berilgan. O'z nutqida yurtboshimiz shunday xulosaga keladi: «Eng muhim masala – mulk masalasi hal qilinmasdan turib mehnatni tashkil etishning har qanday mukammal tizimi ham samara

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.–T.: «O'zbekiston», 1995, 75-b.

² Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi faraqqiyoti – to'kin hayot manbal. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasidagi ma'tuza. T.6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 190-191-b.

Bormaydi, muvaffaqiyat qozonmaydi. Buni barchamiz yaxshi anglab o'llishimiz darkor». Shu bilan birga, «biz bugun sessiyada qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish haqidagi qonun loyihasini ko'rib eliqishga majbur bo'lmoqdamiz. Bozor munosabatlari har qanday sholiyat asosida, eng avvalo, iqtisodiy foyda yotishini, ishlab chiqarish xo'zsiz ravishda rentabelli bo'lishini taqozo qiladi. Biz doimiy ravishda bu san'atni o'rganishimiz zarur»¹. ... «Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida erishilgan barcha muvaffaqiyatlarni avvalambor yerni asrabuvaylash, yerga egalik munosabatini tiklash hisobidan izohlash mumkin. Haqiqatan ham, xususiy mulkchilikdan afzalroq va samaraliroq shaklini hali hech kim o'ylab topgani yo'q. Jahon tajribasini tahlil qilar ekanmiz, butun dunyoda bo'lganidek, avvalo bu o'rinda gap qanday yer haqida va yerga egalik munosabatining shakli to'g'risida ketayotganini tushunib olishimiz kerak. ... Alohida yer uchastkalari - shaharlardagi yer, kommunikatsiyalar o'tgan yer, korxonalar joylashgan yer, tomorqa va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer tushunchalarini aniq ajratib olish zarur».

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun mo'ljallangan yer haqida alohida to'xta lib o'tish zarur. Bu borada turli mamlakatlar o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjudligini ko'ramiz. Bu tafovutlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yeri sotish va sotib olishga to'la huquq berilishidan tortib, yerning butunlay davlat ixtiyorida bo'lishini o'z ichiga oladi. Buni Isroiyl va Yangi Zelandiya misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Davlatning yerga egaligi ancha yuqori o'rinn tutadigan mamlakatlar bor. Gollandiya, Belgiya, Daniya, Avstraliya singari mamlakatlar shular jumlasiga kiradi. Bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligi juda yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ulkan eksport salohiyatiga ham ega.

Iqtisodiy taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlarda yerga egalik qonunchilik tomonidan qattiq cheklab qo'yilgan hamda davlat tomonidan boshqariladi. Qishloq xo'jaligiga oid maxsus bilimga, ma'lum ish tajribasiga ega bo'limgan va boshqa tegishli talablarga javob berolmaydigan kishilarning yer sotib olishi taqiqlab qo'yilgan. Davlat yerga qo'yilgan narx ustidan nazorat qilib turadi. Boshqa so'z bilan aytganda, rivojlangan mamlakatlarda yerga egalik boshqa har qanday mulk egaligidan keskin farq qiladi hamda turli shart va omillar bilan chegaralab qo'yilgan.

¹ Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoni – to'kin hayot manbai. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasidagi ma'muza. T.6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 190-191-б.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati yerga egalik qilish, qishloq xo'jaligi yerlarining erkin savdosi borasida yanada qattiqroq talab va cheklanishlarni taqozo etadi.

Bunda hal qiluvchi o'rin tutadigan omillar quyidagilardir:

- dehqonchilikning sug'orish, suvdan foydalanish ishi bilan mustahkam aloqasi. Sug'oriladigan yerlarda yerdan shaxsiy foydalanishni joriy etish xo'jaliklararo yagona irrigatsiya tizimi bilan ziddiyatga olib keladi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va ixtisoslashtirish bilan bog'liq jihat. Paxta va g'alla singari g'oyat muhim tovar mahsulotlarni ayrim kishilarga mansub kichkina maydonlarda, alohida kishilar mehnati bilan, hatto yuksak mexanizatsiyani ishlatib ham yetishtirib bo'lmaydi. Bu ham yerni xususiy lashtirishni joriy etish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Xulosa shuki, bizning dehqonchiligidimiz asosan paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashmoqda. Bu ish aksariyat sug'oriladigan yerlarda amalga oshiriladi. Bu jarayon xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari orqali suv bilan ta'minlanadi. Shuning o'zi ham bizning sharoitimizda bunday yerlar sotish va sotib olish obyekti bo'lishi mumkin emasligini tasdiqlaydi.

Obyektiv shart-sharoitlar shuni ko'rsatadiki, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirishni xususiy shaxslar ixtiyoriga berish mumkin. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida foydalanimaydigan yerga nisbatan esa xususiy egalik qilish va foydalanish huquqi mavjud. Yerni undagi imoratlar bilan birga sotish, shaxsiy uy-joy qurilishiga yerlarni auksionlarda sotish, yerga egalik huquqini sotish va shu kabi qonun yo'li bilan ruxsat etilgan va keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida ma'lum yer uchastkalarigina oldi-sotdi obyekti bo'lishi mumkin. Ayni vaqtida, hukumat respublika uchun muhim bo'lgan bu muammoning yechimini topish yo'lida izlanmoqda. Chunki uni hal qilmasdan respublika tanlagan yo'l - sivilizatsiya yo'lidan borish mumkin emas. Boz ustiga, yerdan foydalanishning mavjud mexanizmi ham talabga mutlaqo javob bermaydi. Chunki dehqon bu yerdagi og'ir mehnati mahsulining o'z mulki ekanini his etmaydi.

I.Karimov bu muammoning quyidagi yechimini taklif qiladi: «Bu – qishloqda psychilik munosabatlarini rivojlantirishdir. Jahondagi ko'p-gina davlatlarda, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

ingrар islohotlar tajribasi ana shu xulosani tasdiqlaydi»¹. Mulk munosabatlarini vujudga keltirishning bunday shakliy mohiyati va aszalligi shundaki, yer xo'jalik a'zolari o'tasida taqsimlanadi, ammo hech kimga uni sotish-sotib olish huquqi berilmaydi. Yer va xo'jalikning boshqa mulki natural holatda emas, qiymat shaklida, ya'ni xo'jalik aktivi hisobga olingan holda taqsimlanadi. Bu boradagi barcha tadbirlar qonun va belgilangan me'yorlar asosida amalga oshirilishi kerak.

Xo'jalikning har bir a'zosiga sertifikat, ya'ni unga mulkning ma'lum qismiga hamda xo'jalik oladigan umumiy daromadning o'ziga tegishli qismiga egalik huquqini beradigan yuridik hujjat berilishi shart. Bu o'rinda xo'jalikning, eng avvalo, ijtimoiy va umumxo'jalik muammolarini hal etish manbai bo'lgan umumiy bo'linmas jamg'armasini ham esdan chiqarmaslik muhim.

Mulk munosabatlarini amalga oshirish butun jamaa mehnatining pirovard yakunlarini paychilar o'tasida dividend tariqasida, jamaada tasdiqlangan me'yorlar asosida taqsimlash jarayonida yuz beradi.

Mulkchilikning bu shaklida O'zbekistonning o'ziga xos dehqonchilik sharoitlarida xo'jaliklar irrigatsiya-meliorativ tarmoqlarining butunligi saqlanib qoladi; xo'jaliklarning mavjud yer va resurs salohiyatidan oqilona foydalaniлади; ishlаб chiqarishni ko'paytirish, zarar va xarajatlarni kamaytirish hamda xo'jalikning oxirgi daromadini o'stirishdan manfaatdorlik ortadi. Pay egasi bo'lgan xodimlarda xo'jalikning sof daromadidan ajratilgan dividend shaklidagi qo'shimcha rag'bat va daromad manbai paydo bo'ladi. Oxir-oqibatda kishilarning yerga, mulkka va o'z mehnati natijasiga munosabati o'zgaradi.

3-§. Qishloqda zamonaviy uy-joylar qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga, jahon andozalariga mos, zamonaviy arxitektura va dizayn asosda barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo'lgan shinam uy-joylar barpo etishga, ijtimoiy soha va ishlаб chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisining 18,3 millioni yoki 70,4 foizi qishloqda, 7,7 millioni yoki

¹ Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin bayot manbai. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasidagi ma'reza. T.6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 404-b.

29,6 foizi shaharda istiqomat qiladi. Shunday ekan, qishloqda yashayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish millionlab vatandoshlarimizning farovonligini yuksaltirishga, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch va hayotdan qoniqish hissini kuchaytirishga xizmat qiladi. Zamona viy qishloq avvalambor arxitektura va me'moriy rejalashtirish talablariga mos kelishi, bosh reja asosida tartib bilan qurilishi, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tarmoqlariga (elektr uzatish tarmoqlari, gaz, suv ta'minoti, yo'llar va boshqa sharoitlar) ega bo'lishi hamda zamona viy ko'rinishi va shinamligi bilan ajralib turishi lozim.

O'tgan yili qishloq joylarda biz 2009-yilda boshlagan, qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdag'i turar-joy massivlarini kompleks qurish ishlari e'tiborimiz markazida bo'lgani barchamizga ma'lum. Aynilsa, yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihalaring qulaylik nuqtayi nazaridan boshqatdan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari hajmini to'rt sotix o'rniغا olti sotix qilib belgilash to'g'risida qabul qilingan qarorlar alohida ahamiyat kasb etdi.¹

Me'moriy rejalashtirish talablariga ko'ra, qishloq aholi punktlari ularda yashayotgan aholi soniga qarab, 4 toifaga ajratiladi va shunga mos ravishda qishloqlarning me'moriy bosh rejasini ishlab chiqiladi. Birinchi toifaga aholi soni 100 dan 1000 kishigacha bo'lgan kichik qishloqlar, ikkinchi toifaga aholi soni 1000 kishidan 3000 kishigacha bo'lgan o'rtacha qishloqlar, uchinchi toifaga aholi soni 3000 kishidan 5000 kishigacha bo'lgan katta qishloqlar va to'rtinchi toifaga aholi soni 5000 kishidan ortiq bo'lgan yirik qishloqlar kiritiladi.

Mamlakatimizda jami 11820 ta qishloq aholi punkti mavjud bo'lib, ularning 5982 tasida (49,8 foizi) aholi soni 100 nafardan 1000 kishigacha, 4527 tasida (38,3 foizi) 1000 nafardan 3000 kishigacha, 1026 tasida (8,7 foizi) 3000 nafardan 5000 kishigacha miqdorni tashkil etadi va faqat 375 tasida (3,2 foizi) 5000 kishidan ortiq.

Shaharsozlik talablariga ko'ra, mamlakatimizdag'i har bir, aholi punkti me'moriy jihatdan bosh reja asosida qurilishi maqsadga muvosfiqdir. Bosh reja aholi punktlarini reja asosida barpo etishning keng qamrovli rejasini bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovaning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'jilangan eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkumasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarajqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi matuzasini o'rGANISH bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. — Toshkent: «Iqtisodiyob». - 2011. - 376 bet.

- rejalashtirish bo'yicha cheklovlar va atrof-muhitning mavjud holatini baholash sxemasi;
 - bosh reja (asosiy tarh);
 - qurilishni birinchi navbatga joylashtirish sxemasi;
 - shahar va tashqi transport magistrallarining sxemasi;
 - muhandislik kommunikatsiyalari sxemasi;
 - hududni muhandislik ishlari bo'yicha tayyorlash sxemasi;
 - atrof-muhit muhofazasi (atrof-muhitga ta'sirni baholash) loyihasi;
 - fuqarolik himoyasi bo'yicha texnik-muhandislik tadbirlar;
 - bosh rejaning asosiy qoidalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.
- Shahar va tuman hokimliklari bosh reja asosida:
- tumanning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqish;
 - aholi punktlari va ularning qismlari o'rtaсидagi chegaralarni belgilash;
 - muhandislik kommunikatsiyalari va transport xizmatini rivojlantirish loyihalarni ishlab chiqish;
 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik obyektlarini joylashtirish;
 - tabiatni muhofaza qilish loyihalarni ishlab chiqish;
 - shaharsozlik faoliyatining alohida tartibga solinadigan obyektlarini belgilash va ularning rivojini muvofiqlashtirish;
 - obyektlar qurilishiga ruxsat berish;
 - yerga egalik qilish munosabatlарini tartibga solish va boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagи barcha qishloq aholi punktlarini yuqorida keltirilgan zamonaviy me'morchilik va uni rejalashtirish talablariga to'liq javob beradi deya olmaymiz.

Respublikamizda mavjud jami 11820 ta qishloqdan 7371 tasining (62 foizi) bosh rejasi umuman ishlab chiqilmagan, 3982 tasining (34 foizi) bosh rejasi eskirgan, 467 tasining (4 foizi) bosh rejasi yaroqli hisoblanadi. Demak, mavjud qishloqlarimizning 96 foizini zamonaviy arxitektura talablari darajasidagi bosh reja bilan ta'minlash talab etiladi.

Zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos kelmaydigan qishloq aholi punktlari yagona rejaning mavjud emasligidan ko'p hollarda tartibsiz va tarqoq holda quriladi. Ayniqsa, tumanlar markazlaridan uzoqda joylashgan qishloq aholi punktlari bosh reja asosida qurilmagani bois uy-joylar ko'chalarga bo'lingan holda batartib qurilmagan. Bunday qishloqlardagi uy-joylarning tashqi ko'rinishida ham xilma-xillik uchraydi. Shu sababdan ko'rinishi

zamonaviy dizayn va shaharsozlik mezonlariga mos kelmaydi hamda kommunikatsiya tarmoqlariga ularash jarayonida noqulayliklar kelib chiqadi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan yurtimizda 2009-yilning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb elon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarini barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi.

Zamonaviy uy-joy loyihalari o'z ichiga zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini, respublika mintaqalarining tabiiy-iqlim sharoitlarini va joyning relefini, ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos keladigan, shinam va barcha qulayliklarga ega bo'lgan, kommunikatsiya tizimlariga ulangan, jahon andozalari darajasidagi qishloqlarni barpo etish bo'yicha yirik loyihalalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi to'g'risidagi PQ-1046-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2010–2014-yillar davomida aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo'lgan qishloq aholi punktlarining bosh reja loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha dasturga jami 62 ta, qishloq aholi punktlarining qurilishi hamda qishloq xo'jaligi korxonalarini hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish bosh rejasi sxema-loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha dasturda aholi soni 5 ming kishidan kam bo'lgan qishloq aholi punkti bo'yicha 990 ta, aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lgan aholi punktlari bo'yicha 353 ta loyihami amalga oshirish ko'zda tutilgan. Eng avvalo, qishloqda quriladigan zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun loyihalashtirish ishlaridan yaxshi xabardor, barcha moddiy-texnikaviy baza hamda yetarli ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, ixtisoslashgan loyiha-qidiruv institutlarini tashkil etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvarda qabul qilingan «MChJ Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to'g'risidagi» PQ-1049-sonli qaroriga muvosif tashkil etilgan «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti aynan shu vazifani amalga oshirishga xizmat qildi.

O'tgan yili «Qishloqqurilishloyiha» instituti tomonidan 31 ta uy-joy loyihasi, 16 ta ijtimoiy soha obyekti loyihasi va hududlardagi loyiha

institutlari tomonidan 20 ta uy-joy loyihasi ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etildi.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joy va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amaliga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni hayotga tatbiq etish uchun katta mablag' talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablag'larning manbalari quyida-gildan iborat:

- qishloq aholisining o'z mablag'lari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdag'i aksiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat budjetidan shu maqsadlar uchun ajratilayotgan mablag'lar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

Garchi qishloqlarda zamonaviy uy-joylar barpo etish loyihasining boshlanganiga endigina bir yil to'lganiga qaramay, hukumatimiz tomonidan shu maqsadlarga, moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan, 2011-yilning o'zida 2 trillion 600 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

Bu borada moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmi belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 200- yil 30-martda qabul qilingan «Qishloq qurilish bank» ochiq turdag'i aksiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to'g'risida»gi PQ-1083-sonli qaroriga muvofiq qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifat jihatdan yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida «Qishloq qurilishbank» tashkil etildi.

2011-yilgi Investitsiya dasturi doirasida faqat uy-joy qurilishi uchun «Qishloq qurilish bank» orqali aholiga 250 milliard so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu 2010-yilda ushbu maqsadlar uchun yo'naltirilgan mablag' miqdoridan 9 marta ko'p demakdir.

Sir emaski, zamonaviy uy-joy barpo etish katta mablag' talab etadigan loyihadir. Shu tufayli qishloq aholisining hammasi ham bu uy-joylarni xarid etishga qurbi yetmasligi mumkin. Shuni e'tiborga olgan holda, muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan qurilayotgan uy-joylarni imtiyozli foiz stavkalari bilan uzoq muddatli ipoteka kreditlari orqali aholiga topshirish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 25-mayda qabul qilingan 148-sonli qaroriga binoan yakka tartibda uy-

joy qurishga uzoq muddatli ipoteka krediti berishning asosiy shartlari quyidagicha belgilangan:

- kredit 6 oylik imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga beriladi;
- kredit miqdori eng kam oylik ish haqining 1000 barobargacha beriladi;
- kredit uchun foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining (12 foiz) 50 foizi miqdorida belgilangan (hozirgi kunda 6 foiz atrofida);
- barpo etiladigan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal kiritiladi.

Uy-joy qurilishi uchun kredit:

- qishloq joylarida domiy yashaydigan, ya'ni qishloq joyida doimiy ro'yxatdan o'tgan;
- ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan, ya'ni 18 yoshdan oshgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga;
- oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyiga, doimiy daromadiga, shuningdek, kredit bo'yicha to'lovlarni har oyda to'lashga qodir bo'lgan;
- quriladigan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan shaxslarga beriladi.

Bugungi kunda nafaqat zamонавиј va qulay uy-joylar va kottejlar qurish, ayni vaqtida bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, musiqa va sanat maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, xizmat ko'rsatish obyektlari, keng va ravon yo'llar, bir so'z bilan aytganda, qishloq aholisining qulay va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni o'z ichiga olgan zamонавиј va obod qishloqlarni barpo etish ko'zda tutilmoqda. Qishloqlarimiz taraqqiyotini yuksaltirish, ularni zamонавиј arxitektura talablari asosida qayta qurish, ijtimoiy infratuzilmalarni va kommunikatsiya tizimlarini keng ko'lamda barpo etish qishloq aholisining farovonligini yuksaltirish, ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir.

Qisqacha xulosalar

1. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.

2. Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayoni.

3. Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi xalq xo'jalik tarmoqlari. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi soha – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatish bilan bard bo'lgan tarmoqlar; ikkinchi soha – qishloq xo'jaligining o'zi; uchinchi soha – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); to'rtinchi soha – odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi).

4. Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatlari qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzuksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Asosiy tayanch tushunchalar

Agrar munosabatlari – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlari.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jaik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayoni.

Agrobiznes – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq sohalardagi namoyon bo‘lish shakli.

Davlat xo‘jaligi (sovxozi – sovetskoe xozyaystvo) – davlat mulki asosida, qishloq xo‘jaligi davlat korxonasi shaklida tashkil etiluvchi, asosan sobiq ittifoq davrida hamda respublikamizda bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki vaqtlarigacha amal qilib kelgan asosiy xo‘jalik yuritish shakllaridan biri.

Fermer xo‘jaligi – yerni uzoq muddatli ijara olish asosida tashkil etilgan, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik shakli.

Qishloq xo‘jaligi arteli – asosiy ishlab chiqarish vositalari umumlashtirilib, artel a‘zolaridan har biri ijtimoiy xo‘jalikda shaxsiy mehnati bilan qatnashishi kerak. Bundan tashqari, artel a‘zolari tomorqa shaklidagi shaxsiy yordamchi xo‘jalikka ega bo‘lib, ma’lum miqdorda chorva va parrandalarni saqlashi mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Agrar sektorning iqtisodiyot tarkibidagi o‘rnini qanday?
2. Jamoa va shirkat xo‘jaliklarining umumiyligi tomonlari va farqlari nimalardan iborat?
3. Qishloqda mulkchilik muammosini hal etish yo‘nalishlari qanday?
4. «Pay» nima? Uni mulkchilik shaklining bir ko‘rinishi sifatida baholanishini asoslab bering.
5. Oilaviy pudratning qanday afzalliklari mavjud?
6. «Fermer xo‘jaligi» va «Dehqon xo‘jaligi» tushunchalari o‘rtasidagi farqni izohlab bering.
7. Nima uchun fermer xo‘jaligi agrar sohadagi xo‘jalik yuritishning istiqbollisi shakli hisoblanadi?
8. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarining tashkil topish yo‘llari qanday?

X bob. TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARIDA IJTIMOIY SIYOSATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi davri uzoq davom etuvchi, serqirra va murakkab jarayondir. Turli mamlakatlar uchun transformatsiyalashuv davrining mazmun va muddat jihatidan yagona qabul qilingan andozasi mavjud emas hamda bo'lishi ham mumkin emas. Iqtisodiy taraqqiyot jihatidan bir xilda bo'lgan ikki mamlakat uchun transformatsiyalashuv davrining davomiyligi bir xilda bo'lmasligi mumkin. Zero, transformatsiyalashuv davrining davomiyligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Asosiy omillardan biri sifatida transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining ziddiyatlari va kamchiliklarining darajasini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, transformatsiyalashuv davrida mamlakatdagi nafaqat iqtisodiy holat, balki ijtimoiy holat ham yetakchi o'rinn tutadi. Shunga ko'ra, davlatning ijtimoiy siyosati, uning tarkib topish xususiyatlari, ijtimoiyadolat konsepsiysi va uning aralash iqtisodiyotga o'tish sharoitida rivojlanishi masalalari muhim hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyatning iqtisodiy, demokratik va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur bob mana shu masalalarining nazariy asoslarini ko'rib chiqishga bag'ishlanadi.

1-§. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining ziddiyatlari va kamchiliklari

Milliy davlatchilikni shakllantirish davrida demokratik islohotlarini o'tkazish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish va bozor munosabatlariiga o'tishda ijtimoiy masalalariga alohida e'tibor berish lozim. Bu haqda ko'p mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyoti, yangi mustaqil davlatlarning islohotlashtirish yillardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatining tahlili guvohlik beradi.

Tarixdan ma'lumki, uning keskin burilishlarida, ya'ni ijtimoiy formatsiyalar al mashgan paytda, ijtimoiy muammolar va qaramaqarshiliklar kuchli tavsif kasb etadi, milliy xavfsizlikka tahdid qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Uning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ijtimoiy ziddiyatlar har doim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qilgan. To'planib qolgan ijtimoiy muammolarning muhimlik darajasi va hokim tuzilmalarning bu muammolarning hal qilish xususiyatiga bog'liq. Ya'ni bu muammolar evolutsion yo'llar bilan hal qilinishi yoki ijtimoiy jarayonlar shaklidagi stixiyali portlashlar, fuqarolik urushi va revolutsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, insonlarni ijtimoiy motivatsiyasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Inson mohiyatan ijtimoiy mavjudot, uning uchun islohotlarning mazmuni va maqsadlari, real natijalari to'g'risidagi tasavvurlari qanchalik haqiqatga yaqinligi katta ahamiyatga ega. «Agar o'tish davrida pirovard maqsadga erishish – jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotini ruyobga chiqarish uchun ayrim bosqichlarda odamlarning moddiy ahvolini yomonlashuviga olib keladigan nomatlub, ba'zan keskin qarorlar qabul qilishga to'g'ri kelishi hisobga olinsa, aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlarini qanchalik ahamiyat kasb etishi ayon bo'lib qoladi».¹

Masalan, ko'p mamlakatlar, ya'ni sobiq sovet mamlakatlari, islohotlarning boshlang'ich bosqichida ichki qarz va valuta rusurslarini iste'mol tovarlarininig importini kengaytirishga yo'naltiradi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qabul qilmaydilar. «Oqibatda milliy sanoat va qishloq xo'jaligi inqirozga yuz tutdi, ba'zan esa barbod bo'lgani holda katta valuta mablag'lari havoga sovurildi. Biz esa yengil yo'lni qidirmadik. Isloh qilishning dastlabki bosqichlarida iste'mol bozorini bir qadar cheklashga majbur bo'ldik. Ayni chog'da mablag' va zaxiralarni iqtisodiyotdag'i tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan, ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaliv korxonalar barpo etib, ichki bozorni o'z mollarimiz bilan to'ldirish yo'lidan bordik. Shu maqsadlardan kelib chiqib, o'z mablag'larimiz va olgan qarzlarimizning asosiy qismi investitsiyalarga, respublikaga yangi texnologiya va texnika keltirishga sarflanmoqda. Iste'molni emas, balki investitsiyalarni ko'paytirdik. Bugunga kelib, bu siyosat o'z samarasini bermoqda. Bu Asaka shahridagi avtomobil zavodidir. Bu Buxoro neftni qayta ishslash zavodini ishga tushirishdan iboratdir. Bu – Ko'kdumaloq va Mingbuloq konlarini ishga solish, chet elliq sheriklar ishtirokida o'nlab to'qimachilik va ip-yigiruv fabrikalarini, Xorazm viloyatida qand

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartasi va taraqqiyot kafoliatlari». –T.: «O'zbekiston», 1997, 213-b.

zavodi, Qizilqum fosforit kombinasi, Qoraqalpog'iston dagi Qo'ng'irot mudda zavodini qurish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, shuningdek, oziq-ovqat va mahalliy sanoatga qarashli o'nlab yangi va munaviy korxonalar demakdir»¹.

Jiddiy ijtimoiy qarama-qarshiliklar yuzaga keltiradigan sabablar islohotlar yo'nalishida byurokratik to'siqlar, ijtimoiy adolatning buzilishi, hokim tuzilmalarda korupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, qiyin ijtimoiy holatning sabablaridan biri, katta miqyosdagi islohotlarning uzoq davom etishidir. Chunki, transfomatsiyalashuv davrining o'zi qisman yechilmagan ijtimoiy muammolarining majmuasini keltirib chiqaradi. Undan tashqari, bir siyosiy va iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tish yangi muammolarni tug'diradi va aniq xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bir tekis, asoratlarsiz va ijtimoiy qiyinchiliklarsiz kechmaydi. Bu obyektiv jarayon: 1) iste'molchilik narxlari va ta'riflarini vujudga keltiradi; 2) ishlab chiqarishni pasaytiradi; 3) to'lovlardagi tanazzullarga olib keladi; 4) pul muoma lasining buzilishi, iste'mol narxlarining keskin oshishishga sabab bo'ladi, to'liq va qisman ishsizlikning soni ortadi, aholining aksariyat qismini qashshoqlashuviga olib keladi.

To'rtinchidan, transfomatsiyalashuv davrining keskin ijtimoiy muammosi hayot tarzidan charchagan insonlarning o'z hayotlarini o'zgartira olmayotganidir.

Transfomatsiyalashuv davrida insonlar ongida psixologik o'zgarishlar yuz beradi va bu albatta og'riqsiz bo'lmaydi. Bu davrdagi qiyinchiliklardan va insonlarning yangi hayot sharoitlariga moslashuvidan qochib qutilib bo'lmaydi.

Transfomatsiyalashuv davrida eskicha va yangicha qarashlar hamda o'tgan va hozirgi zamон tizimlari afzalliklari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kuchayadi, pul ishlab topishga bo'lgan umid yo'qoladi. Ijtimoiy muammolarning kuchliligi shundaki, bu ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi keskin farqni keltirib chiqaradi, bu ularning qarshiliklariga qarmasdan, ixtiyorsiz ravishda yuz beradi. Shuning uchun demokratik davlatning o'tish davridagi muhim vazifasi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni neytrallashtirish, ma'lum chora-tadbirlar yordamida bu jarayonlarni yumshatishdir.

¹ Karinov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartnari va taraqqiyot kafoladilar». -T.: «O'zbekiston», 1997. 213-b.

2-§. Ijtimoiy adolat konsepsiysi va uning aralash iqtisodiyot o'tish sharoitida rivojlanishi

Ijtimoiy kelishuvga, shu jumladan millatlararo totuvlikka erishish barqaror demokratik va iqtisodiy rivojlanishni, ijtimoiy birdamlikni ta'minlash – ijtimoiy ziddiyat va tengsizliklarning o'zlarini adolatsiz ravishda hamma narsadan bebahra bo'lib qolgan yoki haq-huquqlari kamsitilgan deb hisoblovchi butun-butun aholi guruhlari va tabaqalari vujudga keladigan darajaga borib yetmasligiga erishish demakdir. Shu boisdan ham yetakchi tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

«Gap ijtimoiy himoya tizimining ustuvorligi haqida borar ekan, bunda eng avvalo bozor iqtisodiyotini barpo etish biz uchun birdan-bir maqsad emasligi nazarda tutiladi. Islohotlarning mazmuni va maqsadi O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat'i nazar, shaxs sifatida namoyon bo'lish, o'z qobiliyatini, iste'dodini namoyish etish, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish imkoniga ega bo'ladigan zarur shartlarni yaratishdan iboratdir»¹.

Bozor munosabatlariiga o'tishning ilk davrida O'zbekiston oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordi. Hukumat vaziyatni nazorat qilish va ijtimoiy sohani mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rib qo'ydi. Islohotlar boshlang'ich bosqichining har bir aniq davriga moslab ijtimoiy himoyalashga oid chora-tadbirlarning tegishli tizimi ham yaratildi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ko'nikish chora-tadbirlarini o'zgarib borayotgan iqtisodiy sharoitlarga moslash-tirishning o'ziga xos vositasi yaratib qo'yildi. Bu maqsadga erishmoq uchun davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan:

– miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari ham, imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bavosita to'lovlari ham keng qo'llanildi. Masalan, eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo'ldi;

– qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlarning butun bir majmui: boshlang'ich sinflar o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tabdid, barqarorlik shartlari va taroqqiyot kafolatlari. T. 6. – T.: «O'zbekiston», 1998, 169-b.

maktub o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar amal qilib turdi;

– ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar-joyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdag'i kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi va hokazo.

Shunday qilib, qayta taqsimlash vositasi keng ko'lamda ishga solindi.

Narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustun yo'nalihilardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. 1992–1994-yillard mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi, ularning miqdorlari bu davrda tegishli ravishda 428 baravar va 1230 baravar ko'paytirildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning ikkinchi muhim yo'nalihi sifatida iste'mol mollarini sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlataladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kundalik zarur tovarlarning cheklangan turlarini me'yorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutildi. Bu tadbirdardan tashqari, 1992–1994-yillarda non va non mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kirsovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transport xizmatlari uchun dotatsiyalar qisman saqlab qolindi. Ayni vaqtida respublikadagi iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o'tishga tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki davrida butun aholi oldindan ijtimoiy himoya qilindi. Bu majburiy chora edi. Uni zarur qilib qo'ygan hol shuki, davlat narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining xarid qobiliyatini himoya qilishi kerak edi. Oldindan ko'rilgan ijtimoiy chora-tadbirlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi, aholida amalga oshirilayotgan islohotlar yo'liga ishonch paydo qildi. Ayni vaqtida islohotlarning boshlang'ich bosqichida qo'llanilayotgan ijtimoiy himoya choralarini chuqur tahlil qilish ularning kamchiliklarini, eng avvalo, isrofgarchilikni va boqimandalik kayfiyati kuchayayotganligini ko'rsatdi. Dotatsiya va imtiyozlar muhtojlik darajasini hisobga olmagan holda barcha aholiga baravar taalluqli qilib qo'yildi. Bu hol ko'pincha o'ziga to'q oilalarni ham dotatsiya va imtiyozlardan foydalaniishiha olib keldi.

Shu sababli islohotlar chuqurlashib borgan, bozor munosabatlari rivojlangan sari amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy

yo‘nalishlariga tuzatishlar kiritildi. Eng katta e’tibor haqiqatan ham muhtoj oilalarga yordam berishga qaratildi. Aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqildi.

3-§. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi iqtisodiy, demokratik va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish sharti sifatida

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqlashgan soliq solish yo‘li bilan shakllantirish va uni budjet orqali aholi turli guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to‘lovlar bilan birga bozor narxlarini o‘zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta’milanganlarga pul yoki natural yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo‘lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ijtimoiy to‘lovlarning maqsadi jamiyatdagi mumosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflatsiya sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste’mol tovarlariga narxning o‘sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya’ni nominal daromadlarni narxlar o‘sishiga bog‘liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi aholi kambag‘al qatlamini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Amaliy hayotda qashshoqlikning o‘zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal me’ori bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarakatlarini ham o‘z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko‘zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darjasи, shaxsiy mol-mulkি miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda aholida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishlar I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»¹ kitobida to'liq bayon etilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalgya oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993-yil joriy etilgan yangi yagona ta'rif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini ta'rif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasini bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhimmi mahsulotlar eksportini bojxonalar tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlarini joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalgya oshirishning uchinchi yo'nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab - quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – nafaqaxo'rilar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish – ijtimoiy siyosatni amalgya oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

¹Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 119-138-b.

Yangilangan ijtimoiy siyosatadolat tamoyillariga izchilik bilan
rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko'maklashishning mavjud usullarini
va pul bilan ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi.
Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini
qamrab olishni ko'zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta'minlangan va
mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llanilib, shu maqsad uchun
davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot
hamda jamg'armalarning mablag'lariidan ham foydalaniadi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam
daromadli oilalar yordamdan bahramand bo'lувчи asosiy kishilar
hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat
mahalla orqali yetkazib beriladi. Bu tizimda kam daromadli oilalarga
beriladigan moddiy yordam mahalla orqali yetkaziladi. Shu maqsadda
mahallalarda budjet mablag'lari, korxona va tashkilotlar, tadbirdorlik
tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o'tkazgan mablag'lari
hisobidan maxsus jamg'armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimi mehnatga rag'batlantira-
digan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo'lishini ham taqozo
qiladi.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj
tabaqalarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali
oilasining farovonligini ta'minlashga intiluvchi kishilar uchun teng
sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishni yaxshilash quyidagi masalalarni
hal qilish bilan bog'liq.

Birinchidan, ishlab chiqarish barqarorlashuvining mukammal
rivojlanishi. Samarali inflatsiyaga qarshi chora-tadbirlarning o'tka-
zilishi, iste'mol tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishni tezlashtirish,
milliy valuta va ichki iste'molchilar bozorini mustahkamlash natijasida
islohotlarni boshlang'ich bosqichdayoq hayot darajasida ushlab turish va
keskin tushib ketmasligiga imkon yaratish.

Ikkinchidan, ijtimoiy va xayriya tashkilotlari va fondlarini keng
qamrab olish, ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmi
insonlarning mehnat faoliyatini va tadbirdorligini oshirishga qaratilgan.

Uchinchidan, ijtimoiy himoyani yaxshilash – bu insonlarning
qobiliyatlarini faollashtirishga qodir bo'lgan kuchli motivatsion
mexanizmni shakllantirishdir.

Munosabatlarni shakllantirish, qachonki shaxsiy qobiliyatlar va
mehnat farovonlikning barqaror asosi bo'lganda amalga oshadi. Buning

uchun xususiy mulk institutlarining rivojini tezlashtirish zarur. Bozor shuroitiga moslashishi tadbirkorlik va xususiy mulkehilik hisobiga sholining yangi daromadlarining aksariyat qismini shakllantirishni ta'minlab bermoqda.

To'rtinchidan, aholini ijtimoiy himoya qilishni yaxshilash sholining daromadlarini va hayot darajasini keskin farqlashuviga yo'l qo'ymaslikdir. Bugun aholining yaxshi ta'minlangan qismi va aksincha, kamroq daromadga ega bo'lgan qismining daromadlari o'ttasidagi farq 8 martadan 7,5 martagacha qisqardi.

Beshinchidan, aholini ijtimoiy himoya qilishni yaxshilash – bu kamchiliklarga qarshi kurashish, aholining nochor qatlamlarini himoya qilishni kuchaytirish.

Zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biri – bu qashshoqlik. Hattoki eng boy mamlakatlar ham bu muammodan qutila olmaganlar. BMT Bosh Assambleyasi 1996-yilni xalqaro qashshoqlikka qarshi kurash yili deb e'lon qildi.

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi sharoitida qashshoqlik muammoi keskin xarakterga ega. Qashshoqlik kategoriyasiga ijtimoiy nochor guruuhlar (bemorlar, keksalar, ko'p bolali oilalar) bilan birga o'rtacha va o'rtachadan yuqori daromadga ega bo'lgan, daromadlari davlat budgetidan qoplanadigan guruuhlar (o'qituvchilar, shifokorlar, olimlar, artistlar) ham kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati o'zining ijtimoiy siyosatini oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalik va bo'salikni himoyalash bo'yicha kafolatlar yaratish tizimi va yosh avlodni professional tayyorgarligi bo'yicha islohotlar o'tkazish mexanizmmini, oilalarni mustahkamlash va ularni moddiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan turli ijtimoiy jamg'armalarni yaratishga qaratgan.

Qisqacha xulosalar

1. Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

2. Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu

daraja moddiy ta'minlanganlik minimumni yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

3. Dunyodagi barcha mamlakatlар aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlар aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

4. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni budjet orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat.

5. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Aholi daromadlari – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

Ijtimoiy to'lovlari – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shakida yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlari.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

Ish haqi – ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unum-dorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy siyosat nima va uning qanday asosiy yo'nalishlari mavjud?

2. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz?

3. Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

4. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

5. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering.

6. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar xarakterlab beradi?

7. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'z fikringizni bildiring.

8. Ijtimoiy barqarorlikning mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, demokratik islohotlarga ta'siri qanday?

XI bob. OCHIQ TASHQI SIYOSATNING SHAKLLANISHI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan ochiq tashqi siyosatni shakllantirish, jumladan, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'llini tanladi. Qisqa davr ichida tashqi iqtisodiy aloqalarning me'yoriy-huquqiy asoslari ta'minlandi, mamlakatimiz ko'plab xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Bu esa bugungi kunda integratsiyalashuv jarayoni jahoning alohida mintaqalari barqarorlashuvining omiliga aylanganligi, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlardan to'liq foydalanish faqat jahon hamjamiyati bilan samarali aloqalar asosida ta'minlanishi mumkinligini anglatadi. Shunga ko'ra, ushbu bobda transformatsiyalashuv davrida intergatsiyalashuvning turli shakl va ko'rinishlari, hozirgi sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi masalalarini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi.

1-§. Integratsiyalashuv jarayoni jahoning alohida mintaqalari barqarorlashuvining omili sifatida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1991-yil 31-avgust kuni Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning Davlat mustaqilligini e'lon qildi. Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida» Oliy Kengash bayonoti qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi, - deb ta'kidlanadi Bayonotda, - to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'yмаган holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi».

Mazkur sessiyada «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilinib, 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Shuningdek, Oliy Kengashda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

O'zbekistonning Davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasi bo'ldi. O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligini quvonch bilan kutib oldi va ma'qulladi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?» mavzuida 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan referendum natijalari yaqqol misol bo'la oladi. Umumuxalq referendumida saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1% yoki 9 min. 898 ming 707 kishi qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini yoqlab 9 min. 718 ming 555 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2% ovoz berdi.¹

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatni suveren davlat sifatida qaror topotirish imkoniyatlari qo'lga kiritildi. Prezidentimiz tomonidan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishning quyidagi asosiy tamoyillari belgilab berildi:

- birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlарining ustunligi;
- ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik;
- uchinchidan, mafkuraviy qarashiardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- to'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.²

Sanab o'tilgan tamoyillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz uchun tashqi aloqalarning rivojlantirilishi xavfsizlik va barqarorlikning kafolati sifatida qaraladi.

Shu o'rinda jahon hamjamiyatining o'zi murakkablashib, serqirra bo'lib borayotganligi ahamiyatlari holat hisoblanadi. Endilikda hech bir mamlakat o'zini jahon hamjamiyatidan alohida yoki uning manfaatlariga zid ravishda qo'ya olmaydi. Chunki butun dunyo tobora yaxlit va bir-biriga bog'liq tizimga aylanib bormoqda. Bu esa tashqi aloqalarning barcha jabhalari – siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa yo'naliшlardaги biron bir mamlakatning xatti-harakati muqarrar

¹ O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqiyot yo'llida. – T.: «O'qituvchi», 2004, 4-5-b.

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 296-297-b.

ravishda boshqa ko'plab mamlakatlarning harakatlariga muvofiq tushishi, ularni kamsitmasligi yoki manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim. Mazkur holatni Prezident I.Karimovning quyidagi so'zlari bilan yanada aniqroq ifodalash mumkin:

«XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek, umuman – butun sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning quadratli omili deb hisoblamoq zarur».¹

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv tavsifdagagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi va globallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon fan-texnika revolutsiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Integratsiya jarayonlarini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining oshishidir. Ochiq iqtisodiyotning o'ziga xos belgisi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga chuqur kirishganligi;
- tovirlar, kapital, ishchi kuchining mamlakatlararo harakati yo'lidagi to'siqlarning kamaytilishi yoki to'liq bartaraf etilishi;
- milliy valuta konvertatsiyasining ta'minlanganligi.

Shunday qilib, integratsiya milliy darajadagi iqtisodiy o'sish jarayonlarining o'zaro birikish orqali tavsiflanib, buning natijasida yagona xo'jalik organizmi shakllanadi. Real hayotda bir vaqtning o'zida integratsiyalashuv va integratsiyalashdan qaytishdan iborat ikki tendensiya amal qiladi. Bundan tashqari, ba'zi bir sabablarga ko'tra turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlan-maydi. Shunga ko'tra, integratsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsa-tish mumkin:

- qat'iy (bir tomonlama naqli) integratsiya. Bu turdagagi integratsiya tashqi tavsif holatlari bilan shartlangan bo'lib, mazkur jarayonlardan ba'zi mamlakatlar naf ko'rvuchi hisoblansa, boshqa birlari donor hisoblanadi;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.
– T.: «O'zbekiston», 1997. 296-297-b.

– moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya. Bu turdag'i integratsiyada har bir mamlakat bir vaqtning o'zida ham donor, ham naf ko'ruch'i hisoblanadi.

Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida quyidagi bir qator shart-sharoitlarning mavjudlig'i ta'sir ko'rsatadi:

– integratsion aloqaga kirishayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan bir xil darajada bo'lishi hamda bir turdag'i xo'jalik tizimlariga ega bo'lishi;

– ularning hududiy jihatdan yaqinligi, yagona mintaqada joylashganligi va umumiy chegaraga egaligi;

– ularning tarixan tarkib topgan va yetarli darajada mustahkam iqtisodiy aloqalarga egaligi;

– iqtisodiy manfaatlar va muammolarning umumiyligi hamda ularni hal etishda birlgiligidagi harakatning samaradorligi va h.k.

2-§. Integratsiyalashuvning turli shaki va ko'rinishlari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tadqiq etish, unda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish va mazkur jarayonning eng samarali shakllarini ko'rsatib berishga intilish bu boradagi turli nazariyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi (5-jadval).

Integratsiyalashuv jarayoni to'g'risidagi turli nazariyalar va ularning asosiy g'oyalari

5-jadval

Yo'nalishlari	Asosiy namoyandalari	G'oyaning qisqacha mazmuni
Erta neoliberalizm	V.Repke, M.Alle	To'liq integratsiya – bir necha mamlakatlar miqyosida yagona bozor mikonining tashkil etilishi. Bu makonda erkin raqobat va bozorning stixiyali kuchiari amal qilib, davlat siyosati unga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga davlatning aralashuvni inflatsiya, xalqaro savdo va to'lov nisbatlarining buzilishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi
Keyingi neoliberalizm	B.Balass	Iqtisodiy integratsiya davlatning iqtisodiy hayotdag'i ishtirokining faol-

		lashuviga olib keladi
Korporatsionalizm	S.Rolf, Yu.Rostou	Bozor mexanizmi va transmilliy korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatishi xalqaro iqtisodiyotning integratsiyalashuvini, uning ratsional va muvozanatlari rivojlanishini ta'mintash imkonini beradi
Strukturalizm	G.Myurdai	Bozor mexanizmining erkin amal qilishi ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashuvida ma'kum nomutanosibliklarni, daromadlardagi tengsizlikning chuqurlashuvini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy integratsiya - integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning chuqur jarayoni bo'lib, buning natijasida sifat jihatidan yangi integratsiyalashgan makon, nisbatan takomillashgan xo'jalik organizmi paydo bo'ladi
Neokeynschilik	R.Kuper	Mamlakatlarning erkinligini maksimal darajada saqlab qolgan holda integratsiya jarayonlaridan olinadigan naflikni ko'paytirish lozim. Xalqaro integratsiyani rivojlantirishning ikki varianti mavjud: 1) iqtisodiy maqsad va siyosatni muvofiqlashtirgan holda milliy erkinlikni yo'qotish asosidagi integratsiya; 2) milliy musatqillikni imkon qadar saqlab qolish shartiga asoslangan integratsiya. Bu variantlarning hech biri sof holda mavjud bo'lmay, integratsiyalashuvchi tomonlarning ichki va tashqi siyosatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan bu variantlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llash zarur
Dirijizm	Ya.Tinbergen	Integratsiya jarayonlarida bozor mexanizmi hal qiluvchi rolga ega emas. Xalqaro iqtisodiy tuzilmalarning tashkil etilishi va amal qiliishi integratsiyalashayotgan mamlakatlar tomonidan umumi iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi, sotsial qonunchilik bo'yicha kelishuv, kredit siyosatining muvofiqlashtirilishi asosida amalga oshirilishi mumkin

Yuqoridagi turli-tuman nazariyalarning umumiy tavsifi shu ko'rsatadiki, ularning har biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ma'lum jihatlarini ochib berishga, bu boradagi muammolarni hal etish va yangi g'oyalarni rivojlantirishga qaratilgan. O'tish davri iqtisodiyotida mazkur nazariyalarning to'g'ri va ilmiy asoslangan tomonlardan foydalangan holda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga intilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya turli mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining barqarorlashib, chuqurlashib rivojlanishi, ular xo'jaliklarining chambarchas birlashish jarayonlaridir. Mikrodarajada bu jarayon hudud jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar alohida firmalarining o'zaro ta'siri orqali, ular o'rtaisdagi turli-tuman iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, shu jumladan chet ellardagi filiallarni tashkil etish asosida boradi. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlar iqtisodiy birlashmalarning shakllanishi hamda iqtisodiy siyosatlarning kelishuvi asosida amalga oshadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakltari quyidagilar:

- erkin savdo hududlari. Bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasiqa qatnashuvchi mamlakatlar o'rtaisdagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Erkin savdo hududlarining tashkil etilishi ichki bozorda milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtaisdagi raqobatni kuchaytirib, bu bir tomondan, milliy ishlab chiqaruvchilarning bankrot bo'lishi xavfini kuchaytirsa, boshqa tomondan ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish uchun rag'bat yaratadi. Bunga Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtaisdagi o'zaro bitim misol bo'la oladi;

- bojaxona ittifoqi. Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo hududlarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Yevropa Ittifoqi (EI) bojaxona ittifoqiga yorqin misoldir;

- to'lov ittifoqi. Bu milliy valutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta'minlaydi. Yevropa hamjamiyati, Janubi-sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

- umumiy bozor. Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo ta'rif bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi. Bunga Yevropa

Iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning doirasida barcha boj to'lovlar va import me'yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Yevropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

– iqtisodiy va valuta ittifoqi. Bu davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng olyi shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakkllari umumiy iqtisodiy va valuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.¹

3-§. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shartsharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilash taqozo etiladi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarda o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.²

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdag'i iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlарини o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalar, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi.

¹ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 709-710-b.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998, 266-267-b.

O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: «Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir yaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqaga ko'lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir».¹

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin: global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy.² Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o'ziga xos vazifalari mavjud.

O'zbekistonning global darajada amalga oshiriluvchi strategik integratsion vazifasi – bu mamlakatdagi barcha xo'jalik subyektlarining tashqi bozor bilan o'zaro aloqasini ta'minlash uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida uning xalqaro valuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishi. O'zbekistonning BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Yevropa hamjamiyati, NATO, Jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) kabi tashkilotlar faoliyatidagi faol ishtiroki uning jahon xo'jaligiga yanada kengroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

O'zbekistonning transkontinental darajada amalga oshiriluvchi integratsion vazifasi – bu xalqaro transsosiyo Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) doirasidagi o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirishdan iborat. Bu tashkilot 1992-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'z ichiga Osiyo qit'asining 10 ta davlati (Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon)ni oladi. Uning asosiy maqsadi – xo'jalikning transport,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 299-b.

² Qararsiz: Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики / Под ред. А.Х.Хикматова. – Т.: «O'zbekiston», 2001, 292-b.

kommunikatsiyalar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo, turizm, ishchi kuchi resurslarini rivojlantirish kabi sohalarida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

O‘zbekiston mintaqalararo darajada yangi mustaqil davlatlar – MDH mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishadi. O‘zbekiston birinchilar qatorida MDHni tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, integratsion va kooperatsion aloqalarini mustahkamlash hamda uning Xalqaro iqtisodiy qo‘mita (MEK), Davlatlararo bank (MGB), MDH Statistika qo‘mitasi kabi institutsional tuzilmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

O‘z o‘mida ta’kidlash lozimki, keyingi paytlarda MDH o‘zining tashkil topishi chog‘idagi dastlabki maqsadi – ya‘ni mavjud xo‘jalik aloqalari va imkoniyatlardan foydalanishda o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash maqsadi hamda undan kelib chiquvchi vazifalarga mos kelmay qoldi. Bu tashkilot faoliyat yo‘nalishida ko‘proq siyosiy masalalar, «integratsion aloqalarni kuchaytirish» shiori ostida kuchli mamlakatlarning nisbatan kuchsiz mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvi, ular manfaatlarining siqib qo‘yilishi, iqtisodiy va siyosiy tazyiq o‘tkazish holatlari ustunlik kasb eta boshladi. Bunday holatlarga Prezidentimiz I.A.Karimov MDHga a‘zo mamlakatlarning turli darajadagi yig‘ilishlarida tanqidiy nuqtayi nazardan qarab, uni tubdan isloh qilish borasida o‘zlarining amaliy takliflarini berdilar.

O‘zbekistonning mintaqaviy darajadagi integratsiyasi – bu umumiy tarixga, yagona madaniy an‘analarga, o‘xshash tur mush tarzi va mentalitetga ega bo‘lgan qardosh xalqlarni birlashtiruvchi Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va rivojlanishdan iborat. Bunday integratsion aloqaning aniq shakli sifatida 1992-yilning yanvar oyida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi (SARS) tashkil etildi.

Yana bir istiqbolli, kuchli salohiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy birlashmalardan biri – Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShOS)dir. Bu tashkilot 2001-yilning 15-iyunida oltita – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Rossiya va Xitoy mamlakatlari hamkorligida tashkil etildi.

O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayishi ko‘p jihatdan mazkur mamlakatlarning milliy manfaatdorligi bilan belgilanadi. Eng avvalo, O‘zbekiston raqobat jihatidan nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan ishlab

chiqarish sohalari tovarlari – paxta xomashyosi, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, elektr energetikasi tovarlarining savdosini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, telekommunikatsiyalar, suv va energiya resurslaridan foydalanish, xalqaro turizm, hamkorlikdagi ekologik loyihalarni amalga oshirish borasida integratsiya aloqalarini kuchaytirish lozim.

Mahalliy darajadagi integratsion vazifasi – mikrodarajadagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, ya'ni bozor subyektlari (mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, firmalar, banklar va h.k.) o'rtaсидagi gorizontal aloqalarni rivojlantirishdan iborat.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib, boshqaruuvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo'lgan xo'jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarda savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblansada, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi kunda ham mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiy va valuta siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat.¹

Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'naliш bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlardan bilan erkin muomaladagi valutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rta Sidney yagona iqtisodiy makon to'g'risida tuzilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo'naliшlaridan biridir. O'zbekiston Hamdo'stlik davlatlari muassasalarini – Davlatlararo iqtiso-

¹ Karimov I.A. Istobdar va investitsiyalar bo'yicha idordanaro muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishidagi ma'nuzasi. «Xalq so'z», 2000-yil 2-fevral.

diy qo'mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarini tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDH mamlakatlari (Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnomalar hamda bitimlar imzolanib, ular kuchga kirdi.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga hamda zarur bo'lgan tashkilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlaridan keladigan zararni qoplaydigan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasini, turli qo'shma sug'urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investitsiyalarga ko'maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi ko'chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin. Bu muassasa va tashkilotlar hamda respublikada vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy investitsiya faoliyatini uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning huquqlarini himoya qiladi va sarflangan sarmoyasini kafolatlaydi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo'jaligiga qo'shilishning navbatdagi yo'nalishidir. Jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o'rtasida imzolangan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (1996-yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishidir.

O'zbekistonning Xalqaro valuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagি navbatdagи yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari ma'qullandi.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XTRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan XRRB yo'li bilan O'zbekistonga paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish va unumdonorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida 66 mln. dollar, institusional islohotlarni davom ettirish uchun 120 mln. dollar mablag' ajratildi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) alohida rol o'yaydi. Respublikada amalga oshirilayotgan umumiyligi qiymati 536 mln. dollarga teng 9 ta loyihada ETTBning ulushi 253,1 mln. dollarni tashkil qiladi.

ETTBning O'zbekistonda amalga oshirish ko'zda tutilgan, umumiyligi summasi bir mlrd. dollardan ortiq bo'lgan yana 8 ta loyihani ko'rib chiqishi mo'ljallangan.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorligi istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.¹

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvidagi muhim yo'nalishlardan biri – Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi faoliyati hisoblanadi.

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati 2000-yilning oktabr oyida Rossiya, Belarussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tomonidan tashkil etilgan edi. «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotining 2005-yilning 6-7-oktabrda Sankt-Peterburgda o'tkazilgan Sammitida bu ikkala tashkilotni birlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi. 2006-yil 24-yanvarida O'zbekiston ham Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkilotining teng huquqli qatnashchisi sifatida a'zo bo'ldi.

Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining strategik maqsadlari bu tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtaida integratsion aloqalarni rivojlanishiga yo'naltirilgan. Bu murakkab vazifa dastlab Erkin savdo hududlarini, keyinchalik esa Bojaxona ittifoqini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Pirovardida bu mamlakatlar o'rtaida yagona umumiyligi bozorni shakllantirish ko'zda tutilmoqda. Bu borada hozirda uchinchi mamlakatlardan import qilinuvchi mahsulotlarga bojaxona ta'riflarini bixillashtirish jarayoni faol olib borilmoqda. Xususan, o'tgan yil yakunlari ta'riflarning 60% ning bixillashtirib bo'linganligini, yaqin orada bu ko'rsatkichni 75% ga yetkazish (bu tovarlarning 12 ming turini tashkil etadi) mo'ljallanayotganligini anglatadi.

Shunday qilib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

¹ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (derslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005, 716-725-b.

Qisqacha xulosalar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya mamlakatlarning chuqur, barqaror o'zaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi, milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik va siyosiy aloqalarining birlashish jarayonlaridir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari sifatida erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valuta ittifoqini ko'rsatish mumkin.
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichida xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvি va globallashuvি; xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvি; umumjahon fan-texnika revolutsiyasi; milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi kabilar asosiy o'rinni egallaydi.
3. Turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, integratsiyaning qat'iy (bir tomonlama nafl) integratsiya, tasodifiy integratsiya, moslashuvchan (ikki tomonlama nafl) integratsiya kabi turlari farqlanadi.
4. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilib, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomaga munosabatlarda o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslandi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

Erkin savdo hududlari – iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

Bojxona ittifoqi – mazkur ittifoqqa kiruvchi mamlakatlar bojxona faoliyatini tashkil etishda yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatish va uchinchli mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishga asoslangan uyushma.

To'lov ittifoqi – milliy valutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor – bunda uning qatnashchilari o‘zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o‘tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta’milanganadi.

Qat’iy (bir tomonlama nafl) integratsiya – integratsiya jarayonlaridan ba’zilari naf ko‘rvuchi, boshqa birlari donor mamlakatlar hisoblanadigan integratsiyaning tashqi tavsif holatlari bilan shartlangan turi.

Moslashuvchan (ikki tomonlama nafl) integratsiya – har bir mamlakat bir vaqting o‘zida ham donor, ham naf ko‘rvuchi hisoblanadigan integratsiya turi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
2. Nima uchun integratsiyalashuv jarayoni jahoning alohida mintaqalari barqarorlashuvining omili hisoblanadi?
3. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
4. Integratsion jarayonlarning milliy iqtisodiyot uchun salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi jihatlari ham bo‘lishi mumkinmi? Fikringizni kengroq ifodalab bering.
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi yana qanday nazariyalarni bilasiz? Bu nazariyalarning afzal va kamchilik tomonlarini taqqoslang.
6. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsating.
7. Mamlakatimizning keyingi yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho bering.
8. O‘tish davri iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘nalishlari qanday?

XII bob. IQTISODIY TIZIMLAR TRANSFORMATSIYASINING YAKUNLANISHI MEZONLARI

Transformatsiya davri bir barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan boshqa biriga o'tish holatini qamrab oluvchi, bu holatlarning o'zgarishi va yangi sifat holatiga aylanishi uchun zarur bo'lgan ma'lum tarixiy muddatni ifodalovchi oraliq davrdir. Transformatsiyalashuv davrining boshlanishi bo'lganidek, uning yakunlanishi ham muqarrardir. Biroq, bu yakunlanish ham o'ziga xoslik, alohidalik tavsiiflariga ega bo'lib, uni belgilash uchun maxsus mezonlardan foydalanish mumkin. Bu borada eng umumiyligi va asosiy mezon – sifat jihatdan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yaratilishi hisoblanadi. Mazkur jarayonning mazmun-mohiyatini tushunish esa ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyati va jihatlari, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamniyatining shakllanishi asoslарini, shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning yakunlanishi xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

1-§. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyati va jihatlari

Oldingi boblardan ma'lum bo'ldiki, bozor iqtisodiyoti umum-bashariy hodisa bo'lib, obyektiv rivojlanish xususiyatiga ega. Bunday sharoitda o'z yo'lini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modelini tanlash juda muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti faqat mulkchilikning xilma-xilligi sharoitida vujudga kelishi va rivojlanishi mumkinligi sababli, mamlakatimizning sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davrida nafaqat uning vujudga kelishi, balki umuman belgilarining namoyon bo'lishi to'g'risida so'z yuritish mumkin emas edi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyin respublika va uning xalqi manfaatlariga muvofiq keladigan mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyati tug'ildi. O'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish respublikaning qat'iy pozitsiyasıdir. «Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan

normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingen yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir».

Strategiyani tanlash butun isloh qilish jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Umumiy strategiya bo'lmasa, pirovard maqsadni ko'ra bilmay turib, iqtisodiy islohotning ta'sirchan choralarini belgilab bo'lmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlarning pirovard maqsadini aniq belgilab olish isloh qilishning zamonaviy strategiyasining boshlang'ich nuqtasidir. Bu markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish, boz ustiga, mavjud xo'jalik yuritish usulini yangilash yoki takomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo'jalik yuritish tizimini joriy etish, bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tishdir.

Shu o'tish bosqichiga o'tish davri iqtisodiyoti ham mos keladi. Bu yerda takror ishlab chiqarish jarayoni o'tish davri iqtisodiyoti amal qilishining o'ziga xos qonuniyatları: 1) takror ishlab chiqarishning inersionligi va 2) yangi munosabatlar shakllarining ustuvor tarzda intensiv rivojlanishiga muvofiq ro'y beradi. Takror ishlab chiqarishning inersionligi takror ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligi bilan bog'liq. Ma'lumki, ushbu jarayon eskini batamom qo'porib tashlash va uning o'tnida yangini barpo etish prinsipiga ko'ra rivojlanishni istisno etadi. Bu uzlusizlik mavjud shakllarni boshqa shakllarga tez o'zgartirib bo'lmasligini ham belgilaydi (falaj qilib davolash). Bunday harakatlar muqarrar tarzda ishlab chiqarish jarayonida tartibsizlikni keltirib chiqaradi, uni deformatsiya qiladi, ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Shu ma'noda takror ishlab chiqarishning inersionligi o'tish davri iqtisodiyotida eski iqtisodiy shakllar ancha uzoq muddatga saqlanib qolishini nazarda tutadi. Bu avvalo o'zgartirish ancha uzoq vaqt talab qiladigan ishlab chiqarish tuzilmasining muayyan vaqt mobaynida saqlanib qolishida namoyon bo'ladi. Jamiyatning shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, mavjud institutlar, tarmoqlararo, tarmoqlar doirasidagi aloqalar, xo'jalik mexanizmlari va h.k.ning faoliyati tez o'zgarishi mumkin emas.

Takror ishlab chiqarish jarayonining inersionligi bir qancha oqibatlarga olib keladi. Birinchidan, u o'tish davri iqtisodiyotining oldingi holat bilan izchil bog'liqligini belgilaydi. Ikkinchidan, inersionlik ilgari shakllangan mentalitetning saqlanib qolishini kuchaytiradi. Takror ishlab chiqarish jarayonining inersionligini

¹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.I. – T.: «O'zbekiston», 1996, 300-b.

e'tiborga olmaslik volyuntarizmning yorqin ifodasıdır. Uchinchidan, yangi shakllar pirovard natijada umri tugagan eski shakllarni siqib chiqarishi va o'z hukmronligini o'rnatishi lozim.

2-§. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov belgilangan strategiyadan va jahon hamjamiyatida yuzaga kelgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li» (1993), «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» (1995) asarlarida iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlar va konsepsiyalarni, ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish strategiyasini ta'riflab berdi¹.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim modeli strategiyasining birinchi tamoyili – kuchli demokratik huquqiy davlat. U hozirgi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi, yosh davlatga demokratik xususiyat baxsh etuvchi yangi qonunlar qabul qilishni nazarda tutadi. Shuning uchun islohotlarning birinchi bosqichida o'z huquqiy bazasini yaratishga alohida e'tibor beriladi.

Demokratik davlatning umume'tirof etilgan tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- so'z erkinligi;
- ozchilikning ko'pchilikka bo'y sunishi;
- barcha fuqarolarning teng huquqliligi;
- barcha jamiyat a'zolarining davlatni boshqarishda ishtiroy etishdagi teng huquqliligi;
- mamlakat prezidenti, davlatning asosiy organlari xalq tomonidan saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisobot berishi;
- tayinlash yo'li bilan shakllantiriladigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisobot berishi.

Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy

¹Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 1996, 166-b.

topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoi va yovvoyi shakli» deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi. Albatta, islohotlar – yangicha tafakkur, yangicha izlanishlar mevasi. Biroq har qanday islohot ham avvalo inson manfaatiga, uning hayot sinovidan o'tgan tajribalariga va yangi jamiyatning ehtiyojlariga asoslanishi lozim. Jamiyatni demokratlashtirishning ikkinchi muhim sharti odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'llishiga bog'liqdir. Demokratik o'zgarishlarning zarurligini avvalambor jamiyatning o'zi anglamog'i darkor. Uchinchidan, demokratik jarayonlar xalqimiz milliy mada-niyatining o'ziga xos jihatlarini, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak. Ma'lumki, G'arb namunasi ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiyashtirishga olib keladi. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi.

Asosiy vazifa odamlar o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilishlari va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmini yaratib berishdan iborat. Shundan keyin insонning jamiyatdagi o'rni uning salohiyatiga, mehnat qilish istagiga, oqilu uddaburonligiga bog'liq bo'ladi. Xalq hokimiyatga ham bevosita, ham o'z vakillari orqali ega bo'lishi lozim.

Huquqiy davlat fuqarolarning qonun oldida yuridik tengligini kafolatlaydi. Huquqiy davlatda qonuniylik, huquqiy tartibot, shaxs huquq va erkinliklari, qattiq intizom, ichki o'zini-o'zi idora etish va mas'uliyat, qonunlar va an'analarning ustunligi tantana qiladi.

Jamiyatning demokratiyalashganlik darajasi quyidagi uch mezon bilan belgilanadi:

- aholiniн qarorlar qabul qilish jarayonlari to'g'risida xabardorligi darajasi;
- hukumat qarorlarining nazorat qilinishi va qonunlarga muvofiq kelish darajasi;
- oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishda ishtirok etishi darajasi.

Fuqarolik jamiyatni barpo etish yangi ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni vujudga keltirish strategiyasi pirovard maqsadining tarkibiy qismidir. Faqat fuqarolik jamiyatni sharoitida millat chinakam ravnaq topishiga erishish mumkin. Maorif va ma'naviyat sohasida

muttasil ish olib borish, shaxsning kamol topishiga g'amxo'tlik qilish fuqarolik jamiyatini yaratishning muhim tarkibiy qismidir.

Milliy davlatchilikni barpo etish hokimiyatning quyidagi to'rt tarmoqqa bo'linishi asosida amalga oshiriladi:

1.Qonunchilik.

2.Ijro.

3.Sud.

4.Matbuot (ommaviy axborot vositalari).

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi Oliy Majlis hisoblanadi. Birinchi chaqiriq (bir palatali) Oliy Majlisning birinchi sessiyasi 1995-yil 23-fevralda bo'lib o'tgan bo'lsa, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchı sessiyasida u, umumxalq referendumni natijalariga ko'ra, ikki palatali, ya'ni Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat, deb e'lon qilindi.

«Oliy Majlis qabul qilgan qonunlar, – deb ta'kidladi respublika Prezidenti birinchi chaqiriq Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida, – jahon andozalariga mos keladi, chunki ularni yaratish ustida jahonga mashhur olimlar ish olib boradilar. Bu qonunlar amal qilishi zarur. Bunda biz odillik prinsipiaga asoslanishimiz lozim».

Ijro etuvchi hokimiyatning ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, kuchli ijro etuvchi hokimiyatsiz hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmay qolishi mumkin. Shu boisdan qonun hujjatlari amalga oshirilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi, siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishini ta'minlovchi prezident hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i idir. Respublika Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi hamdir.

Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari hisoblanadi.

Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi Prezident tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zлari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'lnlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. Jamiyat hayotida nodavlat va jamoatchilik instituti o'mni va ahamiyatining oshishi fuqarolik jamiyat shakllanishining muhim shartidir. Bu «kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» tamoyilining amalidagi ifodasidir. Uning mohiyati davlat tuzilmalari rolining asta-sekin va bosqichma-bosqich kamayib borishi hamda ularning funksiyalarini jamoat tashkilotlariga berishdan iborat.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tish yakunlanishi bilan davlat hokimiyati organlari faqat eng muhim ijtimoiy funksiyalar: mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, valuta, moliya va soliq tizimini shakllantirish, qonunlar qabul qilish vazifalarini amalga oshiradi. Demokratik, odil fuqarolik jamiyat qurish – bizning strategiyamiz, milliy rivojlanish umumiy konsepsiyamiz.

Sud tizimi – hokimiyatning uchinchi tarmog'i hisoblanib, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sndlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sndlari, harbiy va xo'jalik sndlardan iborat.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar. Ular siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas. Konstitutsiyaviy sud sudyalarini daxlsizlik huquqidан foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar hujjatlarining konstitutsiyaviyligi to'g'risidagi ishlarni ko'radilar. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan

faoliyatini so'zda emas, amalda ta'minlash bo'lmog'i zarur. Sudlar tom ma'noda mustaqil bo'lgan holdagini qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qayerda sud mustaqil bo'lmash ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar. Qonun ustuvorligini, insонning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlasdan turib fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi¹.

O'zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining besh asosiy tamoyilidan biri bu qonunning ustunligidir. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul etilgan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishga va ularga riya etishga majburdirlar. Faqat shu yo'l bilan ma'rifatli jamiyatga kelish va uning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish mumkin.

Ayni vaqtida, qabul qilingan qonunlarning ko'pchiligi shaklan jahon andozalariga mos bo'lsa-da, hanuzgacha tegishli qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlanmagan. Qabul qilingan me'yorlar va kafolatlarni amalga oshirishning aniq mexanizmi ishlab chiqilmagan. Jahonda inson huquqlari sohasida hukumatning o'z fuqarolari oldida javobgarligini belgilovchi yetmishta standart qabul qilingan. O'zbekiston hozircha ularning o'n beshtasiga qo'shildi.

Inson huquqlariga riya qilinishi ustidan nazorat olib borilishini ta'minlovchi institutsional tuzilmalarni tashkil etish ham muhim vazifadir. Jamoatchilik fikri instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz tashkil etish zarur, ya'ni inson huquq va erkinliklariga riya etilishini nazorat va idora qilishning samarali mexanizmlarini yaratish lozim.

Odamlarning oldingi psixologiyasini o'zgartirish va har bir odam erkinlik ham majburiyat, ham javobgarlik ekanligini anglaydigan yangi huquqiy ongni shakllantirish zarur.

Fuqarolik jamiyatি hokimiyatining to'rtinchи tarmog'i – matbuot, ommaviy axborot vositalari.

Axborot sohasining jadal sur'atlarda rivojlanishi, ommaviy axborot vositalari (matbuot, televidenie, radio)ni erkinlashtirish fuqarolik jamiyatи asoslarining shakllanishi jarayonlarining muhim tarkibiy qismini tashkil etishi lozim. Ommaviy axborot vositalari to'rtinchи hokimiyatga aylanishi lozim. Haqiqiy demokratik matbuot ko'rsatma asosida yashay olmaydi va yashashi ham mumkin emas.

¹Qarang: Karimov I.A. Ikkinchи chaqiriq Oliy Majlisining IX sessiyasidagi ma'ruba. – «Xalq so'zi», 2002-yil 30-avgust.

Shuni aytish zarurki, bugungi kunda mamlakatimizda o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lgan, yurtimizdagi va chet ellardagi ijtimoiy-siyosiy hayotning murakkab masalalari va haqiqiy holatini chuqur tushunish, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan malakali jurnalistlarga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Jamiyatda oshkorlik va ochiqlikni ta’minlash masalasi jamoatchilik fikrini o‘rganish usul-uslublarining qay darajada rivojlangani bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, jamoatchilik fikri - fuqarolik jamiyatining holatini o‘zida aniq aks ettiradigan bamisol bir ko‘zgu. Bu masalalarni yechishda mavjud siyosiy partiya va harakatlar o‘z faoliyatini jonlantirishi, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko‘ppartiyaviylik, demokratik parlamentarizm tizimi, ijobiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga va jamiyatimiz siyosiy maydonida tan olingan oppozitsiya paydo bo‘lishiga hissa qo‘sishni lozim.

3-§. Ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga o‘tish va uning yakunlanishi

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlарiga o‘tishi konsepsiyasining asosiy tamoyillari va o‘tish davrini yakunlash mezonlari yaxlit modelda bayon etilgan bo‘lib, unda strategiya, strategiyaning pirovard maqsadi va asosiy tamoyillari belgilab qo‘yilgan. O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturi model ko‘rinishida ifodalangan. Bu model uch tarkibiy qismdan iborat: birinchisi, bu – ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy modelning mohiyati va tavsifi; ikkinchisi, bu – markazlash-tirilgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmiga o‘tishning asosiy tamoyillari; uchinchisi, bu – iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish, inqirozga barham berish, barqarorlikni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning aniq yo‘nalishlari.

Tartibga solinadigan madaniy bozor iqtisodiyotiga o‘tish aralash ko‘p ukladli iqtisodiyotning barcha mulk shakllari plyuralizmiga asoslanadi.

Aralash iqtisodiyotning mohiyati jamiyat iqtisodiy hayotini qurish va tartibga solishning xususiy va umum davlat manfaatlaridan iborat ikkita har xil prinsiplarining – erkin bozor va raqobat bilan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ayni bir vaqtda mavjud bo‘lishidan va ularning o‘zaro ta’siridan iboratdir.

Bozor munosabatlari ko‘p ukladli iqtisodiyotga, mulkchilik shakllarining xilma-xilligiga asoslanishi lozim. Shunda bozor qonunlarga qat’iy rioya qilgan holda faoliyat ko‘rsatadi. Mulkchilik shakllari xilma-xilligining shakllanishi fuqarolik jamiyatining yetakchi sinfi va tayanchi hisoblangan o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanishi bilan uyg‘unlikda ro‘y beradi. Institutsional o‘zgarishlar natijasida davlatchilikning shakllanishi yakunlanadi, uning bir qancha funksiyalari, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, jamoat tashkilotlariga beriladi. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y beradi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga qo‘yiladi, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv amalga oshadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning yakunlanishi sifat jihatidan yangi iqtisodiy tizim barpo etilganini anglatadi. U quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi:

1. Kuchli demokratik huquqiy davlat.
2. Fuqarolik jamiyat.
3. Ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti.
4. Ochiq tashqi siyosat.

O‘rta mulkdorlar sinfi fuqarolik jamiyatining tayanchidir. Binobarin, u jamiyatdagi yetakchi sinf hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatga saylovda, ijro etuvchi hokimiyat tarkibini belgilashda aynan shu sinf hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov iqtisodiy tafakkurda yangi nazariy qoidani ta‘riflab berdi: «Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o‘rta qatlaming ko‘pehilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi»¹. O‘rta mulkdorlar sinfi o‘z moddiy farovonligini mehnati, mulki va aql-zakovati bilan, mulkdorlar o‘rtasida murosaga asoslangan munosabatlar hukm surgan, «sinfiy kurash»ga o‘rin bo‘limgan sharoitlarda ta‘minlaydi.

Inson omilining ustuvorligi oxir-oqibatda o‘tkazilayotgan barcha islohotlarning bosh yo‘nalishi va samaradorligini belgilovchi mezondir.

Qisqacha xulosalar

1. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish jarayoni o‘tish iqtisodiyoti amal qilishi maxsus qonunlarining ta’siri asosida yuz beradi: 1) takror ishlab chiqarishning inersiyaliligi; 2) munosa-

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va faraqqiyot kafolatlari. T. 6. – T.: «O‘zbekiston», 1998, 155-b.

batlar yangi shakllarining intensiv ustun ravishda rivojlanishi. Ishlab chiqarishning inersiyaliligi takror ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligi bilan bog'liq, bu esa «asosgacha yo'q qilish», ya'ni eskilarning hammasini yo'q qilish va shu asosda yangisini qurish tamoyiliga ziddir.

2. Sifatli yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining maqsadli strategi-yasining birinchi tamoyili – kuchli demokratik huquqiy davlat qurishdir. U yosh davlatga demokratik tavsif baxsh etadigan, iqtisodiy siyosiy sohalarda yangi qonun va huquqiy asoslarning ishlab chiqilishini taqozo etadi.

3. Jahonda qabul qilingan demokratik jamiyat tamoyillariga quyidagilar kiradi: fikr erkinligi (o'z fikriga ega bo'lish va uni erkin bayon qila olish); ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi; fuqarolarning teng huquqligi va davlat boshqaruvida teng huquqqa ega bo'lishi; mamlakat prezidentining xalq tomonidan saylanishi; davlat organi xodimlarining xalq oldida mas'uliyatli bo'lishi.

4. Jamiyatning demokratlashganlik darajasini quyidagi 3 ta mezon aniqlaydi: qaror qabul qilish jarayonlari haqida xalqning xabardorlik darjasи; hukumat qarorlarining qonunlarga mos kelishi va nazorat qilinishi darjasи; oddiy fuqarolarning davlat boshqaruvida qatnashish darjasи.

5. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariiga o'tish tamoyili va o'tish davrining yakuniy mezonlar bitta modelda birlashgan bo'lib, bu modelda O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturlarining yakuniy maqsadlari aniqlanib, model holiga keltirilgan. Bu model 3 tarkibdan iborat: ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy modelining mohiyati; ma'muriy buyruqbozlik tizimidan xo'jalikning bozor mexanizmiga o'tish tamoyillari; islohotlarni amalga oshirish, inqirozlarning oldini olish, barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning aniq yo'nalishlari.

Asosiy tayanch tushunchalar

Demokratik huquqiy davlat – jahon hamjamiyati tomonidan ishlab chiqilgan va tan olingan xalqchil mezonlar asosida shakllangan davlat; u demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot – aralash iqtisodiyot; bozor mexanizmi va davlatning tartiblash mexanizmining samarali birikmasi tarzida tashkil topadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'tish davrining yakunlanishi mezonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyatini tushuntiring.
3. O'tish davrining qanday qonuniyatlari mavjud?
4. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barpo etilishining xususiyatlari qanday?
5. Davlat hokimiyatining qanday ko'rinishlari mavjud? Ularning mazmuni nimalardan iborat?
6. «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilning mazmunini izohlab bering.
7. Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotining qaror topishi jarayoni va uning yakunlanishini tushuntirib bering.
8. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning yakunlanishi natijasida paydo bo'lgan sifat jihatidan yangi iqtisodiy tizimning tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2012.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida. – T.: «Adolat», 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – T.: «Adolat», 2004.
4. Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari) to'g'risida. – T.: «Adolat», 2004.
5. Fermer xo'jaligi to'g'risida. – T.: «Adolat», 2004.
6. Dehqon xo'jaligi to'g'risida. – T.: «Adolat», 2004.
7. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida. – T.: «Adolat», 2003.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida. – T.: «Adolat», 2003.
9. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida. – T.: «Adolat», 2003.
10. Qimmatli qog'ozlar bozorining amal qilishi to'g'risida. – T.: «Adolat», 2003.
11. Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida. – T.: «Adolat», 2003.
12. Kasaba uyushmalari, ularning huquq va kafolatlari to'g'risida. – T.: «Adolat», 2002.
13. Mehнат muhofazasi to'g'risida. – T.: «Adolat», 2002.
14. Birja va birja faoliyati to'g'risida. – T.: «Adolat», 2001.
15. Raqobat va tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida. – T.: «Adolat», 2001.
16. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: «Adolat», 2001.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2007-yil 24-yanvar.
18. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'bat-lantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2005-yil 11-aprel.
19. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida. 2005-yil 30-aprel.
20. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'bat-lantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2005-yil 20-iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarortari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy- me'yoriy hujjatlari

21. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «2011-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012-yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida». 2012-y.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi. 2010-y.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi. 2009-y.
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturi. 2011-y.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «Mustahkam oila yili» davlat dasturi. 2012-y.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

26. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: «O'zbekiston», 2012. 38-45 b.
27. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O'zbekiston», 2011. 437 b.
28. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T: «O'zbekiston», 2010. 76-80 b.
29. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T.: «O'zbekiston», 2010. 52-55 b.
30. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. 76-80 b.
31. Karimov I.A. Jahan moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar / I.A.Karimov. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
32. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009-yil 14-fevral.
33. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, faroven hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007-yil 8-dekabr.
34. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007-yil 31-avgust.
35. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va istoh etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005.
36. Karimov I. A. Eskicha qarashlar va yondashuvlar bilan yangicha hayot qurib bo'lmaydi. – T.: «O'zbekiston», 2005.
37. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashlar edi. – T.: «O'zbekiston», 2005.

38. Karimov I.A. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish – taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 2004.
39. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'llimiz. – T.: «O'zbekiston», 2002.
40. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. – T.: «O'zbekiston», 2000.
41. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: «O'zbekiston», 2000.
42. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.
43. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1998.
44. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997.
45. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995.
46. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lli. – T.: «O'zbekiston», 1993.

V. Darsliklar

47. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Iqtisod moliya», 2010 y. - 726 b.
48. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2005. - 779 b
49. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T.: «Moliya». 2002.
50. Экономическая теория.: Учебник. /И.К.Станковская, И.А.Стрелец. З-е изд., испр. – М.: «Эксмо», 2009. – 448 с.
51. Экономика.: Учебник. /Самуэлсон Пол Э., Нордхаус Вилям Д. 18-е изд.: Пер с англ. – М.: ООО «И.Д.Вилямс», 2009. – 1360 с.
52. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник. /Макконнел К.Р., Брю С.Л. 17-изд. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 916 с.
53. Экономическая теория. Микроэкономика-1,2: Учебник. /Под общ. ред. Заслуженного деятеля науки РФ, Г.П.Журавлевой. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: «Дашков и К», 2008. – 934 с.
54. Экономическая теория.: Учебник. /С.С.Носова. 2-е изд., стер. – М.: «КРОНУС», 2008. – 800 с.
55. Экономическое развитие: модели становления рыночной экономики: Учебник. /Р.М.Нуреев. 2-е изд., перераб и доп.. – М.: «НОРМА», 2008. – 640 с.
56. Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005.
57. Иохин В.Я. Экономическая теория: Учебник. – М.: Экономист, 2005.
58. Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005.

59. Экономика. Учебник, 8-е изд., перераб. и дополненное. - /Под ред. А.С. Булатова. – М.: Экономист, 2005.
60. Экономическая теория: Учебник. – Изд. испр. и доп. /Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005.
61. Экономическая теория. Учебник/Под. ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечеловой – М.: Экзамен, 2004.
62. Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004.
63. Абалкин Л.И. Курс переходной экономики. – М.: ФинСтатИнформ, 1997.
64. Герасименко. Теория переходной экономики. – М.: ТЕИС, 1997.
65. Чепурин М.Н., Киселева Е.А. Основы теории переходной экономики. – Киров, 1996.
66. Радаев В.В., Бузгалин В.В. Экономика переходного периода. – М.: МГУ, 1995.

VI. O'quv qo'llanmalar

67. Bekqulbekov F. O'tish davri iqtisodiyoti nazariyasi (o'quv qo'llanma). – Т., «Fan va texnologiya», 2007.
68. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini» nomli asarini o'rGANISH bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'afrorov, B.K. To'xliyev. –Т.: «Iqtisodiyot», 2009.-120 b.
69. Safarova Z.G. i dr. Teoriya perexodnoy ekonomiki (tekstsi leksiy), TGEU, 2004.
70. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'tayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. –Т.: «Moliya», 2002.
71. Экономическая теория для бакалавров: учеб. пос./С.С.Носова, В.И.Новичкова. – М.: КНО РУС, 2009. – 368 с.
72. Экономическая теория: Новейшие течения Запада: /Худо-кормов А.Г. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 416с.
73. История экономических учений. Учебное пособие/Под. ред. В.Автономова, О.Ананина, Н.Макашевой. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 784 с.
74. Экономическая теория: Экспресс курс: учеб. пос./ кол. авторов; под. ред. Грязновой А.Г. и др. 4-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2008. 608 с.
75. Бабушкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика. 2004.
76. В поисках новой теории с проблемными ситуациями: Учеб. пособ. / Под ред. Грязновой А.Г. и др. – М.: КНО РУС, 2004.
77. Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории: Учеб. пособ. – М.: ЗАО изд-во Экономика, 2004.
78. Шагас Н., Туманова Е. Экономика. Краткосрочный аспект. 2-е изд.: Учеб. пособ. – М.: Эконом. факулт. МГУ, ТЕИС, 2004.

79. Шагас Н., Туманова Е. Экономика. Долгосрочный аспект. 3-е изд. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС. 2004.
80. Богач О.Н. Переходный период: анализ и уроки первого десятилетия. – М.: Вес Мир, 2002.
81. Современная экономическая теория: проблемы разработки и преподавания. / Под ред. Хубиева К.А. –М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002.
82. Шаститко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002.
83. Проблемы трансформации и перехода к регулируемой рыночной экономике. – М.: ТЕИС. 1999.
84. Красникова Е.В. Теория переходной экономики. Учебное пособие. – М., 1998.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

85. Инвестиции Республики Узбекистан, 2011. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2012. – 148 с
86. Промышленность Республики Узбекистан, 2011. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2012. – 156 с.
87. Селское хозяйство Узбекистана, 2011. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2012. – 160 с.

VIII. Internet saytlari

88. Теория переходной экономики. Курс лекций. Задачник. Методические указания. http://www.iet.ru/mipt/2/text/curs_micro_lect.htm
89. Учебные материалы по экономической теории. <http://www.ic.omskreg.ru/econrus/win/library/3/37/371/3713/table.htm>
90. Программа курса «Теория переходной экономики» <http://www.ic.omskreg.ru/econrus/win/library/3/program/4.htm>
91. Борисова А. Переходная экономика. <http://www.economics.ru>
92. Экономики России. <http://www.imce.ru>
93. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
94. www.aza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
95. www.ceep.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
96. www.uzreport.com – SAIPRO konsalting kompaniyasiga tegishli, O'zbekiston va butun dunyodagi biznes tizim va iste'molchilarga axborot yetkazib berishga mo'ljallangan integratsiyalashgan internet loyiha.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. IQTISODIY TIZIMLAR TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI NAZARIYASI – IQTISODIYOT NAZARIYASINING BO'LIMI SIFATIDA	
1-§. Kishilik jamiyatı taraqqiyotining amal qilishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar.....	5
2-§. «Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlari nazariyasi» kursining predmeti, vazifasi va bilish usullari	11
3-§. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini belgilash konsepsiysi va mezonlari	14
II bob. IQTISODIY TRANSFORMATSIYANING ASOSIY BELGILARI VA TURLARI	
1-§. Transformatsiyalashuv jarayonlarining mazmuni va asosiy belgilari...	23
2-§. Iqtisodiy transformatsiyalashuv jarayonlarining miqyosi va tavsiyi jihatidan turlari.....	25
3-§. Iqtisodiy transformatsiyaning amal qilish qonuniyatları.....	28
III bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING TURLI ZAMONAVIY MODELLARI	
1-§. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilish qonuniyatları	34
2-§. Iqtisodiy taraqqiyotning turli xil konsepsiyalari.....	38
3-§. Transformatsiyalashuv jarayonlarında mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarkibi va uning o'sish sur'atlari.....	45
IV bob. MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK IQTISODIYOTIDAN BOSH- QARILADIGAN BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING XUSUSI- YATLARI	
1-§. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimining mohiyati.....	56
2-§. Ma'muriy-buyruqbozlik unsurlarini bartaraf etish yo'llari.....	60

V bob. BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISHNING O'ZBEK MODELI. KONSEPSIYA VA STRATEGIYA

1-§. Islohotlar strategiyasi va konsepsiyasini tanlash. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining mazmuni.....	64
2-§. Umumiy strategiya doirasida aniq strategik maqsadlar. Isloh qilishning yangi bosqichida bosh strategik maqsadning saqlab qolinishi....	68
3-§. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning maxsus konsepsiysi va asosiy tamoyillari.....	75

VI bob. KO'P UKLADLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH.

YANGI MULKCHILIK SHAKLLARINING PAYDO BO'LISHI

1-§. Ko'p ukladli iqtisodiyot va uning tarkibi.....	82
2-§. Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish yo'llari.....	84

VII bob. BARQAROR IJTIMOIY YO'NALTIRILGAN BOZOR

IQTISODIYOTINING SHAKLLANTIRILISHI

1-§. Keynschilik va neokonservativ konsepsiyalar nuqtayi nazaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi.....	93
2-§. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat mexanizmlar.....	97
3-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari	105

VIII bob. TRANSFORMATSIYALASHUV DAVRIDA IQTISODIYOT- NING MAKROIQTISODIY MUAMMOLARI. TARKIBIY O'ZGA- RISHLAR, USTUVOR YO'NALISHLAR

1-§. Makroiqtisodiyotning mohiyati va ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ko'p qirraligi.....	111
2-§. Iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari	115
3-§. Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish. Xususiy lashtirish tarkibiy o'zgarishlar jarayonida xorijiy investitsiyalarining o'rni va roli.....	117

IX bob. TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARIDA AGRAR SOHANI ISLOH QILISH

1-§. Agrar sektorning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni.....	127
2-§. Agrar sohada mulkchilik muammosining hal etilishi.	130

3-§. Qishloqda zamonaviy uy-joylar qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	133
X bob. TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARIDA IJTIMOIY SIYOSATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI	
1-§. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining ziddiyatlari va kamchiliklari.....	141
2-§. Ijtimoiy adolat konsepsiysi va uning aralash iqtisodiyotga o'tish sharoitida rivojlanishi.....	144
3-§. Jamiatning ijtimoiy barqarorligi iqtisodiy, demokratik va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish sharti sifatida.....	146
XI bob. OCHIQ TASHQI SIYOSATNING SHAKLLANISHI.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI	
1-§. Integrasiyalashuv jarayoni jahoning alohida mintaqalari barqaror-tashuvining omili sifatida.....	151
2-§. Integratsiyalashuvning turli shakl va ko'rinishlari.....	154
3-§. O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiya-lashuvi.....	157
XII bob. IQTISODIY TIZIMLAR TRANSFORMATSIYASINING YAKUNLANISHI MEZONLARI	
1-§. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyati va jihatlari.....	165
2-§. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiatining shakllanishi.....	167
3-§. Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish va uning yakunlanishi.....	172
Foydalaniyan adabiyotlar	176

U.V.G'AFUROV, F.M.BEKQULBEKOV, Q.Q.MAMBETJANOV

IQTISODIY TIZIMLAR TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI NAZARIYASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Xolmuhamedov
Musavvir:	B.Nasridinov
Musahhit:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	SH.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AJ№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 01.11.2013.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$ - «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 11,0. Nashriyot bosma tabog'i 11,75.
Tiraji 500. Buyurtma №152.

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonas» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**

13140-00

65.07.14
E205

FAN VA
TEKNOLOGIVALAR

ISBN 978-9943-10-984-1

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-10-984-1.

9 789943 109841